

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI



A. Muxtarov, A. Boboyev

MANTIQ

O'quv qo'llanma

TOSHKENT


(07)
1-82

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

A. Muxtarov, A. Boboyev

M A N T I Q

O'quv qo'llanma



Toshkent - 2016

Ushbu o'quv qo'llanmada "Mantiq" fani bo'yicha davlat ta'lim standarti va o'quv dasturida nazarda tutilgan barcha asosiy masalalar aniq va tushunarli shakida ko'rib chiqilgan. Mavzularni yaxshi o'zlashtirishga yordam beradigan mashq va masalalar keltirilgan.

Mazkur qo'llanma fan yuzasidan asosiy bilimlarni tez o'zlashtirish va sinov hamda imtihonlarga pishiq-puxta tayyorlanishga imkon beradi. Talabalarning tafakkuri to'g'ri, fikrlash qobiliyati aniq bo'lishiga yordam beradi.

Oliy o'quv yurtlari bakalavr, magistratura, izlanuvchi va tadqiqotchilar hamda ushbu soha bilan qiziquvchilar uchun tavsiya etiladi.

Mas'ul muharrir prof. f.f.d. prof., I. Saifnazarov

Taqribchilar: f.f.d., prof. O. Fayziyev.

MUNDARIJA

1. Mantiq fanining predmeti va uning ilmiy bilim tizimidagi ahamiyati.....	5
2. Mantiq rivojining asosiy tarixiy bosqichlari.....	6
3. Ayniyat qonuni va uning tafakkurga talabları.....	7
4. Nozidlik qonuni va uning inson faoliyatidagi ahamiyati.....	8
5. Uchinchisi istisno qonuni va uning bilishdagi roli.....	8
6. Yetarli asos qonuni va uning bilishdagi roli.....	9
7. Tushuncha tafakkur shakli sifatida.....	11
8. Tushunchalarni hosil qilishning mantiqiy usullari.....	11
9. Tushunchaning mazmuni va hajmi.....	12
10. Tushuncha mazmuni bilan hajmi o'tasidagi teskari munosabat qonuni.....	13
11. Tushunchalar turlari.....	13
12. Tushunchalar o'tasidagi munosabatlar.....	15
13. Tushunchalarni umumlashtirish va chegaralash.....	17
14. Tushunchani ta'riflash. Ta'rif - turlari.....	18
15. Tushunchalarni ta'riflash qoidalari.....	19
16. Tushunchalarni bo'lishning mantiqiy operatsiyasi. Bo'lish turlari.....	20
17. Bo'lish qoidalari.....	21
18. Tasniflash.....	22
19. Hukm: uning mohiyati va bilishdagi roli.....	27
20. Hukmlarning mantiqiy tuzilishi.....	28
21. Oddiy hukmlar turlari.....	29
22. Oddiy hukmlarning birlashgan tasnifi.....	30
23. Ajratuvchi va istisno etuvchi hukmlar.....	31
24. Hukmlarda atamalarning taqsimlanishi.....	32
25. Murakkab hukmlar.....	34
26. Murakkab ajratuvchi (diz'yunktiv) hukmlar.....	34
27. Sharqli (implikativ) hukmlar.....	36
28. Ekvivalentli hukmlar (ikkilama implikatsiya). .	36
29. Oddiy hukmlar o'tasidagi mantiqiy munosabatlar.....	37
30. Murakkab hukmlar o'tasidagi mantiqiy munosabatlar.....	39
31. Hukmlarning modalligi. Epistemik modallik.....	40
32. Deontik modallik.....	41
33. Aletik (chin) modallik.....	42
34. Savollarning mantiqiy tafsifnomasi.....	43
35. Javoblarning mantiqiy tafsifnomasi.....	44
36. Xulosa tafakkur shakli sifatida. Xulosalar turlari.....	50
37. Bevosita deduktiv xulosalar: o'zgarish.....	51
38. Bevosita deduktiv xulosa: aylantirish.....	52
39. Bevosita deduktiv xulosa: predikatga qarama-qarshi qo'yish.....	53
40. Mantiqiy kvadrat bo'yicha bevosita deduktiv xulosa chiqarish.....	54
41. Sodda qat'iy sillogizm, uning tuzilishi v aksioma.....	56
42. Sodda qat'iy sillogizm atamalari qoidalari.....	56
43. Sodda qat'iy sillogizmning asoslari qoidalari.....	57

Mantiq shaxsnинг о'зини о'зи anglashi, intellektual rivojlanishiga ko'maklashib, unda ilmiy dunyoqarashning shakllanishiga yordam beradi.

Faoliyat odamlarning taqdiriga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan ommaviy axborot vositalari vakillari va tibbiy xodimlarning mantiqni bilishi ayniqsa muhimdir.

2. Mantiq rivojining asosiy tarixiy bosqichlari

Mantiq tarixi jamiyat taraqqiyoti tarixi bilan uzviy bog'liqidir. Odamlarning mehnat-moddiy-ishlab chiqarish faoliyatining rivojlanishiga qarab ularning fikrlash qobiliyatları ham takomillashtganki, bu tafakkurning o'zi, uning shakllari va qonunlarining tadqiqot obyektiга aylanishiga olib keldi.

Tarixning guvohlik berishicha, ayrim mantiqiy muammolar eramizdan ilgarigi I ming yillikda oldin Qadimgi Hindiston va Xitoy, so'ngra Qadimgi Gretsya va Rimda vujudga kelgan. Ular sekin-asta izchil bilimlar tizimi, mustaqil fan bo'lib shakllana boshlagan.

Fanlar va notiqlik san'atining rivojlanishi mantiqning vujudga kelishida asosiy sabablar bo'lgan. Fan xulosalar va dalillarni nazarda tutadigan nazariy fikrlashga asoslanadi. Shu tariqa bilimning shakli sifatidagi tafakkurning o'zi tadqiq qilish zaruriyati kelib chiqadi. Notiqlik san'ati, avvalo, ko'p sonli auditoriya sud majlislarida aql-idroknı larzaga soladigan, tinglovchilarni u yoki boshqa fikr tomonga og'ishga majbur qiladigan ishontiruvchi kuch sifatida namoyon bo'lgan. Mantiq nutqlarning ushbu majburlovchi kuchi sirini oshib berishga urinish tarzida paydo bo'ladi.

Qadimgi Gretsiyada mantiqni Parmenid, Zenon, Demokrit, Suqrot, Platon ishlab chiqishgan. Antik davrning eng buyuk mutafakkiri, Platonning shogirdi – Aristotel (eramizdan ilgarigi 384-322 yillarda) esa mantiq faniining asoschisi hisoblanadi. U mantiq bo'yicha bir qator asarlarni yozgan bo'lib, bu asarlari keyinchalik "Organon" (bilim quroli) degan umumiy nom ostida to'plam xoliga keltirilgan. Aristotel o'z asarini analitika deb atagan, "mantiq" atamasi esa ilmiy muomalaga keyinroq, eramizdan ilgarigi IV asrda kirib kelgan.

Qadimgi Gretsiyada mantiqni Aristoteldan keyin stoiklar ishlab chiqishgan. Qadimgi Rimlik siyosiy arboblari TSitseron va Kvintilian, arab tilida ijod qilgan olimlar – Al-Forobi, Ibn Rushd, o'rta asrlardagi Yevropalik sxolastlar – U.Okkam, P.Abelyar ham mantiq rivojiga katta ulush qo'shishgan.

Yangi zamonda davrida fan rivoji yangi turki oldiki, bu, o'z navbatida, mantiq sohasidagi tadqiqotlarni kengaytirishga imkon berdi. Taniqli olim va faylasuf F.Bekon (1561-1626) "Yangi Organon" nomi ostidagi o'z tadqiqotini e'lon qildiki, bu bilan u ushbu asar Aristotelning "Organon"ini to'ldirib, insonnинг bilim shakllari haqidagi tasavvurini kengaytiradi, deb gipoteza qiladi. Bu asarda induktiv uslublar asoslari jamlangan bo'lib, ular keyinchalik D.S. Mill (1808-1873) tomonidan takomillashtirildi va hodisalar o'tasidagi sababiy aloqalarni belgilash uslublari degan nom oldi (Bekon-Mill uslublari).

1662-yilda keyinchalik mashhur bo'lib ketgan "Por-Royal mantig'i" degan darslik nashrdan chiqdi. Uning mualliflari P. Nikol va A. Arno R. Dekartning (1596-1650) metodologik tamoyillariga asoslangan mantiqiy ta'lifotni yaratishdi.

Aristotel ta'lifotni asosida yaratilgan mantiq XX asr boshigacha amal qilib keldi. XX asrda nemis olimi va faylasufi Leybnits (1646-1716) g'oyasiga asoslangan, fikrlarni

hisoblashlarga olib kelish mumkinligi haqidagi ramziy (matematik) mantiq paydo bo'ldi. Bunday mantiq XIX asr o'talarida shakllana boshladi. Uning rivoji J. Bul, A.M.De-Morgan, Ch. Pirs, G. Frege, rus mutafakkirlari P.S. Poretskiy va E.L. Bunitskiy va boshqalar nomlari bilan bog'liqidir. B.Rassel va A.Uaytxedning 1910-1913 yillarda bosilib chiqqan 3 jilddan iborat Principia Mathematica asari ramziy mantiq bo'yicha ilk kapital asar bo'ldi. U mantiqda keskin burilish yasadi.

Dialektik mantiq g'oyalari antik va qadimgi Sharq falsafasiga borib taqaladi, lekin uni faqat nermis klassik falsafasi vakillari: Kant (1724-1804), Fixte (1762-1814), Shelling (1775-1854) va ayniqsa dialektikaning asosiy qonun kategoriya, g'oyalarini obyektiv idealizm nuqtai nazaridan izchil uzil-kesil ifodalab bergen Gegelgina (1770-1831) takomiliga yetkazdi.

3. Ayniyat qonuni va uning tafakkurga talablari

Tafakkur qonuni yoki mantiqiy qonun – bu xulosa jarayonida fikrlarning zaruriy, muhim bog'lanishidir.

Tafakkur qonunlari insonning irodasi va xohish-istagidan qat'i nazar shakllanadi. Voqeqlikagi predmetlarning nisbiy barqarorligi, sifat jihatdan aniqligi, o'zaro bir-biri bilan bog'liqligi ularning obyektiv negizini tashkil etadi.

Mantiq ko'plab mantiqiy qonunlar orasidan to'rtta asosiy, mantiqiy tafakkurning tub xususiyatlarini ifodalaydigan qonunlar – uning aniqligi, ziddiyatsizligi, izchilligi va asosiligini ajratib ko'rsatadi. Bular – ayniyat, (ziddiyat, uchinchisi istisno va yetarli asos qonunlaridir. Ular qanday mantiqiy shaklda kechishidan va qanday mantiqiy operatsiyani bajarishidan qat'i nazar har qanday muhokamada amal qiladi.

Ayniyat qonuni. Xulosa jarayonida har qanday fikr muayyan, barqaror mazmunga ega bo'lishi kerak. Tafakkurning ushbu tub xususiyatini ayniyat qonuni ifodalaydi: xulosa jarayonida har qanday fikr o'zi o'ziga aynan o'xshaydigan bo'lishi kerak (a degani a dir yoki a = a dir, bunda a deganda har qanday fikr tushuniladi).

Ayniyat qonuni $r \rightarrow r$ (agar r bo'lsa, unda r dir) formulasi orqali ifodalanishi mumkin, bunda: r – har qanday fikr, \rightarrow implikatsiya belgisi.

Ayniyat qonunidan shunday ma'nno kelib chiqadi: turli fikrlarni aynan bir xil deb bilmaslik kerak, aynan bir xil fikrlarni aynan o'xshash bo'limgan fikrlar deb qabul qilmaslik lozim. Xulosa jarayonida ushbu talabning buzilishi ko'pincha tilda aynan bir xil fikrnинг turlicha ifodani berishi bilan bog'liqidir.

Boshqa tomondan olganda, ko'p ma'noli so'zlarning ishlatalishi turlicha fikrlarning xatoga yo'l qo'yib aynan bir xillashtirishga olib kelishi mumkin. Masalan, jinoyat huquqida "jarima" so'zi orqali Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jazo chorasi ifodalanadi, fuqarolik huquqida esa bu so'z ma'muriy ta'sir ko'rsatish chorasini ifodalaydi. Shubhasiz, bunday so'zni birdek ma'noda ishlatalish mumkin emas.

Turli fikrlarning aynan bir xillashtirilishi ko'pincha kasb-hunar, ta'limda va shu kabilardagi tafovutlar bilan bog'liqidir. Mutaxassislar ayrim tushunchalarni aniq ma'noda qo'llamasalar, bu ko'pincha chalkashlikka, noaniqlikka olib kelib, ish mohiyatini aniqlashni qiyinlashtiradi.

Turli tushunchalarning aynan bir xillashtirilishi mantiqiy xatodan – anglab yetilmagan va ataylab qilingan tushunchaning almashtirilishidan iborat bo'ladi.

Ayniyat qonuni talablariga rioya qilish tushunchalarni ularning aniq ma'noda ishlatalishni taqozo etadigan ishida muhim ahamiyatga egadir.

4. Nozidlik qonuni va uning inson faoliyatidagi ahamiyati

Mantiqiy tafakkur nozidlik (noziddiyat) bilan tafsiflanadi. Ziddiyatlar fikrni buzib, bilish jarayonini qiyinlashtiradi. Tafakkurning nozidligi talabi formal-mantiqiy nozidlik qonunini ifodalaydi: ikkita bir-biriga mos kelmaydigan hukmlar ayni bir vaqtida chin bo'lishi mumkin emas; juda bo'limganida, ularning bittasi albatta xato bo'ladi.

Ushbu qonun quyidagi tarzda shakl topadi: a ning a emasligi noto'g'ri (bittasi ikkinchisini rad qiladigan ikkita fikrning haqiqiy bo'lishi mumkin emas). U shunday formula: $\neg(r \wedge \neg r)$ bilan ifodalanadi (r va r emas ning ayni bir vaqtida chinligi xato). r deganda har qanday fikr, $\neg r$ deganda esa – r fikrning rad qilinishi tushuniladi, butun formula oldidagi \neg belgisi – \wedge konyunuksiya belgisi bilan birlashgan ikkita fikrning raddiyasidir.

Nozidlik qonuni barcha bir-biriga mos kelmaydigan hukmlarga nisbatan amal qiladi.

Shunisi tushunarlikki, agar hukmlardan birida predmetga bir belgining mansubligi tasdiqlanib, boshqasida – ushbu predmetga mazkur belgining mansubligi rad qilinadigan bo'lsa (1) va agar gap turli predmetlar to'g'risida boradigan bo'lsa (2), unda hukmlar o'rtaosida ziddiyat bo'lmaydi.

An'anaga muvofiq ushbu qonunni ziddiyat qonuni deb atash qabul qilingan. Biroq – nozidlik qonuni – degan nomi uning haqiqiy ma'nosini aniqliroq ifodalaydi.

Agar biz turli vaqtarda hamda (yoki) har xil vaziyatlarda ko'rib chiqadigan bir predmet xususida nimanidir tasdiqlab, yana shuning o'zini rad qiladigan bo'lsak, unda ziddiyat bo'lmaydi.

Bizning fikrimizni band qilgan ayni bir predmet har xil munosabatlarda ko'rib chiqilishi mumkin. Masalan, talaba K. haqida uning bilimlari institutga o'qishga kiradigan shaxslarga qo'yiladigan talablarga javob beradigan bo'lsa, uni nemis tilini yaxshi bilar ekan, deb aytish mumkin. Biroq tarjimon bo'lib ishlash uchun bu bilimlar yetarli bo'lmaydi. Bunday holda biz: "K. nemis tilini yaxshi bilmas ekan"; deb aytishga haqlimiz. Ikki hukmda K.ning nemis tilini bilishi har xil talablar nuqtai nazaridan ko'rib chiqilayaptiki, binobarin, bu hukmlar ham bir-biriga zid emas.

Nozidlik qonuni mantiqiy tafakkurning asosiy xususiyatlaridan biri – tafakkurning zid kelmasligi, izchilligi xususiyatini ifodalaydi. Uni ongli ravishda qo'llash o'zining va o'zgalarning fikrlaridagi ziddiyatlarni aniqlash va bartaraf etishga yordam berib, fikrlar va harakatlardagi har qanday noaniqlik, noizchillikka nisbatan tanqidiy munosabati yuzaga keltiradi.

5. Uchinchisi istisno qonuni va uning bilishidagi roli

Nozidlik qonuni barcha bir-biriga mos kelmaydigan hukmlarga nisbatan amal qiladi. Hukmlarning bittasini albatta xatodir, deb belgilaydi. Ikkinci hukm haqidagi masala ochiqligicha qolaveradi: u chin ham, xato ham bo'lishi mumkin.

Uchinchisi istisno qonuni faqat bir-biriga zid keladigan (kontradiktor) hukmlarga nisbatan amal qiladi. U quyidagi tarzda shakl topadi: ikkita bir-biriga zid keladigan hukmlar ayni bir vaqtida xato bo'lishi mumkin emas, ularning biri chin bo'lishi zarur: a

yoki b, yoxud b emas bo'ladi. Muayyan faktning tasdig'i yoki uning raddiyasi chin bo'ladi.

Ikkita hukmdan birida har bir predmet haqida muayyan ko'plik tasdiqlanadigan (yoki rad qilinadigan), boshqasida esa – ushbu ko'plikning muayyan qismi haqida raddiya beriladigan (tasdiqlanadigan) hukmlar bir-biriga zid keladigan (kontradiktör) hukmlar deyiladi. Bunday hukmlar ayni bir vaqtning o'zida chin ham, xato ham bo'lishi mumkin emas: agar ularning biri chin bo'lsa, unda boshqasi xato bo'ladi va aksincha. Masalan, agar: "O'zbekistonning hamma fuqarolariga xususiy mulkka ega bo'lishi huquqi kafolatlanadi" degan hukm chin bo'lsa, unda: "O'zbekistonning ayrim fuqarolariga xususiy mulkka ega bo'lishi huquqi kafolatlanmaydi" degan hukm xatodir. Shuningdek bir predmet haqidagi ikkita hukmning bittasida nimanidir tasdiqlanib, boshqasida xuddi shu narsaning o'zi rad etiladigan hukmlar ham bir-biriga zid keladigan bo'ladi. Masalan: "P.Falsafadan imtixon topshirdi" va "P. Falsafadan imtihon topshirmadi". Ushbu hukmlarning biri albatta chin bo'lib, boshqasi albatta xato bo'ladi.

Ushbu qonunni shu tarzda yozib qo'yish mumkin: r V γ r.

Nozidlik qonuni singari uchinchisi istisno qonuni ham tafakkurning izchilligi, zid kelmasligini ifodalab, fikrlarda ziddiyatlarga yo'l qo'ymaydi. Shu bilan birga u faqat bir-biriga zid keladigan hukmlarga nisbatan amal qilib, ikkita bir-biriga zid keladigan hukmning nafaqat ayni bir vaqtida chin bo'lmasligini (nozidlik qonuni ko'rsatganidek), u bilan birga ayni bir vaqtida xato bo'lmasligini ham belgilaydi: agar ularning bittasi xato bo'fadigan bo'lsa, unda boshqasi albatta chin bo'lishi kerak, uchinchchi variant bo'lishi mumkin emas.

Albatta, uchinchisi mustasno qonuni ushbu hukmlarning aynan qaysi biri chin bo'lishini ko'rsatishi mumkin emas. Bu masala boshqa vositalar orqali hal etiladi. Qonunning ahamiyati shundan iboratki, u chin fikr qidirib topishdag'i yo'nalishni ko'rsatadi: masalaning faqat ikkita yechimi bo'lishi mumkin va bunda ularning bittasi (va faqat bittasi) chin bo'ladi.

Uchinchisi istisno qonuni aniq, muayyan javoblarni talab qilib, ayni bir savolga aynan bir xil ma'noda: "ha" va "yo'q" deb javob berish mumkin emasligini, qandaydir bir narsani tasdiqlash bilan ayni shu narsaning o'zini rad qilish o'rtaida qandaydir o'rtaча holat bo'lmasligini ko'rsatadi.

Ushbu qonun masalaning qat'ian yechimi talab qilinadigan barcha faoliyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Xodim ishni "yoki – yoki" shakli bo'yicha hal qilishi lozim. Mazkur fakt yo aniqlangan, yo aniqlanmagan. Reja bajarildi, reja bajarilmadi. Yoki bajarildi, yoki bajarilmadi. Uchinchchi yo'li yo'q.

6. Yetarli asos qonuni va uning bilishdag'i roli

Bizning qandaydir fakt, hodisa, voqeа haqidagi fikrkarimiz chin yoki xato bo'lishi mumkin. Biz chin fikrni bildirishda uning chinligini asoslab berishimiz, ya'ni uning voqelikka mosligini isbotlashimiz kerak. Masalan, iqtisodiy yakunlar haqida hisob berayotgan xodim dalillarni keltirishi, o'z tasdig'ining chinligini asoslashi lozim. Aks holda hisobot asossiz bo'ladi.

Yetarli asos qonuni fikrning isbotlangani, asoslanganligiga doir talabni ifodalaydi: har qanday fikr agar yetarli asosga ega bo'lsa, unda u chin deb e'tirof etiladi. Agar b mavjud bo'lsa, unda uning asosi a ham mavjuddir.

Insonning shaxsiy tajribasi fikrlarning yetarli asosi bo'lishi mumkin. Ayrim hukmlarning chinligi ularni voqelikdagi faktlar bilan bevosita taqqoslash yo'li bilan tasdiqlanadi. Masalan, jinoyatning guvohi bo'lgan kishi uchun u o'zi guvoh bo'lgan jinoyat faktining o'zi "N. jinoyat sodir etdi", degan hukmnning chinligini asoslash bo'ladi. Lekin shaxsiy tajriba cheklangandir. Shuning uchun inson o'z faoliyatida boshqa kishilarning tajribasiga, masalan, u yoki boshqa hodisa guvohlarining ko'rsatmalariga tayanishiga ham to'g'ri keladi.

Ilmiy bilimlarning rivojlanishi tufayli inson butun insoniyatning qonunlar va fan aksiomalarida, kishilik faoliyatining har qanday sohasida amal qiladigan tamoyillar va qoidalarda mustahkamlab qo'yilgan tajribasidan o'z fikrlarini asoslash sifatida tobora kengroq foydalana moqda.

Qonunlar, aksiomalarining chinligi insoniyat amaliyoti tomonidan tasdiqlangan va shuning uchun ular yana yangidan isbot qilinishga muhtoj emas. Qandaydir xususiy holatni tasdiqlash uchun uni shaxsiy tajriba yordamida asoslab o'tirishga zarurat bo'lmaydi. Agar, masalan, bizga Arximed qonuni (suyuqlikka botirilgan har bir jism o'z vaznida o'zi siqib chiqargan suyuqlik vazniga teng bo'lgan vaznnini yo'qotadi) ma'lum bo'lsa, unda qandaydir buyumning qancha vazn yo'qotishini aniqlash uchun uni suyuqlikka solib o'tirishga hech qanday hojat qolmaydi. Arximed qonuni har qanday xususiy holatni isbotlash uchun yetarli asosdir.

Biz o'z qonunlari va tamoyillarida insomiyatning ijtimoiy-tarixiy amaliyotini mustahkamlab qo'yadigan fan tufayli o'z fikrlarimizni asoslash uchun har safar ham ularni tekshirishga majbur bo'lmaymiz, balki ularni belgilab qo'yilgan qoidalarga tayanish yo'li bilan mantiqiy jihatdan asoslaymiz.

Shunday qilib, har qanday boshqa, ilgari tekshirilgan va belgilab qo'yilgan hamda ushbu fikrning haqiqiyligini asoslaydigan fikr qandaydir fikr uchun yetarli asos bo'ladi.

Agar a hukmnning haqiqatligi b hukmnning haqiqiyligi uchun asos bo'ladigan bo'lsa, unda a b uchun asos bo'ladi, b esa – ushbu asosning oqibati bo'ladi.

Asoslanganlik – mantiqiy tafakkurning g'oyat muhim xususiyatidir. Biz nimanidir tasdiqlaydigan, boshqalarни nimagadir ishontiradigan barcha hollarda o'z hukmlarimizni isbotlashimiz, o'z fikrlarimizning haqiqatligini tasdiqlaydigan yetarli asoslarni keltirishimiz kerak. Ilmiy tafakkurning noilmiy, isbotlanmasligi, har xil qoidalalar va aqidalarni ishonarli deb qabul qilaverishi bilan tavsiflanadigan tafakkurdan tub farqi ana shundan iboratdir. Bu e'tiqodga tayanadigan diniy tafakkurga ayniqsa xosdir.

Yetarli asoslilik qonuni turli xil xurofot va bid'atlarga aslo mos kelmaydi. Mazkur qonun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. U diqqat-e'tibomi ilgari surilgan qoidalarning haqiqatligini asoslaydigan hukmlarga qaratish bilan chinni xatodan ajratib olish va to'g'ri xulosa chiqarishga yordam beradi.

Yetarli asos qonuning amaliyotdagi ahamiyati, jumladan, quyidagilardan iborat. Sud yoki tergovning har qanday xulosasi asoslangan bo'lishi kerak. Masalan, ayblanuvchining aybi haqidagi tasdiqni o'z ichiga oladigan har qanday ishga doir materiallarda ayblov uchun yetarli asos bo'ladigan ma'lumotlar bo'lishi kerak. Aks holda ayblov to'g'ri deb e'tirof etilishi mumkin emas. Hech istisnosiz barcha hollarda sudning dalillangan hukmi yoki qarorining chiqarilishi protsessual huquqning g'oyat muhim tamoyili bo'lib hisoblanadi.

7. Tushuncha tafakkur shakli sifatida

Tushuncha – bu tafakkurning predmetlarni ularning eng muhim belgilarida aks ettiradigan shaklidir.

Predmetlarni bir-biriga o'xshash qilib turadigan yoki ularni bir-biridan farqlaydigan narsa predmetning belgisi deylaldi. Predmetni u yoki boshqa tarzda tavsiflaydigan, uni boshqacha predmet emas, balki aynan shu predmet sifatida ko'rib chiqishga imkon beradigan jamiki narsalar inson uchun belgi (ya'ni, predmetning ko'rsatkichi, belgisi, e'tirof etish vositasi) bo'lib xizmat qiladi.

Predmetning belgilari g'oyat turli tuman ko'rinishga ega bo'lishi mumkin. Ular umumiy va yagona, muhim va nomuhim, zaruriy va tasodifiy bo'lishi ham mumkin. Tushunchalarga umumiy, muhim va zaruriy belgilari asos bo'fadi. Tushuncha predmetli tusga ega bo'ladi, ya'ni u odamlarning moddiy yoki ma'naviy faoliyatidagi aniq buyumlar, jarayonlar, hodisalar, ularning xususiyatlari, muxim belgilari, aloqalari va munosabatlarini aks ettiradi. Ayni bir paytda tushunchalar nisbiy mustaqillikka ham ega bo'ladi. -Predmet yo'q bo'lib ketishi, uning tushunchasi esa - saqlanib, avloddan avlodga o'taverishi mumkin. Inson faoliyatining o'zgarishi bilan yangicha tushunchalar paydo bo'laveradi.

Tushunchalar so'zlarda, so'z birikmalarida mustahkamlanadi va ifodalanadi. Tushuncha bilan so'zning birligi ularning to'liq mos kelishini anglatmaydi. Tushunchalar bir ma'noli, so'zlar esa ko'pincha ko'plab ma'nolarga ega bo'ladi. Har qanday tilda omonimlar va sinonimlar amal qiladi. Omonimlar – bu jaranglashi va shakli bo'yicha bir-biriga mos keladigan, lekin har xil ma'nolarni ifodalaydigan so'zlardir (masalan, "ot" so'zi hayvonning bir turini, ismni, harakatni "otish" va boshqalarni anglatadi). Sinonimlar – bular ma'nosiga ko'ra bir-biriga yaqin yoki aynan o'xshash, lekin jaranglashi bo'yicha turlicha so'zlardir (masalan, vatan va diyor, xastalik va kasallik, yuridik fan – huquqshunoslik va boshqalar).

Turli milliy tillarda aynan bir tushuncha har xil so'zlar bilan ifodalanadi.

Tushunchalar insоннинг оламни ма'naviy o'zlashtirishining eng muhim usullaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Ular ikkita asosiy funksiyani bajaradi.

Birinchisi – bilishga doir. Tushuncha predmetlarning eng umumiy xususiyatlarini aniqlash natijasida hosil qilinadi, ya'ni tushuncha o'zining shakllanishi jarayonidayoq predmetlarning umumiy xususiyatlarini idrok etish, demak ularning mohiyatini biliб olishga yordam beradi. Tushunchalar insонning predmetni tushuncha holiga yetkazishga doir mantiqiy operatsiya yordamida dunyonи shundan keyin ham bilish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Masalan, modda tushunchasi atrof olamdagи predmetlarning umumiy xususiyatlarini ajratib ko'rsatish natijasida hosil qilingan. Shundan keyin u yangi hodisalarga ham tegishli bo'lib, ulardagi insonga ma'lum bo'lgan xususiyatlarni ajratib ko'rsatishga imkon bergen.

Ikkinchisi – kommunikativ funksiya, u tushunchaning muloqot vositasi bo'lib hisoblanishidan iboratdir. Odamlar o'z bilimlarini tushunchalar shaklida mustahkamlab, so'ngra muloqot jarayonida bir-biri bilan u almashinishadi, shuningdek ularni keyingi avlodlarga yetkazishadi. Bu bilimlarning ijtimoiy meros qilib qoldirilishi amalgaga oshirilib, avlodlarning ma'naviy davomiyligi ta'minlanadi.

8. Tushunchalarin hosil qillishining mantiqiy usullari

Tushunchaning hosil qilinishi – bu voqeqlikdagi predmetlarning go'yoki oddiy bir ko'zgu orgali aks ettilishli emas, balki g'oyat murakkab dialektik jarayondir. U tadqiqotchining faolligini nazarda tutadi va ko'plab mantiqiy usullarni o'z ichiga oladi, tahsil va sintez, taqqoslash, mavhumshtirish va umumlashtirish ularning eng muhimlaridir.

Belgilarning ajratib ko'rsatilishi predmetlarning uning tarkibiy qismlari, jihatlari, unsurlariga fikran bo'linishi bilan bog'liqidir. Predmetning uning tarkibiy qismlariga fikran bo'linishi tahsil deyiladi.

Predmetni tahsil yordamida ajratilgan unsurlari, jihatlari, belgilari yagona bir yaxlitlikka birlashtirilishi kerak. Bunga tahsiliga teskari bo'lgan – sintez usuli yordamida erishiladi.

Sintez – bu mantiqiy usul bo'lib, predmetning tahsil vositasida qismlarga ajratilgan a'zolarini fikran birlashtirish uning yordamida amalga oshiriladi.

Taqqoslash – bu bir predmetning boshqa predmet bilan fikran qiyoslanishi, u yoki boshqa jihatdan o'xshashlik yoki farqlanish belgilarinining aniqlanishidir.

Mavhumshtirish – bu predmetlardagi ayrim belgilarni ajratib ko'rsatish va boshqalarini chetlatish yo'li bilan ularning fikran soddalashtirilishi bo'lib, ushbu jarayonning natijasidir.

Umumlashtirish – bu bir xildagi predmetlarning fikran birlashtirilishi, ularning u yoki boshqa umumiyligi belgilari negizida guruhalashtirilishidir. Umumlashtirish tufayli ayrim predmetlarda aniqlangan muhim belgilari ushbu tushuncha tegishli bo'ladigan barcha predmetlarning belgilari sifatida ko'rib chiqiladi.

Shunday qilib, predmetlar o'tasidagi o'xshashlikni (yoki tafovutni) belgilash (taqqoslash), o'xshash predmetlarni unsurlarga ajratish (tahsil), muhim belgilarini ajratib ko'rsatish bilan va nomuhim belgilardan chetlashib (mavhumshtirish), muhim belgilarini birlashtirib (sintez) va ularni jamki bir xildagi predmetlarga tegishli qilib (umumlashtirish), biz tafakkurning asosiy shakllaridan biri – tushunchani hosil qilamiz.

9. Tushunchaning mazmunni va hajmi

Tushuncha – bu tafakkurning eng sodda shaklidir, biroq u murakkab tuzilmaga ega, ya'ni muayyan tarzda o'zaro bir-biri bilan bog'langan unsurlardan iborat bo'ladi. Tushunchada mazmun va hajmi farqlanib turadi.

Predmetning ushbu tushunchada fikrlanadigan muhim belgilari majmui tushunchaning mazmunini deyiladi. Masalan, "odam" tushunchasining mazmunini quyidagilar tashkil etadi: ongga egaligi, mehnat qilish (ishlab chiqarish), ijtimoiy munosabatlар sharoitida shakllanishi va boshqalar. Tushuncha mazmunini chizmali ravishda shunday ifodalash mumkin: A(VSD)..., bunda: A – umuman har qanday tushuncha, BCD... esa - predmetlarning unda fikrlanadigan belgilari.

Tushunchada fikrlanadigan predmetlarning ko'philigi tushunchaning hajmi deyiladi. "Odam" tushunchasining hajmi jami odamlarni o'z ichiga qamrab oladi, chunki ular umumiyligi muhim belgilarga egadir. Tushuncha hajmi grafik ravishda shu tarzda tasvirlanadi:

bunda: A – har qanday tushunchadir.

Tushuncha hajmiga kiradigan prednetlar sinf yoki ko'plik deyiladi. Sinf kichik sinflar yoki kichik ko'pliklardan iborat bo'ladi. Masalan, "huquq" tushunchasi o'z ichiga qamrab oladigan hodisalar sinfi huquqning tarixiy shakllari sifatidagi – quldarlik, feodal, burjua va shu kabilarni, uning turli tarmoqlari – mehnat, fuqarolik, jinoyat va shu kabi kichik sinflarni (kichik ko'pliklarni o'z ichiga oladi).

Predmetlar sinfiga mansub bo'lgan alohida predmet unsur deyiladi. Masalan, jinoyat, fuqarolik, mehnat huquqi "huquq" sinfining elementlari hisoblanadi.

Universal sinf, yagona sinf va nollik yoki bo'sh sinf farqlanadi. Tadqiq qilinayotgan sohaning barcha unsurlaridan tashkil topgan sinf universal sinf deyiladi, masalan: Quyosh tizimi sayyoralarini sinfi, dunyo shaharlari, akademiyalar yoki oliy o'quv yurtlari sinfi.

Yagona sinf – bu bir predmetdan iborat bo'lgan sinfdir: Yer sayyorasi, Toshkent shahri va hokazo.

Bo'sh (nollik) sinf bironta ham predmetni o'z ichiga olmaydi (kentavr, abadiy dvigatel, doiraviy kvadrat).

10. Tushuncha mazmuni bilan hajmi o'rtasidagi teskar munosabat qonuni

Tushunchaning mazmuni va hajmi o'zaro bir-biri bilan uzviy bog'langan. Tushunchaning muayyan mazmuniga o'zining muayyan hajmi mos keladi va aksincha. Ularning o'zaro munosabatida shunday qonuniyat kuzatiladi: tushunchaning hajmi kamayishi bilan uning mazmuni boyiydi, chunki undagi belgililar soni ko'payadi va, aksincha, hajm oshishi bilan belgililar soni kamayadi. Bunday qonuniyat tushunchaning hajmi bilan mazmuni o'rtasidagi teskar munosabat qonuni, degan nom olgan. Mazkur qonuniyatning ta'siri ikkitasidan bittasi kichik sinf yoki boshqasining unsuri bo'ladi tushunchalarga tegishli bo'ladi va tushunchalarni umumlashtirish va chegaralash kabi mantiqiy operatsiyalar jarayonida namoyon bo'ladi.

Biz "davlat" tushunchasining mazmunini unga yangi belgi – "zamonaviy" degan belgini qo'shish yo'li bilan ko'paytirib, kamroq hajmiga ega bo'lgan "zamonaviy davlat" tushunchasiga o'tamiz. "Davlat va huquq nazariyasiga doir darslik" tushunchasining mazmunini ko'paytirib, kamroq mazmunga ega bo'lgan "darslik" tushunchasiga o'tamiz, chunki u davlat va huquq darsligini tavsiflaydigan belgilarni o'z ichiga olmaydi.

"Kitob" va "badiiy kitob" tushunchalarida ham hajm bilan mazmun o'rtasida shunga o'xshagan munosabat mavjuddir (birinchi tushuncha hajmiga ko'ra kattarog'u, lekin mazmuni bo'yicha kichikdir), bosh iqtisodchi va iqtisodchi: bunda birinchi tushuncha hajmiga ko'ra kichikrog'u, lekin mazmuniga ko'ra kengroqdir.

11. Tushunchalarining turlari

Tushunchalarni hajmi va mazmuniga ko'ra tasniflash mumkin. Hajmiga ko'ra avvalo bo'sh va bo'sh bo'lagan tushunchalar ajratib ko'rsatiladi. Hajmi nolga teng bo'lgan tushunchalar bo'sh tushunchalar deyiladi. Ularga mifologik tusga ega

tushunchalar (kentavrлari, qorodam), vaqtı kelib ilmiy asossizligi aniqlangan tushunchalar (teplorod, flogiston, abadiy dvigatel), shuningdek real mavjud bo'lmagan, lekin ehtimol utilgan narsalar haqidagi tushunchalar (yerdan tashqaridagi sivilizatsiya, boshqa sayyorraliklar) kiradi. "O'zbekiston prezidenti" degan tushuncha ham yaqin vaqtgacha shunday tushunchalarga mansub edi.

Bo'sh bo'lmagan tushunchalar eng kamida bitta real predmetni o'z ichiga oladigan hajnga ega bo'ladi. Bo'sh bo'lmagan tushunchalar yagona va umumiy tushunchalarga bo'linadi.

Agar tushunchaning hajmi faqat bitta predmetdan iborat bo'lsa, unda u yakka tushuncha deyiladi, masalan: Quyosh, Yer, O'zbekiston va hokazo. Predmetlar majmuiga tegishli bo'lgan va bunday majmua yagona yaxlitlik sifatida fikrlanadigan tushunchalar ham yakka tushunchalar deyiladi: Quyosh tizimi, insoniyat, BMT va boshqalar.

Umumiy tushunchalar o'z hajmida predmetlar guruhini qamrab oladi, bunda ular ushbu guruhnинг har bir unsuriga tegishli bo'ladi (yulduz, sayyora, davlat). Umumiy tushunchalar qayd qilinadigan va qayd qilinmaydigan bo'ladi.

O'z ichiga qamrab olgan fikrlanadigan unsurlarning miqdori aniq bo'lgan tushunchalar qayd qilinadigan tushunchalar, deyiladi, masalan: "Quyosh tizimi sayyoralar", "O'zbekiston Respublikasining viloyatlari", "TDIning talabalar" tushunchalari. Qayd qilinadigan tushunchalar pirovard hajnga ega bo'ladi.

Unsurlarning noaniq soniga tegishli umumiy tushuncha qayd qilinmaydigan tushuncha deyiladi. Masalan, "inson", "faylasuf, iqtisodchi", "farmon" tushunchalarida ularda fikrlanadigan unsurlarning aniq hisobga olinmaydi, ularda jami odamlar, faylasuflar, iqtisodchilar, o'tmishdag'i, hozirgi va kelgusidagi farmonlar fikrlanadi. Qayd qilinmaydigan tushunchalar cheksiz hajnga ega bo'lishi mumkin..

Mazmuniga ko'ra tushunchalar to'rtta guruhgа bo'linadi.

- Ijobiy va salbiy

Mazmuni predmetga xos bo'lgan xususiyatlardan iborat bo'lgan tushunchalar ijobiy tushunchalar deyiladi. Masalan, savodli, tartib, dindor.

Mazmuni predmetda muayyan xususiyatlarning yo'qligini ko'rsatadigan tushunchalar salbiy tushunchalar deyiladi. Masalan, savodsiz, tartibsizlik, dinsiz. O'zbek tilida bunday tushunchalar ko'pincha "no" old qo'shimcha, yoki "siz" old qo'shimchalari bilan ifodalananadi. Chet tillardan kirib kelgan so'zlarda: ular salbiy old qo'shimchasi – a-orqali bo'ladi: anonim, asimmetriya..

- To'planma va umumiy

Unsurlarning yagona yaxlitlikni tashkil etadigan qandaydir majmui belgilariiga ko'ra fikrlanadigan tushunchalar jamlovchi tushunchalar deyiladi, masalan, jamoa, polk, burj. Jamlovchi tushunchaning mazmunini tushunchaning hajmiga kiradigan har bir alohida unsuriga tegishli qilib bo'lmaydi, u unsurlarning jami majmuiga tegishli bo'ladi. Masalan, jamoaning muhim belgilarini (umumiy ish, umumiy manfaatlar bilan uyushgan shaxslar guruhi) jamoadagi har bir alohida a'zoga ham tegishli qilib bo'lmaydi. Jamlovchi tushunchalar umumiy (jamoa, polk, burj) va yagona (institutimiz jamoasi, Katta Ayiq burji) bo'lishi mumkin.

Tushunchaning har bir unsuriga tegishli bo'lgan belgilari fikrlanadigan tushunchalar umumiy bo'lgan tushunchalar deyiladi (yulduz, davlat, tuman).

Muhokama jarayonida umumi tushunchalar ayiruvchi va jamlovchi ma`noda ishlatalishi mumkin. Masalan, “Inson fazoni o`zlashtirmoqda” degan gapdagi “inson” tushunchasi jamlovchi ahamiyatga ega, chunki u alohida tarzda har bir kishiga daxldor bo`lmaydi, “Kishi fuqarolik huquqiga egadir” degan gapda esa “kishi” tushunchasi ayiruvchi ma`noga ega, chunki u har bir kishiga daxldordir.

- Konkret va mavhum tushunchalar

Predmet yoki predmetlar majmui qandaydir mustaqil amal qiladigan narsa sifatida fikrlanadigan tushuncha konkret tushuncha deyiladi (kitob, guvoh, davlat). Konkret tushunchalar umumi va yagona bo`lishi mumkin.

Predmetning belgisi yoki predmetlar o`rtasidagi munosabat fikrlanadigan tushuncha mavhum tushuncha deyiladi (dadillik, ma`siliyat, poklik, do`stlik, vositachilik). Konkret tushunchalar umumi (vositachilik, poklik) yoki yagona (Eynshteynning genialligi) bo`lishi mumkin.

- Nisbatsiz va nisbatdosh bog`lanishli tushunchalar

Alohiba tarzda mayjud bo`lgan predmetlarni aks ettiradigan va ularning boshqa predmetlar bilan munosabatlardidan tashqarida fikrlanadigan tushunchalar nisbatsiz tushunchalar deyiladi (kitob, davlat, qonun).

Bir tushunchaning boshqa tushunchaga munosabatini ko`rsatadigan belgi-larga ega bo`lgan tushunchalar nisbatdosh tushunchalar deyiladi (ota-onalar – bolalar, boshliq – bo`ysunuvchi xodim, da`vogar - javobgar).

Tushunchalar turlarini bilish – tafakkur aniqligini ta`minlaydigan zaruriy shartlardan biridir. Tushunchani ishlata bilish uchun nafaqat uning mazmuni va hajmini aniq bilish, shu bilan birga unga mantiqiy tavsifnomasi bera bilish ham zarur. Masalan, faylasuf – umumi (qayd qilinmaydigan), konkret, ijobjiy, nisbatsiz tushunchadir.

12. Tushunchalar o`rtasidagi munosabatlar

Tushunchalar o`zaro bir-biri bilan muayyan munosabatlarda bo`linadi. Mazmuniga ko`ra tushunchalar o`rtasida faqat ikki turdag'i munosabat: taqqoslanuvchanlik va taqqoslanmaslik bo`lishi mumkin. Mazmuniga ko`ra bir-biridan uzoq, umumi belgilarga ega bo`limgan tushunchalar taqqoslanmaydigan tushunchalar deyiladi (mas ulyiyatsizlik va ip, romans va g`isht). Ular o`rtasida mantiqiy munosabatlar bo`lishi mumkin emas.

Taqqoslanadigan tushunchalar – bu o`z mazmunida umumi, muhim belgilarga (ular shunga ko`ra taqqoslanadi) ega bo`lgan tushunchalardir. Masalan, huquq va axloq, yurist va advokat. Tushunchalar o`rtasidagi munosabatlar chizmalar – Eyler doiralari yordamida tasvirlanadi.


Taqqoslanadigan tushunchalar o`rtasida hajmiga ko`ra ikki turdag'i munosabatlar bo`lishi mumkin: bir-biriga moslik va bir-biriga mos kelmaslik, o`zaro nisbat beriladigan tushunchalarining o`zi esa bir-biriga mos keladigan yoki bir-biriga mos kelmaydigan tushunchalar, deyiladi.

Bir-biriga mos keladigan tushunchalar – bular hajmlari bir-biriga to`liq yoki qisman mos keladigan tushunchalardir. Bir-biriga mos keladigan tushunchalar o`rtasida quyidagicha munosabatlar shakllanadi:

1 – teng hajmlilik

Mazmuniga ko`ra farqlanadigan, lekin hajmlari bir-biriga mos keladigan tushunchalar teng hajmli yoki teng ahamiyatli tushunchalar deyiladi. Masalan, “A.

Qodiriy” – A va “O’tgan kunlar” romanı muallifi” – V. Aynan o’xshash tushunchalar hajmlari to’liq bir-biriga mos keladigan doiralar bilan tasvirlanadi.



2- Qisman moslik

Hajmlari qisman bir-biriga mos keladigan tushunchalar qisman mos tushunchalar deyiladi, masalan, “talaba” va “sportchi”, “yurist” va “yozuvchi”. Ular kesishib o’tadigan doiralar tarzida tasvirlanadi. Ikkita doiraning kesishib o’tgan qismida sportchi bo’lgan talabalar fikrlanadi. Doiraning chap qismida sportchi bo’lmagan talabalar, o’ng qismida esa – talaba bo’lmagan sportchilar fikrlanadi.

A – Talaba

V – Sportchi




3-bo’ysunish

Tushunchalardan birining hajmi boshqa tushunchaning hajmiga to’liq kirib borgan, lekin uni istisno etmaydigan tushunchalar bo’ysunish (subordinatsiya) munosabatida bo’ladi. Bu tur – V va jins – A ning munosabatidir (sutemizuvchi va mushuk).

A – sut emizuvchi


V – mushuk



Hajmlari bir-biriga mos kelmaydigan tushunchalar bir-bitiga mos kelmaydigan tushunchalar deyiladi. Bir-biriga mos kelmaydigan tushunchalar o’zaro quyidagicha munosabatda bo’lishi mumkin.


1 – bиргалликда бе’ysunishlik

Hajmlari bir-birini istisno etadigan, lekin qandaydir birmuncha umumiyroq jins bildiruvchi tushunchaga tegishli bo’lgan tushunchalar bиргаликда bo’ysunish (muvoqlashtirish) munosabatida bo’lishadi. Masalan, “archa” – v, “qayin” – S, “qarag’ay” – d – “daraxt” – A tushunchasi hajmiga tegishlidir. Ular bitta umumiyy doiraning ichida bir-biri bilan kesishmaydigan alohida doiralar shaklida tasvirlanadi. Bular aynan bitta jinsning turlaridir.




2 – qarama-qarshilik

Beglari bir-biriga zid keladigan, ular hajmlari yig'indisi esa jinsli tushunchani istisno etmaydigan ikkita tushuncha qarama-qarshilik (kontrarlik) munosabatida bo'ladi (oq bo'yoq – qora bo'yoq, jasurlik - qo'rkoqlik).



3 – ziddiyat

Ayni bir jins turlari bo'lgan va bunda bir tushuncha ayrim belgilarni ko'rsatadigan, boshqasi esa bunday belgilarni boshqa hech qanday belgilar bilan almashtirmasdan rad qiladigan, istisno etadigan ikkita tushuncha ziddiyati (kontradiktorlik) munosabatida bo'ladi. Agar bir tushunchani A (masalan, oq bo'yoq) bilan ifodalaydigan bo'lsak, unda unga zid munosabatda bo'ladigan boshqa tushunchani A (ya'ni, oq bo'yoq emas) bilan ifodalab bo'lmaydi. Bu holda Eyler doirasi qoq yarimga bo'linadi (A va A emas) va ular o'rtasida hech qanday uchinchi tushuncha bo'lmaydi.



13. Tushunchalarni umumlashtirish va chegaralash

Tushunchaning mazmuni bilan hajmi o'rtasidagi teskari munosabat qonuniga asoslangan tushunchalarni umumlashtirish va chegaralashga doir mantiqiy operatsiyalar tafakkurda aniqlikka erishish uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Tushunchani umumlashtirish degani – kichik hajmli va keng mazmuni tushunchadan katta hajmli va kichik mazmuni tushunchaga o'tish demakdir. Masalan, biz "shahar sudi" tushunchasini umumlashtirish bilan "sud" tushunchasini olamiz, bunda yangi tushunchaning hajmi boshlang'ich tushunchanikidan kengroq, chunki ularning birinchesi ikkinchisiga turning jinsga nisbatan munosabat qilishi tarzida bo'ladi. Shu bilan birga yangi tushunchaning mazmuni kamayadi, chunki biz uning turga oid belgilarini istisno etdik. Tushunchani umumlashtirish ko'p bosqichli bo'lishi mumkin, masalan, "Maxmud – talaba, yosh – inson". Biroq tushunchalarni umumlashtirish cheksiz kechavermaydi. Kategoriyalar – juda keng hajmli tushunchalar umumlashtirishning chegarasi bo'lishi mumkin: materia, ong, harakat, hususiyat va hokazo. Kategoriyalar jinsli tushunchaga ega bo'lmaydi.

Tushunchaning chegaralanishi uni umumlashtirishga teskari opera-tsiyadir. Tushunchani cheklash – bu katta hajmli va kichik mazmuni tushunchadan kichik hajmli va katta mazmuni tushunchaga o'tish demakdir. Masalan, "olim, faylasuf olim, faylasuf

o'qituvchisi, faylasuf o'qituvchisi Valiyev". Yakka tushuncha tushunchani cheklashning oxirgi chegarasi bo'ladi.

Tushunchalarni umumlashtirish va cheklashga doir mantiqiy operatsiyalar tafakkur amaliyotida keng qo'llaniladi: bir hajmli tushunchadan boshqa hajmli tushunchaga o'tish bilan biz o'z fikrimiz predmetini aniqlashtiramiz, o'z tafakkurimizni yanada aniqroq va izchilroq qilamiz.

Tushunchalarni umumlashtirish va cheklashni qismdan butunga fikran o'tish va qismni butundan ajratib olish bilan aralashtirmslik kerak. Masalan, sutka soatlarga, soat minutlarga, minutlar sekundlarga bo'linadi. Har bir keyingi tushuncha bundan oldingi o'z navbatida jinsli tushuncha tarzida ham ko'rib chiqilmaydigan tushunchaning turi bo'lmaydi. Shuning uchun "soat" tushunchasidan "sutka" tushunchasiga o'tish umumlashtirish emas, balki qismdan butunga o'tish bo'ladi.

14. Tushunchani ta'riflash. Ta'rif - turlari

Tushunchaning mazmuni va hajmi uning g'oyat muhim mantiqiy tavsifnomalari bo'ladi. Lekin ular ko'pincha tushunchaning so'zlardan iborat po'stlog'i orqasida yashiringan bo'ladi va ularni maxsus operatsiyalar: ta'rif va bo'lish yordamida ochish zarur.

Tushunchaning mazmunini ochib beradigan mantiqiy operatsiya ta'rif deyiladi. Mazmunni ochib beradigan hukm esa definitsiyadir.

Har qanday ta'rif o'zaro bir-biri bilan chambarchas bog'langan ikkitaunsur: ta'riflanuvchi va ta'riflovchidan iborat bo'ladi.

Mazmunini ochish kerak bo'ladigan tushuncha ta'riflanuvchi (Dfd - definiendum); ta'riflanuvchi tushunchaning mazmunini ochib beruvchi tushuncha – ta'riflovchi tushuncha (Dfn - definiens) deyiladi. Ramziy tarzda ta'rif shunday formula bilan ifodalanadi: Dfd = Dfn.

Ta'rif - turlari

Ta'riflar bilish jarayonida bajaradigan funksiyalarga ko'ra nominal va real ta'riflarga bo'linadi.

Yangi nomni joriy qilishda vositachi bo'ladigan ta'rif nominal (lotincha nomen – (nom) dan olingan) ta'rif deyiladi, u go'yoki muayyan predmetning ushbu atama bilan nomlanishiga doir talabini ifodelaydi. Masalan, "Yuridik" atamasi huquqshunoslikka tegishli, huquqiy degan ma'noni bildiradi". Bunday ta'rif samaradorlik, maqsadga muvofiqlik nuqtai nazaridan tavsiflanishi mumkin.

Predmetning muhim belgilarni ochib beradigan, qandaydir obyektni bayon qiladigan ta'rif real ta'rif deyiladi. Masalan, "tovar – sotish maqsadida ishlab chiqarilgan mahsulotdir". Real ta'riflar predmetni ishonchli tarzda aks ettirishi kerak, ularni chinnuqtai nazaridan tavsiflash mumkin.

Ba'zan nominal ta'rif bilan real ta'rif o'rtasidagi tafovutni belgilash oson kechmaydi. Tasdiq bir jihatdan olganda real bo'lib tuyuladi, boshqa jihatdan olganda esa – nominal ta'rif funksiyasini bajaradi. Qandaydir obyektlarni bayon qiladigan real ta'rif ba'zan unga nisbat beriladigan tushunchani qay tarzda ishlash kerakligiga doir talab tusiga ega bo'ladi. Nominal ta'rif bayonchilik tusiga ega bo'lishi ham mumkin.

Tushunchaning mazmunini aniqlash usuliga ko'ra ta'riflar aniq va noaniq ta'riflarga bo'linadi. Aniq ta'riflar predmetning muhim belgilarini ochib beradi, ularda ta'riflanyuvchi bilan ta'riflovchi o'rtasidagi tenglik, ekvivalentilik munosabati o'rnatiladi.

Eng yaqin jins va turga oid farqi orqali ta'riflash eng ko'p ommalashgandir. Masalan, "O'g'irlilik o'zganing mulkini maxfiy ravishda egallashdir". "O'g'irlilik" tushunchasi eng yaqin jinsga oid tushuncha - "o'zganing mulkini egallab olish", deb asoslanmoqda, so'ngra ana shu jins doirasida o'g'irlilikning boshqa o'g'irlilik turlari: talonchilik, bosqinchilikdan farqli belgisi, uning maxfiy o'g'irlilik ekanligi aniqlanadi. Ta'riflar ushbu turining tuzilishi quyidagi formula orqali ifodalanadi:

$$A = Vs,$$

bunda: A – ta'riflanayotgan tushuncha; V – jins; s – turga oid farqi.

Ta'riflarning ushbu turi quyidagicha xilma-xilliklarga ega:

a) genetik ta'rif. Unda predmetning kelib chiqishi ochib beriladi. Masalan, "Urfodat – bu uni uzoq vaqt davomida amalda qo'llanish oqibatida qaror topgan fe'l-atvor qoidasidir".

b) mohiyatga oid ta'rif (yoki predmet sifatining ta'rifi). Unda predmetning mohiyati, uning tabiatini yoki sifati ochib beriladi. U barcha fanlarda keng qo'llaniladi.

v) funksional ta'rif. Unda predmetning maqsadi, roli va funksiyalari ochib beriladi. Masalan, "Termometr – bu haroratni o'chaydigan asbobdir".

g) tuzilmaviy ta'rif (yoki tarkibiga ko'ra ta'riflash). Unda tizimning unsurlari, qandaydir jins turlari yoki butunning qismalari ochib beriladi. Masalan, "Siyosiy tizim – bu davlat va nodavlat, partiya va partiyasiz tashkilotlar va muassasalar majmuidir".

Jins va turga doir farq orqali ta'riflash cheklangandir. U jinssiz kategoriylar va yakka tushunchalarga nisbatan qo'llanilmaydi, chunki ular uchun turga doir farqini ko'rsatish mumkin emas. Kategoriyalarni ta'riflash uchun o'zaro nisbatli ta'riflar ishlataladi (qarama-qarshilik orqali ta'riflash). Masalan, "Erkinlik – bu idrok etilgan zaruratdir".

Yakka tushunchalar uchun odatta noaniq ta'riflar qo'llaniladi, ularga: bayonlar, tavsifnomalar, qiyoslashlar, kontekstual, ostensiv (ko'rsatish yordamidagi) va boshqa ta'riflar kiradi.

15. Tushunchalarni ta'riflash qoidalari

Ta'rifning to'g'riligi tushunchaning mantiqiy qoidalari orqali tartibga solinadigan tuzilmasiga bog'liq bo'ladi.

1) Ta'rif mutanosib bo'lishi kerak

Ta'riflanayotgan tushunchaning hajmi ta'riflovchining hajmiga teng bo'lishi, ya'ni ular teng hajmlri bo'lishi kerak – A = Vs. Masalan, "Mantiq – to'g'ri fikrlash, qonunlari haqidagi fandir".

Ushbu qoida buzilganida ikki turdag'i xato yuz berishi mumkin. Agar ta'riflovchi tushuncha ta'riflanuvchiga nisbatan ancha kengroq hajmiga ega bo'lsa, unda bu haddan ortiq keng ta'rif xatosi deyiladi ($A < Vs$). Masalan, "Mantiq fandir".

Agar ta'riflovchi tushuncha o'z hajmiga ko'ra ta'riflanuvchiga nisbatan torroq bo'lsa, unda bu haddan ortiq tor ta'rif xatosi deyiladi ($A > Vs$). Masalan, "Mantiq – tushuncha shakli haqidagi fandir".

2) Ta'rifa qaytariq bo'lmasligi kerak

Agar tushunchani ta'riflashda biz, o'z navbatida, birinchi tushuncha yordamida ta'riflanadigan boshqa tushunchani qo'llamoqchi bo'lsak, unda bunday ta'rif o'z ichiga doirani qamrab oladi. Masalan, huquqning mavjud huquqiy tartibotni qo'riflash vazifasini bajaradigan normalar tizimi sifatida xato ta'riflanishi, huquqiy tartibotning esa, o'z navbatida, huquq tushunchasini orqali ta'riflanishi.

Tavtologiya (grekchadagi – xuddi shunday so'zdan olingan) – ta'riflovchi so'z ta'riflanuvchini takrorlaydigan xato ta'rif ta'riflagi doiranining bir turidir. Masalan, "Ehtiyoitsizlik oqibatidagi jinoyat – bu ehtiyoitsizlik natijasida sodir etilgan jinoyatdir".

3) Ta'rif aniqlik bo'lishi kerak

U ta'rifga muhtoj bo'limgan va ikki xil ma'noni anglatmaydigan ma'lum belgilarni ko'rsatishi kerak. Agar tushuncha belgilari ma'lum bo'limgan va o'zi ta'rifga muhtoj bo'lgan boshqa tushuncha orqali ta'riflanadigan bo'lsa, unda bu noma'lumni noma'lum orqali ta'riflash yoki x ni y orqali ta'riflash, deb ataladigan xatoga olib keladi. Masalan, "Indeterminizm – bu determinizmaga teskarri bo'lgan falsafiy kontsepsiya". "Indeterminizm" tushunchasini ta'rifashdan oldin "determinizm" tushunchasini ta'riflash kerak bo'ladi. Aniqlik qoidasi ta'rifi, garchi predmet haqida tasavvur shakllantirishgaga yordam bersa-da, lekin uning muhim belgilarni ochib bermaydigan istioralar, qiyoslashlar va shu kabilalar bilan almashtirib qo'yishdan ogoh qiladi.

4) Ta'rif inkor shaklida bo'lmasisligi kerak

Inkor shaklida predmetga tegishli bo'limgan belgilarni ko'rsatadiyu, lekin predmetga mansub bo'lgan belgilarni ko'rsatmaydi. Masalan, "Kit – baliq emas", "Qiyoslash – bu dalil emas".

16. Tushunchalarni bo'lishning mantiqiy operatsiyasi. Bo'lish turlari

Tushuncha hajmini ochib beradigan mantiqiy operatsiya bo'lish deyiladi. Bo'lish ushbu tushuncha tegishli bo'ladigan predmetlar doirasini aniqlashga imkon beradi, bu jinsning turlarga bo'linishidir. Jinsli-turli munosabatlar shu bilan tavsiflanadiki, jins haqida aytish mumkin bo'lgan narsani tur haqida ham aytish mumkin bo'ladi. Masalan, "Konstitutsiya" tushunchasini federativ davlat Konstitutsiyasiga va unitar davlat Konstitutsiyasiga bo'lish mumkin. Bu tushunchalar ham jinsli tushuncha ega bo'lgan barcha belgilarga ega bo'ladi.

Bo'lishni fikran a'zolarga ajratishdan farqlash lozim. A'zolarga ajratish butun bilan qisimning o'zaro munosabatiga tegishlidir. Masalan, Konstitutsiya "Konstitutsiya" tushunchasi belgilari ega bo'lmaydigan moddalar va paragraflarga ajratiladi.

Bo'lish quyidagi hollarda zarurdit.

1) Nafaqat mohiyatni, shu bilan birga uning namoyon bo'lishi shakllarini ham ochib berish zarur bo'lganida;

2) Tushunchaning qo'llanilishi sohasini tavsiflash kerak bo'lganida;

3) Atama ko'p ma'noli bo'lganida.

Bo'lish o'z tuzilmasiga egadir. Unda quyidagilar farqlanadi:

Bo'linuvchi – bu hajmi uni tashkil etadigan turlar orqali ochib beriladigan jinsli tushunchadir (bizning misolda – bu konstitutsiya);

Bo'lish a'zolari – jinsli tushunchaning operatsiya natijasida olingan turlari (federativ davlat konstitutsiyasi, unitar davlat konstitutsiyasi);

Bo'lishning asosi – ushbu operatsiyani o'tkazishga asos bo'ladigan belgi (yoki belgilar) (bizning holatda – bu davlat qurilishi turi).

Bo'lishning ikki turi: belgining turi o'zgarishi bo'yicha bo'lish va dixotomik bo'lish farqlanadi.

1 – bo'lishga asos qilib olingan belgi turining o'zgarishi bo'yicha bo'lish. Masalan, jamiki odamlarni turli belgilarga: irqiy, ijtimoiy, kasbiy, jinsi va yoshi, hududiy va boshqa belgilarga ko'ra guruhlarga ajratish mumkin. Ushbu hollarning har birida bo'lish a'zolari turlicha bo'ladi. Bo'lishning bu turi fanda va amaliyatda tez-tez qo'llaniladi. Biroq ushbu bo'lish turining kamchiligi: bo'linadigan jinsli tushunchaning hajmi cheksiz bo'lishidadir.

2 – dixotomik bo'lish (grekcha: dicha – ikki qismga va tome – kesish so'zlaridan olingan) bo'linadigan tushuncha hajmini ikkita bir-biriga zid tushunchalarga bo'lishdan iboratdir. Masalan: tabiat jonli va jonsiz tabiatga, kimyoiy elementlar metallar va nometallarga bo'linadi va hokazo. Ushbu bo'lish turining afzalligi shundaki, bo'linadigan tushuncha hajmi to'liq istisno qilinadi, uning kamchiligi esa salbiy tushuncha sohasining ancha noaniq bo'lib qolishidadir.

Ba'zan aralash bo'lish ham ishlatalidi. Masalan, fuqarolar yuridik salohiyatlari va yuridik salohiyatsiz fuqarolarga, so'ngra yuridik salohiyatlari fuqarolar, o'z navbatida, to'liq va qisman yuridik salohiyatlari fuqarolarga bo'linadi.

17. Bo'lish qoidalari

Ta'rif singari bo'lish operatsiyasi ham alohida qoidalarga bo'ysunadi.

1) Bo'lishni faqat bir asos bo'yicha bajarish kerak. Bunday talab shuni anglatadiki, avval-boshda asos sifatida tanlangan alohida belgi yoki belgilar majmuini bo'lish jarayonida boshqa belgilari bilan almashtirmaslik lozim. Masalan, iqlimni sovuq, mo'tadil va issiq iqlimga bo'lish to'g'ridir. Uni sovuq, mo'tadil, issiq, dengizniki va qit'aviy iqlimlarga bo'lish to'g'ri bo'lmaydi: bo'lish oldiniga yildagi o'rtacha harorat bo'yicha, so'ngra esa – namlik bo'yicha bajarildi. Bunday xato chaparasta yoki chalkash bo'lish deyiladi.

2) Bo'lish mutanosib yoki istisno etadigan bo'lishi kerak, ya'ni bo'lish a'zolari hajmlarining summasi bo'lingan tushuncha hajmiga teng bo'lishi lozim. Bunday talab bo'linadigan ayrim a'zolarning qoldirib ketilishidan ogoh qiladi. Agar, masalan, jinoyatlarni ijtimoiy xavfliklik tusi va darajasiga qarab bo'lishda unchalik og'ir bo'lмаган jinoyatlar, o'rtacha og'irlikdagi jinoyatlar va og'ir jinoyatlarga bo'linsa, unda mutanosiblik qoidasi buziladi, chunki bo'lishning yana bir a'zosi – alohida xavfli jinoyatlar ko'rsatilmagan. Bunday bo'lish noto'liq bo'lish deyiladi.

Agar bo'lishning ortiqcha a'zolari, ya'ni ushbu jinsning turlari bo'lмаган tushunchalar ko'rsatilsa ham mutanosiblik qoidasi buziladi. Masalan, agar "jinoi jazo" tushunchasini bo'lishda barcha turlardan tashqari yana jinoyat qonunchiligidida jazo choralar ro'yxatiga kirmaydigan, lekin ma'muriy jazo turi bo'lgan ogohlantirish ham ko'rsatiladiki, bu ortiqcha a'zolar bilan bo'lish deyiladigan xato bo'ladi.

3) Bo'lish a'zolari bir-birini istisno qilishi kerak. Ular faqat bir-biriga mos kelmaydigan, birgalikda bo'ysunadigan tushunchalar bo'lishi mumkin. Masalan, quyidagicha bo'lishlar noto'g'ri bo'ladi: o'quvchilar a'lochilar, qoloqlar va o'zlashtiruvchilar bo'linadi desak xato bo'ladi. chunki a'lochi tushunchasi va

o'zlashtiruvchi tushunchasi bir-birini istisno etmaydi; jinoyatlar qasddan sodir etilgan, ehtiyyotsizlik orqasida sodir etilgan va harbiy jinoyatlarga bo'linadi, chunki harbiy jinoyatlar ayni bir vaqtida qasddan sodir etilgan yoki ehtiyyotsizlik orqasida sodir etilgan bo'lishi ham mumkin.

4) Bo'lish izchil va uzlusiz bo'lishi kerak. Jinsdan eng yaqin turlarga, so'ngra ulardan – eng yaqin kichik turlarga o'tish kerak bo'ladi. Agar bunday qoida buzilsa, mantiqiy xato – bo'lishdagи sakrash kelib chiqadi. Masalan, agar biz huquqni oldiniga tarmoqiarga – mehnat, jinoiy, fuqarolik huquqlariga, so'ngra fuqarolik huquqini – mulkchilik huquqi, majburiyat huquqi, meros huquqiga bo'lsak, bu to'g'ri, izchil va uzlusiz bo'lish bo'ladi. Lekin agar mehnat, jinoiy huquqdan keyin darhol meros huquqini aytadigan bo'lsak, bu bo'lishdagи sakrashdan iborat bo'ladi.

18. Tasniflash

Tasniflash – bo'lishning alohida turi bo'lib, u predmetlarni har bir sinf o'zining doimiy, muayyan o'rниga ega bo'lgan guruhlar (sinflar) bo'yicha taqsimlashdan iborat bo'ladi. Tasniflash bir qator xususiyatlarga ko'ra farqlanadi.

Birinchidan, bu bo'lish yoki nazariy va amaliy vazifani hal etish uchun muhim bo'lgan belgilari nuqtai nazaridan amalga oshirilgan izchil bo'lishlar tizimidir. Masalan, ishlab chiqarish usuli asosida ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarning tasniflanishi o'tkazilgan. Atom vazni negizida Mendeleyevning elementlarning davriy tizimi yaratilgan. Tasniflashni o'tkazishda uning maqsadini hisobga olish, ya'ni uning qanday vazifalar echimiga ko'maklashishini ko'rsatish muhimdir.

Ikkinchidan, tasniflashda predmetlarni guruhlar bo'yicha shunday taqsimlash kerakki, ularning tasniflashdagi o'mi bo'yicha xususiyatlari haqida hukm chiqarish mumkin bo'lsin (masalan, kimyoiy elementning Mendeleyevning elementlarning davriy tizimidagi o'mi bo'yicha uning xususiyatlari haqida hukm chiqarish mumkin).

Uchinchidan, tasniflash natijalari jadvallar yoki chizmalar shaklida taqdim etiladi yoki, juda bo'lmaganada, taqdim yetilishi mumkin.

Tasniflashlarni yaratishda ularning nisbiy tusini hisobga olish muhimdir, chunki tasniflash ko'pincha voqelikning qo'pollashtirilishi bo'lishi, u hodisaning o'tkinchi shakllarini hisobga olmasligi ham mumkin. Bundan tashqari, voqelik rivojlanadi, o'zgaradi va tasniflash eskirishi mumkin.

Ko'rib chiqilgan ilmiy tasniflash deb ataladigan tasniflashdan tashqari sun'iy tasniflash deb ataladigan tasniflash, ya'ni predmetlarning nomuhim belgilari bo'yicha sinflarga taqsimlanishi ham qo'llaniladi. Masalan, familiyalarning alifbe tartibida taqsimlanishi ana shunday tasniflash hisoblanadi.

MASHQLAR

1-mashq. Yakka va umumiy tushunchalarni ko'rsating; qaysi umumiy tushunchalar bo'lingan, qaysilari to'plama tushuncha ekanligini aniqlang.

Namunalar: 1. «Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti» - yakka tushuncha.

2. «Oliy o'quv yurti» - umumiy (bo'linmagan) tushuncha.

3. «84-guruh» - yakka to'plama tushuncha.

1.1. Yuridik shaxs.

Oliy majlisi.

1.2. O'zbekiston Respublikasining

1.3. «Xalq so'zi» gazetasi.

- | | |
|---------------------------------------|--------------------------------------------------------------------|
| 1.4. Yoshlik. | 1.11. Tovar. |
| 1.5. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. | 1.12. O'zbekiston Respublikasi Qonun-chilik palatasining deputati. |
| 1.6. Fan. | 1.13. Musobaqa. |
| 1.7. TDIU talabasi. | 1.14. «Adolat» sotsial demokratik partiyasining ustavi. |
| 1.8. Toshkent shahri. | 1.15. Yozuvchi Abdulla Qodiriy. |
| 1.9. Adam Smit. | |
| 1.10. Iqtisodchi. | |

2-mashq. Tushunchalarning konkret yoki mavhumligini aniqlang.

- | | |
|-----------------------------------------|------------------------------------|
| Namunalar: 1. Talaba-konkret tushuncha. | 2. Mustaqillik - mavhum tushuncha. |
| 2.1. Kasallik. | 2.9. Jinoyat. |
| 2.2. Ikki yuzlamachilik. | 2.10. Hushyorlik. |
| 2.3. Partiya. | 2.11. Iqtisodchi. |
| 2.4. Shaxmat. | 2.12. Vatan. |
| 2.5. Loqaydlik. | 2.13. Go'zallik. |
| 2.6. Yulduz. | 2.14. Gul. |
| 2.7. Fuqaroviylar burch. | 2.15. Jasorat. |
| 2.8. Demokratik davlat. | |

3-mashq. Ijobiy va salbiy tushunchalarni ajrating.

- | | | |
|-----------------------------------------|------------------------------|------------------|
| Namunalar: Qonuniy – ijobjiy tushuncha. | Savodsiz – salbiy tushuncha. | |
| 3.1. Ishonch. | 3.6. Nazorat. | 3.11. Munosabat. |
| 3.2. Tartibsiz. | 3.7. Betakror. | 3.12. Cheksiz. |
| 3.3. Gumanizm. | 3.8. Noma'lum. | 3.13. Xunuk. |
| 3.4. Kasal. | 3.9. Tushuncha. | 3.14. Sassiq. |
| 3.5. O'lik. | 3.10. Bexabar. | 3.15. Kitob. |

4-mashq. Nisbadosh va nisbatsiz tushunchalarni aniqlang.

- | | | |
|----------------------------------------------|-------------------------------------|----------------|
| Namunalar: Xalq banki - nisbatsiz tushuncha. | O'quvchilar - nisbatdosh tushuncha. | |
| 4.1. Sabab. | 4.6. Siyosat. | 4.11. Musobaqa |
| 4.2. Talaba. | 4.7. Tezlanish. | 4.12. Tarqoq. |
| 4.3. Yuqori. | 4.8. Bilimdon. | 4.13. Yulduz. |
| 4.4. Qiziq. | 4.9. Muammo. | 4.14. Harakat. |
| 4.5. Nusxa. | 4.10. Iqtisodiy nazariya. | 4.15. Qattiq. |

5-mashq. Quyidagi tushunchalarga to'la mantiqiy tasnif bering.

- | | |
|--------------------------------------------------------------------------------------|-------------------|
| Namunalar: Iqtisodchi - umumiy tushuncha (bo'linmagan), konkret, ijobjiy, nisbatsiz. | |
| 5.1 Oliy Majlis deputati. | 5.9 Mehr-oqibat. |
| 5.2 Davlat. | 5.10 Irodasizlik. |
| 5.3 Tinchlik. | 5.11 Qo'rqqolik. |
| 5.6 Adolat. | 5.12 O'qituvchi. |
| 5.7 Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi. | 5.13 Katta. |
| 5.8 O'g'irlilik. | 5.14 Kenglik. |
| | 5.15 Avtoruchka. |


6-mashq. Sig'ishadigan tushunchalar o'rta sidagi munosabat ko'rinishini aniqlang va uni Eyler aylanasida ifodalang.

Namunalar:

1. Tovar (A) Sotish uchun ishlab chiqilgan mahsulot (V) ayniyat munosabati.



2. Talaba (A) sportchi (V)- qisman moslik munosabati.



3. Tovar (A) qimmatbaxo tovar (V).
Bo'y sunish munosabati.



6.1. Oliy o'quv yurti, universitet.

6.8. Talaba, sportchi.

6.2. Iqtisodchi, Oliy Majlis Qonun-chilik palatasining deputati.

6.9. Olim, O'zbekiston fuqarosi

6.3. Toshkent, O'zbekiston poytaxti

6.10. Mustaqil davlat, O'zbekiston.

6.4. O'zbek yozuvchisi, «O'tkan kunlar» romanining muallifi

6.11. Nazariya, iqtisodiy nazariya.

6.5. Inqiroz, iqtisodiy inqiroz.

6.12. Kvadrat, hamma tarafi teng to'rt-burchak.

6.6. President, O'zbekiston Prezidenti

6.13. Fan, matematika.

6.7. Mustaqil O'zbekiston Prezidenti,

6.14. Olim, iqtisodchi

I.A Karimov.

6.15. Kitob, badiiy kitob.

7-mashq. Quyidagi tushunchalarga teng (ayniy) tushunchalar toping.

Namuna: Qish - yilning eng sovuq fasli.

7.1. Konstitutsiya.

7.8. Islom dini

7.2. Iqtisodiyot nazariyasini fanining asoschisi.

7.9. Surxondaryo

7.3. Birinchi kosmonavt

7.10. Kvadrat

7.4. Qo'l

7.11. Astronomiya.

7.5. O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi

7.12. Hashar.

7.6. O'quv yurti

7.13. Ko'pkari.

7.7. Drama

7.14. Oy.

7.15. Falsafa.

8-mashq. Quyidagi tushunchalarni umumlashtiring.

Namuna: Gazeta-davriy nashr.

8.1. TDIU talabasi.

8.7. Rektor.

8.2. Qish.

8.8. Respublika.

8.3. Darslik.

8.9. Fuqaro.

8.4. Futbol.

8.10. Iqtisodiyot fani.

8.5. Elektron.

8.11. Vijdon.

8.6. Tirik tabiat.

8.12. Referendum.

8.13. Kq'ylak.

8.14. Mushuk.

8.15. Falsafa kafedrasi

o'qituvchisi.

9-mashq. Quyidagi tushunchalarni chegaralang:

Namuna: Davriy nashr- gazeta

9.1. Xuquq. 9.2. Fan. 9.3. Tafakkur shakli. 9.4. Terrorizm. 9.5. Darslik 9.6. Partiya
9.10. Qonun. 9.11. Inqiroz. 9.12. Taraqqiyot. 9.13. Jamiat. 9.14. Din. 9.15. Inson.

10-mashq. Ta'riflashning turi ta'riflanuvchi va ta'riflovchi tushunchalarni,
ularda jins tushunchasi va tur belgilari ko'rsating.

Namuna: Mantiq (A) - inson tafakkurining shakllari va to'g'ri fikrlash
qonunlari (s) haqidagi fandir (V). Jins tushunchasi va tur belgilari orqali ta'rif
(A=Vs).

10.1. Uchburchak uch to'g'ri chiziq bilan chegaralangan geometrik tekis shakldir.

10.2. Aksiya – aksionerlik jamiyatiga ma'lum summa qo'shganligini tasdiqlaydigan
va divident ko'rinishida daromadning bir qismini olishga huquq beradigan qimmatli
qog'oz.

10.3. Metafora – ko'chma ma'noda ishlatalidigan so'z.

10.4. Talonchilik – davlat, jamoat va fuqarolarning shaxsiy boyligini oshkora
o'g'irlab olish.

10.5. Jamg'arma fondi – ishlab chiqarish va noishlab chiqarish asosiy fondlari uchun
foydalanimlidigan milliy daromadning bir qismidir.

10.6. Mehнат – kishilarning ongli, maqsadga muvofiq faoliyatidir.

10.7. Standartlashtirish – ma'lum sohadagi faoliyatni tartibga solish maqsadiga
ma'lum talab, qoida va normalarining belgilanishidir.

10.8. Ish vaqtı – xodimning o'z mehnat majburiyatlarini bajarishi uchun qonun
asosida belgilangan vaqtidir.

10.9. Shaxsiy mulk – individual yoki oilaviy ehtiyojlarni qondirish uchun shaxsiy
iste'mol predmetlariga egalik munosabatidir.

10.10. Ixtirochilik – konkret texnik vazifalarni hal qiluvchi ijod jarayon.

11-mashq. Quyidagi ta'riflarning to'g'riligini aniqlang. Noto'g'ri ta'riflarning
xatosini ko'rsating.

Namuna: Talaba – o'quvchidir. Noto'g'ri ta'rif. Keng ta'rif (A<BC)

11.1. O'g'irlilik – jamoat mulkini ataylab o'g'irlashdir.

11.2. Millat – kishilarning barqaror tarixiy birligidir.

11.3. Tuya – sahro kemasidir.

11.4. Kibernetika – san'at emas.

11.5. Aytigan so'z – otilgan o'q.

11.6. Havo – kisloroddir.

11.7. Atom – eng mayda zarrachadir.

11.8. Sher – hayvonlar shohidir.

11.9. Imtixon – talaba bilimi mezoniidir.

11.10. Maktab – ta'lim olish shaklidir.

11.11. Tushuncha – buyum haqida fikr.

11.12. Kun – tunning yo‘qligidir.

11.13. Bolalar – hayot guli.

11.14. O‘simlik – tirk mavjudotdir.

12-mashq. Tushunchalarni bo‘lishning to‘g‘riligini tekshiring. Noto‘g‘ri bo‘lishlarda qaysi qoida buzilganligini aniqlang.

Namuna: Mehnat shartnomasi: a) no‘malum muddatga; b) 3 yildan ko‘p bo‘lмаган ма‘лум муддатга тузилди. Bo‘lish noto‘g‘ri: bo‘limning teng hajmliligi qoidasi buzilgan. (ма‘лум исхни байарish ваqtiga ham mehnat shartnomasi tuzish mumkin)

12.1. Fanlar texnik va gumanitar fanlarga bo‘linadi.

12.2. Jinoyatlar ongli ravishda, ehtiyotsiz va xo‘jalik jinoyatlariga bo‘linadi.

12.3. Kelishuvlar ikki tomonlama, ko‘p tomonlama va shartnomada asosida bo‘lishi mumkin.

12.4. Tillar tabiiy, sun‘iy va xalq tillariga bo‘linadi.

12.5. Tovarning asosiy xususiyati iste‘mol qiymati va narxidir.

12.6. Magazinda sut va oziq-ovqat mollari sotiladi.

12.7. Kinoga 16 yoshgacha bo‘lgan bolalar va o‘smirlar qo‘yilmaydi.

12.8. Inqiroz iqtisodiy va siyosiy inqirozga bo‘linadi.

12.9. O‘zbekiston Konstitutsiyasi fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy huquq va erkinliklarini ta‘minlaydi.

12.10. Davlat mustaqil yoki nodemokratik bo‘lishi mumkin.

12.11. Shaxmatchilar grossmeysterlarga va championlarga bo‘linadi.

12.12. Hayvonlar go‘shtxo‘r va uy hayvonlariga bo‘linadi.

12.13. Ong ijtimoiy, falsafiy, mifologik ongga bo‘linadi.

12.14. Kishilar erkak, bola va millatlarga bo‘linadi.

12.15. Nutq og‘zaki, yozma va chalkash bo‘lishi mumkin.

13-mashq. Hukmda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar qavs ichidagi so‘zlar bilan almashtirilsa, hukm ayniyligini saqlab qoladimi?

13.1. Davlat jamiyat – sinflarga bo‘linishi natijasida vujudga kelgan (mamlakat).

13.2. Masalani muhokama qilishda turli nuqtai nazari namoyon bo‘ldi (qarashlar, fikrlar).

13.3. Tovarning qiymati oshgan sari narhi ham oshib boradi (bahosi).

13.4. Talaba o‘quv yili davomida tashabbuskorlik ko‘rsatdi (faollik).

13.5. Er-xotinlarning nikohgacha bo‘lgan boyligi uning o‘ziniki bo‘lib qoladi (mulki).

14-mashq. Nozidlik qonuniga asoslanib, quyidagi juft hukmlarning bir vaqtida chin bo‘lishi mumkin yoki mumkin emasligini aniqlang.

14.1. Bu guruuning barcha talabalari mantiq fanidan seminarga tayyorlandilar. Bu guruuning hech bir talabasi mantiq fanidan seminarga tayyorlanmadidi.

14.2. 1-guruuning barcha talabalari tantanada ishtirok etdilar.

1-guruhnning ayrim talabalari tantanada ishtirok etmadilar.

14.3. Ayrim milliy davlatlar boshqaruvning monarchik shaklini qabul qildilar. Ayrim milliy davlatlar boshqaruvning monarchik shaklini qabul qilmadilar.

14.4. Davlat hokimiyatining ayrim organlari qonun chiqarish huquqiga egadir. Davlat hokimiyatining ayrim organlari buyruqlar va ko'rsatmalar berish huquqiga egadir.

14.5. Har qanday fikrlar ham isbot bo'lavermaydi. Ayrim fikrlar isbot bo'la oladi.

15-mashq. Uchinchisi istisno qonuni talablari buzilgan muhokamani ko'rsating.

15.1. Muhammad falsafa fanini o'rganmoqda, chunki u talaba, barcha talabalar esa falsafani o'rganadilar.

15.2. Barcha talabalar mantiq fanini o'rganadilar. Suvonov mantiq fanini o'rganmoqda, demak, u - talaba.

15.3. O'ng ko'zing qichisa – quvonasan, chap ko'zing qichisa – yig'laysan.

15.4. Talaba N.ga imtixon bahosini qo'yish kerak, chunki u musobaqa ketadi.

15.5. Meni ishga qabul qilishingizni so'rayman, chunki diplomim bor.

16-mashq. Quyidagi mulohazalarda mantiqning qaysi qonunlari buzilgan?

16.1. Nimaniki yo'qotmagan bo'lsang, u senda bor. Sen shoxingni yo'qotmagansan. Demak, sening shoxing bor.

16.2. O'qituvchi: "Begona daftardan ko'chirayotganiningni boshqa ko'rmayman, deb umid qilaman".

O'quvchi: "Men ham umid qilaman".

16.3. "Meni N.N. bilan o'zim ishtirok etmagan holda nikohning bekor qilishingizni ruhsat berishingizni so'rayman, lekin men rozilik bermayman" (Xalq sudiga berilgan ariza).

19. Hukm: uning mohiyati va bilishdagi roli

Hukm – bu predmetlar o'rtasida qandaydir aloqalar va munosabatlar mavjudligi yoki yo'qligini oshib berishda asos bo'ladigan fikr shaklidir.

Hukmnинг farqlovchi belgisi – nimadir haqidagi qandaydir narsani tasdiqlash yoki rad qilishdir. Hukm chin yoki hato bo'lishi mumkin. Hukmnинг chinligi uning voqeqlikka muvofiqligi bilan belgilanib, u bizning unga nisbatan munosabatimizga bog'liq bo'lmaydi va obyektiv xarakterga ega bo'ladi. Oddiy hayotiy vaziyatlar haqidagi hukmlarning haqiqiyligi shubhasiz bo'lib, maxsus tadqiqotni talab qilmaydi. Fanda qandaydir hukmni tasdiqlash yoki inkor etish uchun ko'p yillik qizg'in mehnat talab qilingan. Bu turli amaliyot sohalariga ham tegishlidir.

Barcha ilmiy haqiqatlar hukmlar shaklida ifodalanadi. Ular shuningdek odamlar o'rtasidagi ma'naviy muloqot, o'zaro axborotlar bilan almashinishning universal shakli bo'lib ham xizmat qiladi. Odadta yuridik qonunlar va jamiyatda odamlarning fe'l-atvorini tartibga solib turadigan boshqa normativ hujjatlar moddalari hukm shaklini qabul qildi.

Har qanday hukm gapda ifodalanadi, lekin har qanday gap ham hukm bo'lavermaydi. Chin yoki xato sifatida tavsiflanadigan qandaydir axborotni bildiradigan gap, ya'ni faqat darak gap hukm bo'lishi mumkin.

Ayni bir hukmnинг o'zi turlicha gaplarda ifodalaniши mumkin. Masalan, "Aristotel mantiq fanining asoschisidir" va "Aleksandr Makedonskiyning tarbiyachisi mantiq fanining asoschisidir".

O'z navbatida, ayni bir gap turlicha hukmlarni ifodalashi mumkin. Masalan, "Aristotel mantiq fanining asoschisidir", degan gap quyidagicha hukmlarni ifodalashi mumkin: "Aristotel (boshqa hech kim emas) mantiq fanining asoschisidir"; "Aristotel mantiq fanining asoschisidir (davomchisi emas)"; "Aristotel mantiq (fizika yoki matematika emas) fanining asoschisidir".

Hukmnинг tuzilishi turli tillarda ham bir xilda bo'ladi, gaplarning tuzilishi esa turlicha bo'ladi.

20. Hukmlarning mantiqiy tuzilishi

Hukmda quyidagi unsurlarni ajratib ko'rsatish mumkin: subyekt, predikat, bog'lovchi va kvantor.

Hukm predmeti haqidagi tushuncha, biz hukm chiqarayotgan narsa hukm subyekti hisoblanadi; u boshlang'ich bilimga ega bo'ladi. Subyekt S harfi bilan ifodalanadi.

Hukm belgisi haqidagi tushuncha, hukm predmeti haqida gapiriladigan narsa hukm predikati deyiladi. Predikat predmet haqidagi yangi bilimni o'z ichiga oladi va R harfi bilan ifodalanadi. Subyekt va predikat hukm atamalari deyiladi.

Bog'lovchi subyekt bilan predikat o'tasidagi munosabatni ifodalaydi. Bog'lovchi hukm atamalarini yagona yaxlitlikka birlashtirib, belgining predmetga mansubligi yoki mansub emasligini belgilaydi. Bog'lovchi bir so'z (bor, mohiyat, hisoblanadi) yoki so'zlar guruhi yoki tire yoxud xususiyatlarning oddiy kelishuvli ("It huradi", "Yomg'ir yog'adi") bilan ifodalanishi mumkin.

Kvantor ("hammasi", "bittasi ham emas", "ayrimlari") hukmni uning soni tomonidan tavsiflaydi, hukmnинг subyektni ifodalaydigan tushunchaning butun hajmiga yoki uning bir qismiga munosabatini ko'rsatadi.

Gapning mantiqiy ma'nosini aniqlash uchun undagi subyekt va predikatni topish kerak. Oddiy hollarda ular ega va kesimiga to'g'ri keladi. Murakkab gaplarda subyekt egalar guruhi, predikat esa – kesimlar guruhi orqali ifodalaniши mumkin. Masalan, "Jinoyatdan foyda ko'rgan har qanday shaxs uning sodir qilinishida aybdordir" degan gapda egalar guruhi: "Jinoyatdan foyda ko'rgan har qanday shaxs" subyekt bo'ladi, chunki bu – boshlang'ich axborotdir, kesimlar guruhi: "uning sodir qilinishida aybdordir" – predikat bo'ladi, chunki bu yangi axborotdir.

Lekin sub'ektning ega bilan, predikatning kesim bilan muvofiq kelishi har doim ham kuzatilavermaydi. "Sholoxov buyuk rus yozuvchisi hisoblanadi" degan gapda: "buyuk rus yozuvchisi hisoblanadi" – sub'ekt, "Sholoxov" esa – predikatdir. Subyekt va predikat gapning boshqa a'zolari bilan ham ifodalaniши mumkin.

Gapdagи subyekt va predikatni aniqlashning bir qator usullari mavjud. Birinchidan, gapda ega bo'lib hisoblanadigan hukm subyektini maxsus ajratib

ko'rsatish mumkin. Masalan, "Advokat Petrov so'zga chiqadigan joy – bu suddir". Ushbu gapda subyekt ega hisoblanadi, bu kirish gap bilan ta'kidlanadi. Ikkinchidan, gapdagi so'zlar tartibi shunday qoidaga bo'yusunishi kerak: hukmdagi jamiki ma'lum narsalar subyekt tomoniga gapning boshiga siljiydi, predikat esa yangilikni eltuvchi sifatida gap oxirida qo'yiladi. Uchinchidan, mantiqiy urg'udan ham foydalanish mumkin. Og'zaki nutqda u tovushning kuchayishi bilan, yozma ishda esa – tagini chizish bilan ifodalanadi. Va, nihoyat, alohida mushkul hollarda yordamga keladigan konteksti ham hisobga olish muhimdir.

21. Oddiy hukmlar turlari

Boshqa hukmlarni o'z ichiga olmaydigan hukm oddiy hukm deyiladi. Ular ob'ektiv olamdagи bitta-yagona aloqaning o'z mazmuniga ko'ra qandayligidan qat'i nazar shu aloqaning aksi bo'ladi. Masalan, "Bu – odam"; "Atirgulning xushbo'y hidibor" va hokazo.

Oddiy hukmlar o'z ko'rinishlariga ko'ra xilma-xildir. Ular mantiqiy belgilari bo'yicha turlarga bo'linadi: subyekt va predikat bog'lovchi ko'rinishi (sifati va soni), subyekt bilan predikat o'rtasidagi munosabat.

Subyekt bilan predikat o'rtasidagi munosabat belgisiga ko'ra hukmlar quyidagilarga bo'linadi:

a) atributiv (lotincha: "xususiyat", "belgi"dan) – predmet belgisi haqidagi hukmlar. Ularda predmet bilan uning belgisi o'rtasidagi aloqa aks etadi, bunday aloqa tasdiqlanadi yoki inkor qilinadi. Atributiv hukmlar shuningdek qat'iy hukmlar, ya'ni aniq, shubhasiz hukmlar, deb ham ataladi. Atributiv hukmnинг mantiqiy chizmasi: S – P, bunda: S – hukm sub'ekti, P - predikat, "- – bog'lovchi. Masalan, "Advokat ayblanuvchi bilan uchrashdi".

Qat'iy hukmlar sifati va soni bo'yicha bo'linadi.

Sifatiga ko'ra tasdiq va inkor hukmlar farqlanadi. Tasdiqlovchi hukm predmetga qandaydir xususiyatning xosligini, inkor hukm esa – qandaydir xususiyatning yo'qligini ifodalaydi, ular bog'lovchi sifatiga ko'ra farqlanadi. Inkor predikatlari, lekin tasdiqlovchi bog'lovchi hukm tasdiqlovchi hukm sifatida ko'rib chiqiladi, masalan, "sudning ushbu qarori asossizdir".

Soniga ko'ra yakka, xususiy va umumiyluk hukmlar farqlanadi. Miqdoriy tavsiyfoma umumiylilik kvantori bilan ifodalanadi. Bir predmet haqidagi qandaydir narsa tasdiqlanadigan yoki rad qilinadigan hukm yakka hukm deyiladi. Masalan, "Bu bino – me'morchilik yodgorligi".

Ayrim sinfdagi predmetlarning bir qismi haqidagi qandaydir narsa: ayrim, ko'pgina, unchalik ko'p bo'lmagan, ko'pchilik, kamchilik, bir qismi so'zları yordamida tasdiqlanadigan yoki rad qilinadigan hukm xususiy hukm deyiladi. Masalan, "Jinoyatlarning bir qismi iqtisodiy jinoyatlarga tegishlidir".

Ayrim sinfdagi barcha predmetlar haqidagi qandaydir narsa: hammasi, hech kim, har qanday, har bir so'zları yordamida tasdiqlanadigan yoki rad qilinadigan hukm-umumiyluk hukm deyiladi. Masalan, "Hamma guvohlar ko'rsatmalar berishdi", "Majlisiga hech kim kelmadи". Ba'zan kvantor ko'rsatilmaydi va shunda u ma'noga ko'ra belgilanadi, masalan, "Loqaydlik tahqirlaydi";

b) predmetlar o'rtasidagi munosabatlar to'g'risida (munosabat hukm deb ataladigan). Bular tenglik, tengsizlik, makonga oid, zamonga oid, sababli-oqibatli va boshhqacha munosabatlar bo'lishi mumkin. Masalan: "A V ga teng", "Qozon Moskvadan sharq tomonda", "Semen Sergeyning otasi" va hokazo. Munosabatlari hukmlarning quyidagicha ramziy yozuvi qabul qilingan: xRy, bunda: x va y – munosabat a'zolari, ular predmetlar haqidagi tushunchalarini ifodalaydi; R – ular o'rtasidagi munosabat. Yozuv shunday o'qiladi: x R ga nisbatan y ga tomon joylashgan. Inkor hukm yozuvi: $\exists(xRy)$ (x ning R ga nisbatan y ga tomon joylashganligi to'g'ri emas).

v) hukm predmetining mavjudligi yoki mavjud emasligi faktini ifodalaydigan hukmlar majudlik hukmi deyiladi. Masalan, "Statistik qonunlar mavjuddir". Predmetning mavjudligi yoki mavjud emasligi haqidagi tushunchalar ushbu hukmlarning predikatlari bo'ladi.

22. Oddiy hukmlarning birlashgan tasnifi

Atributiv hukmlar miqdori va sifatga oid tavsifnomalarni birlashtirib, to'rt guruhga bo'linadi: umumiy tasdiq, umumiy inkor juz'iy tasdiq va juz'iy inkor hukmlari.

Umumiy tasdiq hukm – bu soniga ko'ra umumiy va sifatiga ko'ra tasdiq hukmdir. Masalan, "Har bir O'zbekiston fuqarosi mulkdor bo'lishga haqlidir". Bunday hukmnинг chizmasi – "Hamma S Pdir.", bunda "hammasi" degan kvantor so'zi hukmnинг sonini, "R dir" bog'lovchisi – uning sifatini tavsiflaydi.

Umumiy inkor hukmi – bu soni bo'yicha umumiy va sifati bo'yicha inkor hukmdir. Masalan, "Aybi bo'limgan hech bir shaxs jinoiy javobgarlikka tortilmasligi kerak". Bunday hukmnинг chizmasi – "Hech bir S P emas". "Hech bir" degan kvantor so'zi hukmnинг sonini, "bo'lmaydi" degan inkor bog'lovchi uning sifatini tavsiflaydi.

Juz'iy tasdiqlovchi hukmi – bu soni bo'yicha juz'iy va sifati bo'yicha tasdiq hukmidir. Masalan, "Sudning ayrim hukmlari ayblov hukmlari bo'ladi". Bunday hukmnинг chizmasi – "Ayrim S P dir". "Ayrim" degan kvantor so'zi hukmnинг sonini, "-dir" degan qo'shimcha bilan ifodalangan tasdiqlovchi bog'lovchi – uning sifatini ko'rsatadi.

Juz'iy inkor hukmi - bu soni bo'yicha juz'iy va sifati bo'yicha inkor hukmdir. Masalan, "Sudning ayrim hukmlari ayblov hukmlari bo'lmaydi". Bunday hukmnинг chizmasi – "Ayrim S P emas". "Ayrim" degan kvantor so'zi hukmnинг sonini, "emas" degan inkor bog'lovchi – uning sifatini ko'rsatadi.

Mantiqda hukmlarni ularning birlashgan tasnifi bo'yicha qisqacha ifodalash qabul qilingan: A – umumiy tasdiq hukmlari; I – juz'iy tasdiq hukmlari; E – umumiy inkor hukmlari; O – juz'iy inkor hukmlari.

Predikatlar mantig'i tilida ko'rib chiqilgan hukmlar quyidagi tarzda yoziladi:

- A – (Hamma S P dir);
- E – (hech bir S P emas);
- I – (ayrim S P dir);
- O – (ayrim S P emas).


23. Ajratuvchi va istisno etuvchi hukmlar

Hukmlar tasnifida ajratuvchi va istisno etuvchi hukmlar alohida o‘rin tutadi.


Ajratuvchi hukmlar predikat ifodalaydigan belgining faqat ushbu predmetga tegishli bo‘lib, boshqa hech bir predmetga tegishli bo‘lmasligi faktini aks ettiradi.

Ajratuvchi hukmlar yakka, xususiy va umumiy bo‘lishi mumkin. Masalan, “Faqat Zafar hodisaning guvohidir” – yakka ajratuvchi hukmdir). U Zafarning hodisaning yagona guvohi ekanligi haqidagi bilimni ifodalaydi. Ushbu hukmning subyekti va predikati bir xildagi hajmga ega bo‘ladi.


S va faqat S P dir



“Ayrim shaharlar – davlatlar poytaxtlaridir” – bu juz’iy ajratuvchi hukmga misol bo‘ladi (ayrim S va faqat S P dir). Faqat shaharlar va bunda ularning faqat bir qismi davlatlar poytaxtlari bo‘lishi mumkin. Juz’iy ajratuvchi hukmning predikati subyekt hajmiga kiradi.



“Barcha fuqarolar va faqat ular ma’suliyatlarini his etishlari kerak” – bu umumiy ajratuvchi hukmga misol bo‘ladi (barcha S va faqat S P dir). Umumiy ajratuvchi hukm subyekti va predikatining hajmlari bir-biriga to‘liq mos tushadi.



Ajratuvchi hukmlarni ifodalaydigan gaplar tarkibiga kiradigan “faqat”, “atigi” so‘zлari subyekt va predikat oldida kelishi mumkin (masalan, “Jinoiy jazo faqat sud hukmiga ko‘ra qo‘llaniladi”). Lekin ular umuman bo‘lmasligi ham mumkin. Bunday hollarda ushbu hukmning ajratuvchi hukm ekanligini aniqlash uchun mantiqiy tahlil yordam beradi.

Belgining predmetlarning bir qismidan tashqari hamma predmetlarga mansubligini (yoki mansub emasligini) aks ettiradigan hukm inkor etuvchi hukm deyiladi. Masalan, “Bizning guruhdagi Bo‘rievdan tashqari barcha talabalar imtihonlarni topshirdi”. Inkor etuvchi hukm “tashqari”, “mustasno”, “undan tashqari”, “hisobga olmaganda” va boshqa so‘zlar qo‘shilgan gaplar bilan ifodalanadi (S’ dan tashqari barcha S lar va P dir).

Ajratuvchi va inkor etuvchi hukmlarning shamiyati shundan iboratki, ushbu hukmlar shaklida ifodalangan qoidalar aniqligi bilan tavsiflanadi, bu ularning bir xilda tushunilmasligini istisno etadi.


24. Hukmlarda atamalarning taqsimlanishi

Hukmlarga ega mantiqiy operatsiyalarda uning atamalari – subyekt va predikatning taqsimlangan yoki taqsimlanmaganligini belgilash zarurati vujudga keladi. Agar atama to‘liq hajmda olingen bo‘lsa, unda u bo‘lingan, deb hisoblanadi. Agar atama hajmining bir qismi olingen bo‘lsa, unda u bo‘linmagan, deb hisoblanadi.


A, E, I, O hukmlarda atamalarning qanday taqsimlanganligini ko‘rib chiqamiz.

A (hamma S P dir) hukmi. “Bizning guruhdagi hamma talabalar (S) imtihonlarni topshirishdi (P)”. Ushbu hukmning subyekti (“bizning guruhdagi hamma talabalar”) bo‘lingan, chunki u to‘liq hajmda olingen: gap bizning guruhdagi hamma talabalar haqida borayapti. Ushbu hukmning predikati bo‘linmagan, chunki unda faqat bizning guruhdagi imtihonlarni topshirgan talabatarga mos keladigan shaxslarning bir qismi fikrlanadi.


Hukmda atamalarning taqsimlanganligini doiraviy chizmalar yordamida tasvirlash qabul qilingan.



Shunday qilib, umumiy tasdiqlovchi hukmlarda S bo‘lingan, P esa bo‘linmagan. Biroq subyekti va predikati bir xildagi hajmga ega bo‘lgan umumiy tasdiqlovchi hukmlarda nafaqat subyekt, shu bilan birga predikat ham bo‘lingandir. Masalan: “Odam – ongli mavjudotdir” hukmida S ham P ham bir hil hajmga ega, to‘liq hajmda olingen. Umumiy ajratuvchi hukmlar, shuningdek mutanosiblik qoidasiga bo‘ysunadigan ta’riflar ham shunday hukmlarga kiradi.




E (hech bir S P emas) hukmi. “Bizning guruhdagi hech bir talaba (S) o‘zlashtirmovchi bo‘lib hisoblanmaydi (P)”. Subyekt ham, predikat ham to‘liq hajmda olingen. Bir atamaning hajmi boshqa atamaning hajmidan to‘laligicha istisno etiladi: bizning guruhdagi hech bir talaba o‘zlashtirmovchilar qatoriga kirmaydi va hech bir o‘zlashtirmovchi bizning guruh talabasi bo‘lib hisoblanmaydi. Binobarin, umumiy inkor etuvchi hukmlarda S ham, P ham bo‘lingan.




I (ba'zi S P dir) hukmi. "Bizning guruhdagi ayrim talabalar (S) - a'lochilardir (P)". Ushbu hukm subyekti bo'linmagan, chunki unda bizning guruhdagi talabalarining faqat bir qismi fikrlanadi, subyekt hajmi faqat qisman predikat hajmiga kiradi: bizning guruhdagi faqat ayrim talabalar a'lochilar qatoriga kiradi. Lekin predikat hajmi ham subyekt hajmiga faqat qisman kiradi: hammasi emas, faqat ayrim a'lochilar - bizning guruh talabalaridir.


Binobarin, umumiy tasdiqlovchi hukmda S ham, P ham bo'linmagan.



Predikati subyekt hajmiga to'liq kiradigan juz'iy ajratuvchi hukmlar ushbu qoidadan mustasnodir. Masalan, "Ayrim ota-onalar va faqat ular (S) ko'p bolali ota-onalardir (P)". Bu yerda "ko'p bolali" tushunchasi to'laligicha "ota-onalar" tushunchasi hajmiga kiradi. Bunday hukmnning subyekti bo'linmagan, predikati esa bo'lingan.



O hukmi (ayrim S P emas). "Bizning guruhdagi ayrim talabalar (S) – a'lochilar emas (P). Ushbu hukmnning subyekti bo'linmagan (bizning guruh talabalarining faqat bir qismi fikrlanadi), predikat bo'lingan, unda subyektdagi bizning guruh talabalarining fikrlanadigan qismiga bittasi ham kirmaydigan jami a'lochilar fikrlanadi. Binobarin, juz'iy inkor etuvchi hukmda S bo'linmagan, P esa bo'lingan.



Atamalarning taqsimlanganligi chizmasini keltiramiz:
 Umumiy tasdiq hukmda - S bo'lingan, P esa bo'linmagan.
 Umumiy inkor hukmda - S bo'lingan va P ham bo'lingan.
 Juz'iy tasdiq hukmda - S bo'linmagan va P ham bo'linmagan.

Juz'iy inkor hukmda - S bo'linmagan, P esa bo'lingan.

25. Murakkab hukmlar

Bir necha oddiy, mantiqiy bog'lovchilar bilan bog'langan hukmlardan iborat hukm murakkab hukm deyiladi. Murakkab hukmlarning quyidagi turlari farqlanadi: 1) birlashtiruvchi, 2) ajratuvchi, 3) shartli, 4) ekvivalent. Ushbu murakkab hukmlarning chinligi ularni tashkil etadigan oddiy hukmlaming chinligi bilan belgilanadi.

Birlashtiruvchi (kon'yunktiv) hukmlar

Bir necha oddiy "va" mantiqiy bog'lovchisi bilan bog'langan hukmlardan iborat hukm birlashtiruvchi yoki konyunktiv hukm deyiladi. Masalan, "O'g'irlik va tovlamachilik qasddan qilingan jinoyatlarga kiradi" degan hukm ikkita oddiy hukmlar: "O'g'irlik qasddan qilingan jinoyatlarga kiradi", "Tovlamachilik qasddan qilingan jinoyatlarga kiradi" degan hukmlardan tashkil topgan biriktiruvchi hukmdir. Agar ularning birinchisini p bilan, ikkinchisini - q bilan ifodalasak, unda biriktiruvchi hukmni ramziy tarzda p ^ q sifatida ifodalash mumkinki, bunda: p va q - konyunksiya a'zolari (yoki konyunktlar), esa - konyunksiya ramzidir.

Tabiiy tilda kon'yunktiv bog'lovchi "esa", "lekin", "shuningdek", "kabi", "garchi", "biroq", "-ga qaramasdan" kabi va boshqa ifodalar bilan ham taqdim qilinishi mumkin. Masalan, "Sud tomonidan qoplanishi lozim bo'lgan zarar miqdorlari belgilanishida nafaqat yetkazilgan zararlar (r), shu bilan birga zararlarning yetkazilishida mavjud bo'lgan aniq vaziyat (q), shuningdek xodimnin moddiy ahvoli (r) ham hisobga olinishi kerak". Ushbu hukmni ramziy tarzda shunday ifodalash mumkin: p ^ q ^ r.

Birlashtiruvchi hukm uchta tuzilmaning bittasi bilan ifodalanishi mumkin.

Ikkita subyekt va bitta predikat (S_1 va S_2 R dir). Masalan, "Mol-mulkning musodara qilinishi va unvonlarning bekor qilinishi qo'shimcha jinoiy-huquqiy sanksiyalar hisoblanadi".

Bitta subyekt va ikkita predikat (S R₁ va R₂ dir). Masalan, "Jinoyat - bu ijtimoiy xavfli va huquqqa zid qilmishdir".

Ikkita subyekt va ikkita predikat (S_1 va S_2 R₁ va P₂ dir). Masalan, "Insonning asosiy huquqlari va erkinliklari begonalashtirilmaydi va ular har bir kishiga tug'ilgan vaqtidan boshlab tegishli bo'ladi".

Birlashtiruvchi hukmnинг chinligi uning tarkibiga kiradigan oddiy hukmlarning chinligi bilan belgilanadi. Birlashtiruvchi hukm faqat uni tashkil etuvchi oddiy hukmlar chin bo'lganida chin bo'lib hisoblanadi. Agar mabodo birgina oddiy hukm xato bo'lsa, unda umuman konyunksiya ham xato bo'ladi.

26. Murakkab ajratuvchi (diz'yunktiv) hukmlar

Bir necha oddiy yoki mantiqiy bog'lovchisi bilan bog'langan hukmlardan iborat bo'lgan hukm ajratuvchi ki diz'yunktiv hukm deyiladi. Masalan, "Oldi-sotdi shartnomasi og'zaki yoki yozma shaklda tuzilishi mumkin" degan hukm ikkita oddiy hukmlar: "Oldi-sotdi shartnomasi og'zaki shaklda tuzilishi mumkin"; "Oldi-sotdi shartnomasi yozma shaklda tuzilishi mumkin" degan hukmlardan tashkil topgan ajratuvchi hukm hisoblanadi. Agar birinchisini r bilan, ikkinchisini esa - q bilan

ifodalaydigan bo'lsak, unda ajratuvchi hukmnı ramziy tarzda p v q sıfatida ifodalash mumkin, bunda: p va q - diz'yunksiya a'zolari (diz'yunktlar), v - diz'yunksiya ramzidir.

Ajratuvchi hukm ikki va ko'p tarkibli bo'lishi mumkin: p v q ... v n.

Tilda ajratuvchi hukm uchta mantiqiy-grammatik tuzilmalarning bittasi bilan ifodalanishi mumkin.

Ikkita subyekt va bitta predikat (S_1 yoki S_2 R dir). Masalan, "Yirik miqdordagi o'g'rilik yoki shaxslar guruhi tomonidan sodir etilgan o'g'irlik katta ijtimoiy xavf tug'diradi".

Bitta subyekt va ikkita predikat (S R₁ va R₂ dir). Masalan, "O'g'rilik axloq tuzatish ishlari yoki qamoq jazosi bilan jazolanadi".

Ikkita subyekt va ikkita predikat (S_1 va S_2 R₁ yoki P₂ dir). Masalan, "Surgun yoki badarg'a qilish asosiy yoki qo'shimcha sanksiya sıfatida qo'llanilishi mumkin".

Diz'yunksiyaning quy'idagi turlari farqlanadi.

Qat'iy bo'l'magan va qat'iy diz'yunksiya

"Yoki" bog'lamasi tabiiy tilda ikki ma'noda - biriktiruvchi-ajratuvchi va inkor etuvchi-ajratuvchi ma'nolarda ishlatilishi sababli ajratuvchi hukmlarning ikki tipini farqlash kerak bo'ladi: 1) (kuchsiz) diz'yunksiya va 2) qat'iy (kuchli) diz'yunksiya.

Kuchsiz diz'yunksiya - bu "yoki" bog'lamasi biriktiruvchi-ajratuvchi ma'noda ishlatiladigan hukmdir (v ramzi). Masalan: "Tig'li qurol sanchadigan yoki kesadigan bo'lishi mumkin" - ramziy tarzda p v q. Bu holda "yoki" bog'lamasi ajratadi, chunki qurolning bunday turlari alohida holida mavjud bo'ladi va biriktiradi, chunki ayni bir vaqtida ham sanchiladigan, ham kesadigan qurol ham mavjud.

Qat'iy bo'l'magan diz'yunksiya a'zolarining juda bo'l'maganda bittasi chin bo'lsa va agar uning ikkita a'zosi ham xato bo'lsa, xato bo'ladi.

Qat'iy diz'yunksiya - bu "yoki" bog'lamasi ajratuvchi ma'noda ishlatiladigan hukmdir (ramzi - ikkilangan diz'yunksiya). Masalan: "Qilmish qasddan qilingan yoki ehtiyoitsizlik bilan sodir etilgan bo'lishi mumkin", ramziy tarzda p v q.

Qat'iy diz'yunksiyaning alternativalar deb ataladigan a'zolari ayni bir vaqtida chin bo'lishi mumkin emas. Agar qilmish qasddan sodir etilgan bo'lsa, unda uni ehtiyoitsizlik bilan sodir etilgan, deb bo'lmaydi va aksincha, ehtiyoitsizlik bilan sodir etilgan qilmishni qasddan sodir etilgan qilmishlar qatoriga kiritib bo'lmaydi.

Qat'iy diz'yunksiya bir a'zo chin bo'lib, boshqa a'zo xato bo'lganida chin bo'ladi; agar har ikkala a'zo ham chin yoki ikkalasi ham xato bo'lsa, u xato bo'ladi. Shunday qilib, bir alternativa chin bo'lganida qat'iy diz'yunksiya hukmi chin bo'lib, alternativalarning ikkalasi ham ayni bir paytda xato yoki chin bo'lganida bunday hukm xato bo'ladi.

Tildagi ajratuvchi bog'lovchi odatda "yoki", "yoxud" bog'lovchilar yordamida ifodalanadi. Diz'yunksiyanı alternativali ahamiyatgacha kuchaytirish maqsadida ko'pincha qo'shaloq bog'lovchilar ishlatiladi: "p yoki q" iborasining o'rniga "yoki p, yoki q" qo'llaniladi, "p yoxud q" ning o'miga - "yo p, yo q" ishlatiladi. Grammatikada qat'iy bo'lgan va qat'iy ajratish uchun bir ma'noli bog'lovchilar yo'qligi sababli ba'zi matnlarda diz'yunksiyaning tipi haqidagi masala tegishli hukmlarning mazmunli tahlili bilan hal qilinishi lozim.

To'liq va noto'liq diz'yunksiya

Barcha belgilar yoki muayyan jinsdagi barcha turlar sanab o'tilgan diz'yunktiv hukm to'liq yoki yopiq hukm deyiladi.

Ushbu hukmni ramziy ravishda shu tarzda yozish mumkin: $p \vee q \vee r$. Masalan: "O'rmonlarda yaproqli, ignabargli yoki aralash daraxtlar o'sadi". Ushbu ajratishning to'liqligi (ramziy yozuvda: \dots belgisi bilan ifodalanadi) ko'rsatib o'tilganlaridan tashqari, boshqa o'rmon turlari bo'lmastigi bilan belgilanadi.

Barcha belgilar yoki muayyan jinsdagi barcha turlar sanab o'tilmagan diz'yunktiv hukm noto'liq yoki ochiq hukm deyiladi. Diz'yunksiyaning noto'liqligi ramziy yozuvda ko'p nuqtalar bilan ifodalanishi mumkin: $p \vee q \vee r \vee \dots$ Tabiiy tilda diz'yunksiyaning noto'liqligi quyidagi kabi so'zlar bilan ifodalanadi: "va sh.k.", "va b.", "va shu kabilar", "boshqalar" va hokazo.

27. Shartli (implikativ) hukmlar

Ikkita oddiy, "agar.., unda.." mantiqiy bog'lovchisi bilan bog'langan hukmlardan iborat bo'lgan hukm shartli yoki implikativ hukm deyiladi. Masalan: "Agar sim tokka ulanmasa, unda elektr chirog'i o'chadi". Birinchi hukm - "sim tokka ulanmasa" antetsedent (shundan oldingi), ikkinchisi - "Elektr chirog'i o'chadi" - konsekvent (keyingi) deyiladi. Agar antetsedentni p , konsekventni - q , "agar.., unda.." bog'lamasini " \rightarrow " belgisi bilan ifodalasak, unda implikativ hukmni ramziy tarzda ($p \rightarrow q$) tarzida ifodalash mumkin.

Implikatsiya barcha hollarda chin bo'ladi-yu, bundan faqat bir hol mustasno: antetsedent chin bo'lib va konsekvent xato bo'lganida implikatsiya har doim xato bo'ladi. Chin antetsedent, masalan, "Sim tokka ulanmasa", va xato konsekvent - "Elektr chirog'i o'chmaydi" - ning birgalikda qo'shilib kelishi implikatsiyaning xatoligi ko'rsatkichidir.

Tabiiy tilda shartli hukmlarni ifodalash uchun nafaqat "agar.., unda.." bog'lovchisi, shu bilan birga boshqa bog'lovchilar: "o'sha... joyda", "shunday... bo'lganida", "chunki..." va shu kabilar ishlataladi. Tilda shartli hukmlar shaklida ob'ektiv aloqalarning sadabli, funktsional, makonga oid, zamonga oid, huquqiy, shuningdek semantik, mantiqiy va boshqa bog'liqliklar kabi turlari taqdim etiladi. Ba'zi matnlarda shartli hukmlar shaklida ko'pincha huquqiy ko'rsatmalar: ruxsatnomalar, ta'qiqashlar, majbuflashlar qayd qilinadi. "Agar.., unda.." bog'lovchisidan tashqari yana "... mavjud bo'lganida, ... kerak bo'ladi", "... bo'lgani holda, ... kerak", "... bo'lganida, ... yuz beradi" va boshqa so'z birikmalari implikatsiyaning grammatik ko'rsatkichlari bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shu bilan birga implikatsiyalar qonunda va boshqa matnlarda alohida grammatik ko'rsatkichlarsiz ham qurilishi mumkin. Masalan: "O'zganing mulkini o'g'irlash ... bilan jazolanadi" yoki "Jinoyat sodir etilgani haqidagi oldindan ma'lum bo'lgan yolg'on chaquv ... bilan jazolanadi" va hokazo. Ushbu ko'rsatmalarning har biri: "Agar muayyan huquqqa zid qilmish sodir etilgan bo'lsa, unda buning uchun huquqiy sanksiya qabul qilinadi" degan implikativ formulaga egadir.

28. Ekvivalentli hukmlar (ikkilangan implikatsiya)

"Agar va faqat agar..., unda..." degan mantiqiy bog'lovchi bilan ifodalanadigan ikkilangan (bevosita va teskari) shartli bog'liqlik bilan bog'langan ikkita hukmni

tarkibiy qismlar sifatida o'z ichiga oladigan hukm ekvivalentli hukm deyiladi. Masalan: "Agar va faqat agar kishi ordenlar va medallar bilan taqdirlangan bo'lsa (r), unda u tegishli orden plankalarini taqib yurish huquqiga egadir (q)".

Ushbu hukmnинг мantiqiy tafsifnomasi shundan iboratki, mukofotlanish haqidagi tasdiqning chinligi (r) orden plankalarini taqib yurish huquqining mavjudligi tasdig'i chinligining (q) zaruriy va yetarli sharti sifatida ko'rib chiqiladi. Xuddi shunga o'xshab, orden plankalarini taqib yurish huquqining mavjudligi tasdig'ining chinligi (q) ushbu shaxsnинг tegishli orden va medal' bilan taqdirlanganligi haqidagi tasdiqning (r) zaruriy va yetarli sharti bo'ladi. Bunday har ikkala bog'liqlikni ikkilangan implikatsiya: $r \leftrightarrow q$ bilan ramziy ifodalash mumkin, u shunday o'qiladi: "Agar va faqat agar r, unda q". Ekvivalentlilik boshqacha belgi: $r \equiv q$ bilan ham ifodalanadi.

Tabiiy tilda, shu jumladan, ba'zi matnlarda ekvivalentli hukmlarni ifodalash uchun shunday bog'lovchilar ishlataladi: "faqat ... sharti bilan, ... bo'ladi", "faqat ... bo'lganida, ... bo'lishi mumkin", "faqat ... bo'lsa, unda..." va hokazo.

$r \equiv q$ hukmi har ikkala hukm ayni bir vaqtda chin, yo xato bo'la turib, bir xildagi ma'noni qabul qilganida chin bo'ladi. Bu shuni bildiradiki, r ning chinligi q ni ham chin deb e'tirof etish uchun yetarlidir va aksincha. Ular o'rtasidagi munosabat zaruriy munosabat sifatida ham tavsiflanadi, r ning xatoligi q ning xatoligining ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi, q ning xatoligi esa r ning ham xatoligini ko'rsatadi.


29. Oddiy hukmlar o'rtasidagi mantiqiy munosabatlar

Hukmlarning ma'nosi va mantiqiy ahamiyatlariga (chinligi va xatoligiga) ko'ra o'xshashligi ular o'rtasidagi munosabatlarning asosini tashkil etadi. Ana shunday munosabat sababli har qanday hukmlar o'rtasida emas, balki faqat qiyoslanadigan, ya'ni umumiyligi ma'noga ega bo'lgan hukmlar o'rtasida munosabatlar o'rnatiladi.

Turli subyektlar yoki predikatlarga ega hukmlar qiyoslanmaydigan hukmlar bo'ladi. Masalan, ikkita hukm: "Fazogirlar orasida uchuvchilar ham bor", "O'qituvchilar orasida ayollar ham bor" hukmlari shunday hukmlardir.

Bir xildagi subyektlar va predikatlarga ega va bog'lovchisi yoki kvantor bilan farqlanadigan hukmlar qiyoslanadigan hukmlar deyiladi. Masalan: "Barcha amerikalik hindular rezervatsiyalarda yashashadi"; "Amerikalik hindularning ayrimlari rezervatsiyalarda yashamaydi".

Oddiy hukmlar o'rtasidagi munosabatlar odatda mantiqiy kvadrat deb ataladigan chizma yordamida ko'rib chiqiladi. Uning cho'qqilari oddiy qat'iy hukmlar - A, E, I, O ni; tomonlari va diagonallari - hukmlar o'rtasidagi munosabatlarni ramziy ifodalaydi.



Qiyoslanadigan hukmlar orasida bir-biriga mos keladigan va mos kelmaydigan hukmlar farqlanadi.

Ayni bir vaqtida chin bo'lgan hukmlar bir-biriga mos keladigan hukmlar deyiladi. Bir-biriga moslikning uch turi: ekvivalentlilik (to'la moslik), qisman moslik (subkontralik) va bo'ysunganlik farqlanadi.

1. Bir xildagi mantiqiy tavsifnomalar: bir xildagi subyektlar va predikatlarga, bir tipdag'i - tasdiqlovchi yoki inkor etuvchi - bog'lovchiga, kvantor bilan ifodalangan bir xildagi miqdoriy tavsifnomaga ega hukmlar ekvivalentli hukmlar bo'ladi. Oddiy ekvivalentli hukmlar o'tasidagi munosabatlar mantiqiy kvadrat yordamida tasvirlanmaydi.

2. Qisman moslik ayni bir vaqtida chin bo'lib, lekin ayni bir vaqtida xato bo'la olmaydigan I va O hukmlari uchun xosdir.

Ularning biri xato bo'lganida boshqasi chin bo'ladi: $\neg I \rightarrow O, \neg O \rightarrow I$. Masalan, "Ayrim o'tlar zaharli bo'ladi" hukmi xato bo'lganida "Ayrim o'tlar zaharli bo'lmaydi" hukmi haqiqiy bo'ladi. Ayni bir paytda juz'iy hukmlardan biri haqiqiy bo'lganida boshqasi yo, yo yolg'on bo'lishi mumkin: $I \rightarrow (O \vee \neg O); O \rightarrow (I \vee \neg I)$.

3. Bo'ysunganlik A va I, E va O hukmlari o'tasida mavjud bo'ladi.

Umumiy hukm chin bo'lganida juz'iy hukm ham har doim chin bo'ladi: $A \rightarrow I, E \rightarrow O$. Masalan, "Har qanday huquqiy munosabat huquq normalari bilan tartibga solinadi" degan umumiy hukm chin bo'lganida - "Ayrim huquqiy munosabatlar huquq normalari bilan tartibga solinadi" degan xususiy hukm ham haqiqat bo'ladi. "Hech bir kooperativ davlat tashkilotlari qatoriga kirmaydi" hukmi chin bo'lganida "Ayrim kooperativlar davlat tashkilotlari qatoriga kirmaydi" hukmi ham chin bo'ladi.

Xususiy hukm xato bo'lganida umumiy hukm ham xato bo'ladi: $\neg I \rightarrow A; \neg O \rightarrow \neg E$.

Bo'ysunganlik holatida quyidagi bog'liqliklar noaniq bo'lib qoladi: umumiy hukm yolg'on bo'lganida unga bo'ysungan juz'iy hukm chin yoki xato bo'lishi mumkin: $\neg A \rightarrow (I \vee \neg I); \neg E \rightarrow (O \vee \neg O);$ bo'ysungan juz'iy hukm chin bo'lganida umumiy hukm haqiqiy yoki xato bo'lishi mumkin: $I \rightarrow (A \vee \neg A); O \rightarrow (E \vee \neg E)$.

Ayni bir vaqtida chin bo'lishi mumkin bo'lmasagan A va E, A va O, E va I hukmlari bir-biriga mos kelmaydigan hukmlardir. Mos kelmaslikning ikki turi: qarama-qarshilik va ziddiyat farqlanadi.

1. Ayni bir vaqtida chin bo'lmaydigan, lekin ayni bir vaqtida xato bo'lishi mumkin bo'lgan A va E hukmlari qarama-qarshi (kontrar) hukmlardir.

Qarama-qarshi hukmlardan birining chinligi boshqasining xatoligini belgilaydi: $A \rightarrow \neg E; E \rightarrow \neg A$. Masalan, "Hamma zabitlar - harbiy xizmatchilardir" degan hukmning chinligi "Hech bir zabit harbiy xizmatchi emas" degan hukmning xatoligini belgilaydi. Qarama-qarshi hukmlardan biri xato bo'lganida boshqasi noaniq bo'lib qoladi - u yo chin, yo xato bo'lishi ham mumkin: $\neg A \rightarrow (E \vee \neg E); \neg E \rightarrow (A \vee \neg A)$.

2. Ayni bir vaqtida chin ham, xato ham bo'lmaydigan A va O, E va I hukmlari zid keladigan (kontradiktor) hukmlar deyiladi.

Ziddiyat uchun qat'iy yoki alternativ mos kelmaslik xosdir: hukmlardan biri chin bo'lganida boshqasi har doim xato bo'ladi; birinchisi xatobo'lganida ikkinchisi chin bo'ladi. Bunday hukmlar o'tasidagi munosabatlar uchinchisi mustasno qonuni bilan tartibga solinadi.

Agar A chin deb e'tirof etilsa, unda O xato bo'ladi: ($A \rightarrow \neg O$); E chin bo'lganida I xato bo'ladi: ($E \rightarrow \neg I$). Va aksincha: A xato bo'lganida O chin bo'ladi: $O (\neg A \rightarrow O); E$ xato bo'lganida esa I chin bo'ladi: ($\neg E \rightarrow I$).

30. Murakkab hukmlar o'tasidagi mantiqiy munosabatlar

Murakkab hukmlar qiyoslanadigan va qiyoslanmaydigan bo'lishi mumkin.

Qiyoslanmaydigan hukmlar - bu umumiyo proporsional o'zgaruvchan belgilariiga ega bo'lgan hukmlardir. Masalan, $p \wedge q \equiv m \wedge n$.

Qiyoslanadigan hukmlar - bu bir xildagi propozitsion o'zgaruvchan belgilarga (tarkibiy qismlarga) ega bo'lgan va mantiqiy bog'lovchilar, shu jumladan inkor bilan farqlanadigan hukmlardir. Masalan, ikkita hukm: "Norvegiya yoki Shvetsiya Boltiq dengiziga chiqish joyiga ega" ($p \vee q$); "Na Norvegiya, na Shvetsiya Boltiq dengiziga chiqish joyiga ega emas" ($\neg p \wedge \neg q$) hukmlari qiyoslanadigan hukmlardir.

Murakkab qiyoslanadigan hukmlar bir-biriga mos keladigan va mos kelmaydigan bo'lishi mumkin.

Ayni bir vaqtida chin bo'lishi mumkin bo'lgan, qiyoslanadigan hukmlar bir-biriga mos keladigan hukmlar hisoblanadi. Murakkab hukmlarning bir-biriga mos kelishining uch turi: ekvivalentlik, qisman mos kelishlik va bo'ysunganlik farqlanadi.

1. Ekvivalent hukmlar - bu ayni bir xildagi ma'noni qabul qiladigan, ya'ni ayni bir vaqtida yo chin, yo xato bo'lib hisoblanadigan hukmlardir.

Ekvivalentlik munosabati ayrim murakkab hukmlarni boshqa hukmlar orqali - konyunksiyani diz'yunksiya yoki implikatsiya orqali ifodalashga imkon beradi va aksincha.

1. Konyunksiyaning diz'yunksiya orqali ifodalanishi:

$$\neg(A \wedge V) = \neg A \vee \neg B.$$

2. Diz'yunksiyaning konyunksiya orqali ifodalanishi:

$$\neg(A \vee V) = \neg A \wedge \neg B.$$

3. Implikatsiyaning konyunksiya orqali ifodalanishi:

$$\neg A \rightarrow V [(A \wedge \neg B)].$$

4. Implikatsiyaning diz'yunksiya orqali ifodalanishi:

$$A \rightarrow V = \neg A \vee B].$$

2. Qisman bir-biriga mos kelishlik ayni bir vaqtida chin bo'lib, lekin ayni bir vaqtida xato bo'lmaydigan hukmlar uchun xosdir.

3. Hukmlar o'tasidagi bo'ysunganlik bo'ysundiruvchi chin bo'lib, bo'ysunuvchi ham har doim chin bo'ladigan holda yuz beradi.

Bo'ysuntituvchi hukmning chinligi bo'yicha bo'ysunuvchining chinligini belgilashga imkon beradigan mantiqiy bo'ysunish munosabati mantiq fanida fundamental bo'lib hisoblanadigan va mulohazalarning hamma turlarini tartibga soladigan mantiqiy ergashish tushunchasining negizini tashkil etadi.

Ayni bir vaqtida chin bo'lmaydigan hukmlar bir-biriga mos kelmaydigan hukmlar deyiladi. Bir-biriga mos kelmaslikning ikki turidan biri - qarama-qarshilik, boshqasi - ziddiyatdir.

1. Qarama-qarshilik - bu ayni bir vaqtida haqiqiy bo'lmaydigan, lekin ayni bir vaqtida xato bo'lishi mumkin bo'lgan hukmlar o'tasidagi munosabat bo'sib, qarama-qarshi hukmlardan biri chin bo'lsa, unda boshqasining ma'nosini belgilash mumkin emas: u yo chin, yo xato bo'lishi mumkin.

2. Ziddiyat - bu ayni bir vaqtida na chin, na xato bo'lmaydigan hukmlar o'tasidagi munosabatdir. Ulardan biri chin bo'lsa, unda boshqasi xato bo'ladi, birinchisi xato bo'lganida ikkinchisi chin bo'ladi.

Boshlang'ich hukinga zid bo'lgan murakkab hukmni olish uchun boshlang'ich hukmni inkor qilish kerak. Masalan, p uchun $\neg p$ zid bo'ladi; $p \wedge q$ konyunksiyasi uchun uning inkori - $\neg(p \wedge q)$ zid bo'ladi.

31. Hukmlarning modalligi. Epistemik modallik

Tafakkur shakli sifatidagi hukm ikki xildagi axborotni - asosiy va qo'shimcha axborotni o'z ichiga oladi. Asosiy axborot hukmning subyekti va predikatida, mantiqiy bog'lovchi va kvantorlarda o'zining yaqqol ifodasini topadi. Qo'shimcha axborot hukmning mantiqiy yoki faktik maqomiga, uning baholovchi va boshqa tavsifnomalariga tegishli bo'ladi. Bunday axborot hukmning modalligi deyiladi. U alohida so'zlar bilan ifodalanishi, shuningdek o'zining yaqqol ifodasiga ega bo'imasligi ham mumkin. Bunday holda u kontekstning tahlili orqali aniqlanadi.

Modallik - bu hukrindagi uning asoslligini darajasi, mantiqiy yoki faktik maqomi, uning tartibga soluvchi, baholovchi va boshqa tavsifnomalari haqidagi yaqqol yoki noaniq ifodalangan qo'shimcha axborotdir.

Epistemik (grekchadagi: epistema - ishonchli bilimning oliy tipi so'zidan olingan) modallik - bu hukmda ifodalangan uning qabul qilinishi asoslari va uning asoslligini darajasi haqidagi axborotdir. Ishonch va bilim shunday asoslarga kiradi.

Epistemik maqomiga ko'ra ishonch - bu o'zga, chin yoki xato, ilg'or yoki reaksiyon fikrlarning tabiiy ravishda, tanqidsiz qabul qilinishidir.

Mantiqiy asos sifatidagi bilim - bu qabul qilinadigan hukmning mantiqiy jihatdan oqibat tusini olishiga asos bo'ladigan boshqa hukmlarning asoslanganligi tufayli chin yoki xato hukm sifatida qabul qilinishidir.

Asoslanganligi darajasiga ko'ra bilimlar orasida hukmlarning ikkita kesishmaydigan sinfi: ishonchli va ehtimolli hukmlar farqlanadi.

1) Ishonchli hukmlar - bu yetarli darajada asosiangan chin yoki xato hukmlardir. Ularning chinligi yoki xatoligi bevosita tekshirish yo'li bilan yoki bilvosita, hukmni empirik yoki nazariy qoidalar bilan tasdiqlash orqali belgilanadi.

Ishonchlilik hukmnинг xuddi chin va xato tushunchalari kabi bosqichlari bo'yicha o'zgarmaydigan modal tavsifnomasiga tegishlidir. Ikkita fikr haqida ularning bittasi boshqasiga nisbatan "ancha ishonchliroq" deb bo'lmaydi. Hukm yetarli darajada asosli bo'lganida uni isbotlangan, shu bilan ishonchli, ya'ni bosqichlari bo'yicha o'zgarishlarsiz chin yoki xato deb hisoblanadi.

2) Ehtimolli hukmlar - bu ularning yetarli darajada asosli emasligi sababli ishonchli deb bo'lmaydigan hukmlardir. Bunday hukmlarning chinligi yoki xatoligi aniqlanmaganligi sababli ular faqat shunday deb e'tirof etishga da'vogar bo'ladi. ularning nomlari: muammoli, haqiqatga yaqin yoki ehtimol bo'lgan hukm degan nomlari ham shundan kelib chiqadi.

Tabiiy tilda odatda oddiy so'zlar: aftidan, ehtimol, taxminimizcha, bo'lishi mumkin, gipoteza qilish mumkin kabi va boshqa so'zlar hukmnинг muammoligi ko'rsatkichlari bo'lib xizmat qiladi.

Sud tadqiqotida tergov qilinayotgan ishlarning holatlari haqidagi taxminiy fikrlar (gipotezalar) ehtimolli hukmlar shaklida quriladi. Haqiqatga yaqin hukmlar asosliligi sababli tergovni to'g'ri yo'nalishga yo'naltiradi va har bir ish bo'yicha ishonchli natijalarni aniqlashga ko'maklashadi.

Ehtimolli hukmlarning asoslanganligi ehtimollik nazariyasi atamalarida taqdirm etiladi. Bunday holda hukmnинг mantiqiy ehtimolligi uning asoslanganlik darajasini anglatadi.

Hukmnинг obyektiv mantiqiy tavsifnomasi sifatidagi asoslanganlikni insonning fikr-mulohazaga nisbatan subyektiv-psixologik munosabatini, uning tegishli hukmni qabul qilish yoki rad qilishga tayyorligini ifodalaydigan ishonchlilik tushunchasidan farqlash lozim. Masalan, "Mening ishonchim komilki, jinoyatni X sodir qilgan"; "Mening fikrimcha, ayblanuvchi jinoyat holatlarini to'g'ri bayon qilmayapti", deyilganida, odatda, fikr mazmuniga nisbatan subyektiv munosabatni - unda tavsiflangan axborotni qabul qilish yoki rad qilishga nisbatan moyillik ifodalananadi.

32. Deontik modallik

Deontik (grekchadan - majburiyat) modallik - bu hukmda ifodalangan, kimnidir aniq harakatlar qilishga undaydigan iltimos, maslahat, buyruq yoki ko'rsatmadir.

Ko'rsatmalar orasidan huquq normalarini ham o'z ichiga oladigan normativ ko'rsatmalarni ajratib ko'rsatish lozim.

Huquq normalari ichida quyidagilar farqlanadi: 1) huquqni yuklaydigan, 2) huquqni taqiqlaydigan va 3) huquqni taqdim etadigan normalar.

1) Huquqni yuklaydigan normalar: "shart", "kerak", "bajarish lozim", "e'tirof etilgani" kabi va boshqa so'zlar yordamida shakllantiriladi. Masalan, protsessual talablardan birida shunday deyiladi: "Jinoyat ishlari bo'yicha suddan oldingi tergov ikki oylik muddat ichida tugallanishi kerak". Fuqarolik huquqidан misol: "Tashkilot

uning xodimlari o‘zlarining mehnat (xizmat) vazifalarini ijro etishida ular aybi bilan yetka zilgan zararni qoplashi shart”.

Grammatik jihatdan huquqning yuklanishi tasdiq shaklida ham ifodalanishi mumkin, masalan: “Prokuror jinoi yishni qo‘zg‘atishning qonuniyligi ustidan nazoratni amalgaga oshiradi”. Bu holda prokuorning nazoratni amalgaga oshirishga doir vazifasi nazarda tutilmoxda. Xuddi shunga o‘xshab: “Hukm O‘zbekiston Respublikasi nomidan chiqariladi” degan ko‘rsatmani - faktning tasdiqlanishi emas, balki muqarrarlik va vazifa sifatida tushunish kerak bo‘ladi.

2) Huquqni taqiqlaydigan normalar: taqiqlanadi, haqli emas, mumkin emas, yo‘l qo‘yilmaydi kabi va boshqa so‘zlar yordamida shakllantiriladi. Masalan: “Ayblanuvchidan ko‘rsatmalarni zo‘ravonlik, tahdid-po‘pisa va boshqacha noqonuniy choralarmi ko‘rish yo‘li bilan qo‘yarda-qo‘ymay talab qilib olish taqiqlanadi”. Jinoyat ishlarining ko‘rib chiqilishi amaliyoti shuni nazarda tutadi: “Hech kim sudning qarorisiz yoki prokuorning sanksiyasisiz hibsga olinishi mumkin emas”.

3) Huquqni taqdim etadigan normalar: huquqiga ega, ega bo‘lishi mumkin, qo‘llashi mumkin kabi va boshqa so‘zlar yordamida shakllantiriladi.

Masalan: “Turar joy xonasini yollovchi har qanday vaqtida shartnomani bekor qilishga haqlidir”. Boshqa bir normada shunday deyiladi: “Buyumlarini saqlash uchun topshirgan shaxs har qanday vaqtida ularni qaytarib olishni talab qilishga haqlidir”. Jinoiy-huquqiy normada shunday deyiladi: “Ishda manfaatdor bo‘limgan har qanday fuqarolar xolis guvoh sifatida chaqirilishi mumkin” va hokazo.

Majburiyat va taqiqlash bir-biri orqali ham ifodalanishi mumkin: muayyan bir harakatni bajarish majburiyati uning bajarilishini taqiqlashga ekvivalentlidir.

Oqilona qurilgan normativ-huquqiy tizim eng kam modal deontik talablar: 1) qarama-qarshi bo‘imaslik; 2) balanslilik; 3) to‘liqlik talablarini qondirishi kerak.

33. Aletik (chin) modallik

Aletik (grekcha - haqiqiy so‘zidan olingan) modallik - bu hukmda zaruriylik-tasodifiylik yoki mumkinlik-mumkin emaslik atamalarida hukmning mantiqiy yoki faktik determinatsiyalashganligi (o‘zaro bog‘liqligi) haqidagi axborotdir.

Biz ish olib boradigan hukmlar o‘z-o‘zidan emas, balki muayyan asoslar tufayli mantiqiy ahamiyatga ega, ya‘ni chin yoki xato hukmlar sifatida qabul qilinadi. Yo hukmlarning o‘zining tuzilmaviy-mantiqiy tavsifnomalari, yoki ularning real voqelevkiy ishlarning amalidagi holati bilan o‘zaro nisbatl hukmlarni qabul qilish bilan bog‘liq asoslar bo‘ladi. Hukmlarning o‘zaro bog‘liqligi yoki determinatsiyalashganligining ikki usuli modalliklarning tegishli tiplarini oldindan belgilab beradi.

Mantiqiy modallik - bu chinligi yoki xatoligi hukmning tuzilmasi yoki shakli bilan belgilanadigan hukmning mantiqiy determinatsiyalashganligidir.

Masalan, mantiq qonunlarini ifodalaydigan hukmlar mantiqiy chin hukmlarga; ich-ichidan zid keladigan hukmlar - mantiqiy xato hukmlarga kiritiladi. CHinligi yoki xatoligi ularning tuzilmasi asosida belgilanmaydigan boshqa barcha hukmlar amalda determinatsiyalashgan hukmlar sinfini tashkil etadi.

Hukmlarning chinligi yoki xatoligi real vogelikdagi ishlarning holati bilan belgilanadigan holda faktik modallik hukmlarning ob'ektiv yoki fizik determinatsiyalashganligi bilan bog'langan bo'ladi. Atamalar o'rtasidagi aloqa predmetlar o'rtasidagi real munosabatlarga muvofiq keladigan hukmlar faktik chin hukmlarga kiradi. Shunday hukmga misol: "Eyfel minorasi Parijda joylashgan". Atamalar o'rtasidagi aloqa vogelikka muvofiq kelmaydigan hukmlar faktik xato hukmlarga kiradi. Misol uchun: "Hech bir sutemizuvchi suvda yashamaydi".

Fan qonunlari haqidagi axborotni o'z ichiga oladigan hukmlar faktik zarur hukmlar bo'ladi. Tabiyi tilda bunday hukmlar ko'pincha "zarur", "albatta", "so'zsiz ravishda" kabi va boshqa so'zlar yordamida ifodalanadi.

Faktik tasodifiy hukmlar - bu fan qonunlari haqidagi axborotni o'z ichiga olmaydigan, chinligi va xatoligi aniq empirik shart-sharoitlar bilan belgilanadigan hukmlardir. Masalan, "Napoleon 1821-yil 5-mayda vafot etdi" degan hukm faktik tasodifiy hukm hisoblanadi, chunki Napoleonning o'limi shu sanagacha va undan keyin ham yuz bergen bo'lishi mumkin.

Subyektda va predikatda ifodalangan hodisalarning principial bir-biriga mosligi haqidagi axborotni o'z ichiga oladigan hukmlar faktik ehtimol bo'lgan hukmlar deyiladi. Masalan: "Janubiy Amerikada bu yil zilzila yuz berishi mumkin" yoki boshqa bir hukm: "A futbol jamoasi V jamoasi bilan uchrashuvda yutib chiqishi mumkin". Bu shuni anglatadiki, har ikkala holda ham bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan natijalar istisno etilmaydi - Janubiy Amerikada bu yil zilzila bo'lmasligi ham mumkin; A futbol jamoasi V jamoasi bilan uchrashuvda uni yuta olmasligi ham mumkin.

Tabiyi tilda kesimlar sifatida (kirish so'zlar emas) ishlatiladigan quydagicha so'zlar mumkin bo'lgan hukmlarning ko'rsatkichlari bo'ladi: ehtimol, bo'lishi mumkin, istisno etilmaydi, yo'l qo'yiladi va boshqalar.

34. Savollarning mantiqiy tavsifnomasi

Ilgari belgilangan hukmlardan yangi, mazmuniga ko'ra yanada aniq va boyroq hukmlarga o'tish quydagi izchil bosqichlarni o'z ichiga oladi: 1) savolning qo'yilishi, 2) muayyan sohada yangi axborotning izlanishi, 3) qo'yilgan savolga javobni shakllantirishi.

Savol - bu so'roq gapda ifodalangan boshlang'ich yoki bazis bilimni aniqlashtirish yoki to'ldirishga qaratilgan fikrdir. Bilish jarayonida har qanday savol bu bilimning bazisi bo'lib, savolning sharti rolini bajaradigan qandaydir boshlang'ich bilimga tayanadi. Savolning bilishga oid funksiyasi qo'yilgan savolga javob shaklida amalga oshiriladi.

Sudda ishlarni ko'rib chiqish jarayonida savol-javob shakli alohida rol o'ynaydi. Tergov va sudni qiziqtiradigan savollarga javoblarning izlanishi so'roq qilish, tergov eksperimentlari, tekshiruv, yuzma-yuz uchrashuv va boshqa ko'plab tergov harakatlarining asosiy mazmunini tashkil etadi. Sudda ishlarni ko'rib chiqish jarayonida savol-javob shakli jinoyat va fuqarolik ishlari bo'yicha sud tadqiqotining asosiy yo'naliishlari, eng muhim pozitsiyalari va chegaralarini belgilaydigan protsessual-huquqiy algoritm bo'lib xizmat qiladi.

Savollar turlari

Savollar bilishga oid funksiyasiga ko'ra ikkita asosiy turga: aniqlashtiruvchi yoki "-mi"li savollar va to'ldiruvchi yoki "nima" so'zi qo'shiladigan savollarga bo'linadi.

Savolda ifodalangan hukmning chinligini aniqlashga qaratilgan savol aniqlashtiruvchi savol, deyiladi. Masalan: "Amerikani Kolumb kashf qilgani to'g'rimi?", "Shveysariya NATOGa a'zomi?".

Aniqlashtiruvchi savollarning grammatick belgisi - gapda "-mi" yuklomasining mavjudligidir: "... ekanligi to'g'rimi"; "... shundaymi"; "Haqiqatan ham ... shundaymi" - va boshqa ma'nodosh so'zlardir. Shu sababli aniqlashtiruvchi savol - "-mi"li savol, deyiladi.

To'ldiruvchi savollarning grammatick belgisi - gapda: kim? Nima? Qachon? Qanday qilib? - kabi va boshqa so'roq so'zlarning mavjudligi bo'lib, ular yordamida tadqiq qilinayotgan obyektning nimadan iboratligi haqidagi qo'shimcha axborotni olishga intilishadi. Shu asosda to'ldiruvchi savol - "nima"li savol, deyiladi.

"-mi"li savollar va "nima"li savollar o'z tarkibiga ko'ra sodda va murakkab bo'lishi mumkin.

Boshqa savollarni tarkibiy qism sifatida o'z ichiga olmaydigan savol sodda savol, deyiladi. Yuqorida keltirilgan "-mi"li savollar va "nima"li savollarga tegishli misollar sodda savollar hisoblanadi.

Mantiqiy bog'lamlar bilan birikkan boshqa savollarni tarkibiy qism sifatida o'z ichiga oladigan savol murakkab savol, deyiladi. Murakkab savollar bog'lovchi tipiga qarab: a) biriktiruvchi (kon'yunktiv); b) ajratuvchi (diz'yunktiv); v) aralash (biriktiruvchi-ajratuvchi) savollar bo'lishi mumkin.

Muhokama qilinayotgan mavzuga nisbatan munosabatiga qarab mavzuning mohiyatiga daxldor savollar mavzuning mohiyatiga tegishli bo'lmagan savollardan farqlanadi.

Mavzuning mohiyatiga daxldor savol - bu muhokama qilinayotgan mavzu bilan bevosita yoki bilvosita bog'langan, unga olinadigan javob boshlang'ich axborotni aniqlashtiradigan yoki to'ldiradigan so'rovdir.

Mavzuning mohiyatiga tegishli bo'lmagan savol - bu muhokama qilinayotgan mavzuga nisbatan bevosita tegishli bo'lmagan savoldir. Odatda bunday savollar faqat sof tashqi shakliga ko'ra muhokamaga qo'yilgan mavzu bilan bog'langan kabi bo'lib tuyuladi. Bunday savollarni qabul qilish va muhokama qilish ko'pincha munozarani asosiy g'oyaning yechimidan chetga chalg'itadi. Ko'pincha ular munozarani cho'zish maqsadida ham ishlatalidi.

35. Javoblarning mantiqiy tavsifnomasi

Javob - bu qo'yilgan savolga muvofiq boshlang'ich bilimni aniqlashtiruvchi yoki to'ldiruvchi yangi hukmdir. Javobning izlanishi javoblarni izlash sohasi deb ataladigan nazariy yoki empirik bilimlarning aniq sohasiga murojaat etishni nazarda tutadi. Javobda olingan bilim boshlang'ich axborotni kengaytirib yoki aniqlashtirib, tadqiqot predmeti haqidagi yangi, yanada teran savollarni qo'yish uchun bazis bo'lib xizmat qiladi.

Javoblar orasida: haqiqiy va yolg'on; bevosita va bilvosita; qisqa va keng; to'liq va noto'liq; aniq (muayyan) va noaniq javoblar farqlanadi.

1. Chin va yolg'on javoblar voqelikka nisbatan munosabati bo'yicha farqlanadi.

2. Bevosita va bilvosita hukmlar ular izlanadigan sohaga qarab farqlanadi. Bevosita javoblar izlanadigan sohadan olingan, shakllantirilishida qo'shimcha ma'lumotlar va mulohazalar qo'llanilmaydigan javobga bevosita javob deyiladi. Masalan, "Rus-yapon urushi qaysi yili tugagan?" degan "nima"li savolga: "Rus-yapon urushi 1904-yilda tugagan" degan hukm bevosita javob bo'ladi. "Kit baliq bo'lib hisoblanadimi?" degan "-mi"li savolga: "Yo'q, kit baliq bo'lib hisoblanmaydi" degan hukm bevosita javob bo'ladi.

Javoblar izlanadigan sohaga nisbatan ancha kengroq bo'lgan sohadan olingan va kerakli axborotni faqat chiqarish yo'li bilan olish mumkin bo'lgan javob bilvosita javob deyiladi. Masalan, "Rus-yapon urushi qaysi yili tugagan?" degan savol uchun: "Rus-yapon urushi Birinchi rus revolyutsiyasidan bir yil ilgari tugagan" degan javob bilvosita javob bo'ladi. "Kit baliq bo'lib hisoblanadimi?" degan savolga: "Kit suteimizuvchi hayvonlar toifasiga kiradi" degan hukm bilvosita javob bo'ladi.

1. Qisqa va keng javoblar grammatik shakli bo'yicha farqlanadi.

Qisqa javoblar - bu bir bo'g'inli tasdiqlovchi yoki inkor etuvchi: "ha" yoki "yo'q" degan javoblardir.

Keng javoblar - bu har birida savolning barcha elementlari takrorlanadigan javoblardir. Masalan, "J.Kennedi katolik bo'lganmi?" degan savolga shunday tasdiqlovchi javoblar: qisqacha - "Ha"; keng - "Ha, J.Kennedi katolik bo'lgan" degan javoblar olinishi mumkin. Inkor javoblar shunday bo'ladi: qisqacha - "Yo'q"; keng - "Yo'q, J.Kennedi katolik bo'lgan".

2. To'liq va noto'liq javoblar javobda taqdim etilgan axborotning hajmi bo'yicha farqlanadi.

3. Aniq (muayyan) va noaniq javoblar savolning tavsifnomasiga muvofiq kelishiga qarab farqlanadi. Javoblarning aniq emasligi tushunchalar va so'roq so'zlarining ikki xil ma'noda ishlatalishida ifodalananadi.

Ikki xil ma'noli tushunchalar ko'pincha aniqlovchi yoki pinhoniy axborotni o'z ichiga oladigan savollarda qo'llaniladi.

Javoblardagi noaniqlik savollarni qo'yishda ishlatalidigan tushunchalarning noaniqligi natijasi bo'lishi mumkin.

"Nima"li savolga javobning aniqligi o'z-o'zidan, vaziyatni va kontekstni hisobga olmasdan, etarlicha aniqligi bilan farqlanmaydigan so'roq so'zlar: kim? Nima? Qachon? Qanday qilib? va shu kabilarning aniqlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

MASHQLAR

1-mashq. Hukmni ifodalovchi gaplarni toping. Hukm atamalarini aniqlang.

Namunalar: 1. Yashasin tinchlik! Undov gap, hukmni ifodalalamaydi.

2. Nega o'ylanib qoldingiz? So'roq gap, hukmni ifodalalamaydi.

3. Davlat siyosiy tuzumming asosiy institutidir. Darak gapda ifodalangan hukm.

- 1.1. Oliy Majlis deputatlari ko'pchilik ovoz berish yo'li bilan saylanadi.
- 1.2. Qani, ayt, maqsading nimadir sening, nega tilkalaysan bag'rimni, ohang? (A.Oripov).
- 1.3. Mustaqillik bayramingiz muborak bo'lsin!
- 1.4. Yashasin quyosh, yo'qolsin qorong'ulik!
- 1.5. Ijtimoiy taraqqiyot qonunlarini bilish orqali ijtimoiy jarayonlarni oldindan ko'rish mumkin;
- 1.6. Terrorizm va diniy aqidaparastlar tahdididan ogoh bo'ling!
- 1.7. O'zbekiston Respublikasi demokratik davlatdir.
- 1.8. Derazani chertgan kim?
- 1.9. Shoshilma, lekin tez harakat qil.
- 1.10. Olg'a, o'rtoqlar, mardona.

2-mashq. Hukmnинг ко'ринини аниqlang, hukmlarining chizmasini keltirib, munosabat va mavjudlik hukmlarini atributiv hukm shaklida ifodalang.

Namunalar: 1. Axborotlashgan jamiyatda ilmiy bilim taraqqiyotning asosidir. Atributiv hukm. S P dir. 2. Axloq dindan ilgari vujudga kelgan. Munosabat hukmi. x Ry Atributiv hukm shakli: Axloq dindan ilgari shakllangan ijtimoiy hodisadir. 3. Ilm haqida juda ko'p adapbiyot mavjud. Mavjudlik hukmi. Atributiv hukm shakli: Ilm haqida mavjud bo'lgan adapbiyot juda ko'pdir.

- 2.1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – hayotimizning asosiy qonunidir.
- 2.2. Xolmat G'ofirdan katta.
- 2.3. Har bir temir yo'l vokzalida onalar va bolalar xonasini mavjud.
- 2.4. Mulk huquqi davlat tomonidan himoya qilinadi.
- 2.5. O'zbekistonning iqtisodiy-siyosiy tizimi mulklar xilma-xilligiga asoslanadi.
- 2.6. Samarqand shahrida ko'p yodgorliklar mavjud.
- 2.7. Toshkent ko'p shaharlarga nisbatan qadimiyroqdir.
- 2.8. Zo'ravonlik ma'naviy ojizlikning nishonasidir.
- 2.9. Tafakkur tilsiz mavjud emas.
- 2.10. Kadrlar tayyorlash bo'yicha Milliy dastur 1997-yilda qabul qilingan.

3-mashq. Quyidagi atributiv hukmlarda subyekt, predikat va bog'lovchini toping. Hukmnинг sifati va miqdorini aniqlab, kvantor so'zni ko'rsating.

Namuna: O'zbekistonning barcha (kvantor) fuqarolari (S) davlatimizning tinchlikparvar siyosatini ma'qullaydilar (P). Miqdoriga ko'ra – umumiyligi, sifatiga ko'ra – tasdiq.

- 3.1. Barcha talabalar seminarda faol ishtirok etishdi.
- 3.2. Ayrim talabalar sinovdan o'ta olmadilar.
- 3.3. Hech bir jinoyatchi jazodan qutilib qolmaydi.
- 3.4. Ayrim talabalar sportchidirlar.
- 3.5. Hech bir haydovchi mast holda mashina boshqarishi mumkin emas.
- 3.6. Mamlakatimizda vijdon erkinligi ta'minlangan.
- 3.7. Har bir fuqaroga sifatli tibbiy xizmat kafolatlanadi.


- 3.8. Ayrim olimlar – iqtisodchi.
- 3.9. Ayrim faylasuflar deputat emas.
- 3.9. Mahalla – tarbiya o‘chog‘i.
- 3.10. Ayrim kitoblar iqtisodiy muammolarga bag‘ishlangan.

4-mashq. Hukmlarning birlashgan tasnifini bering, ularning sxemasini keltiring.

Namuna: Ayrim talabalar – a‘lochidir. Ba’zi S R dir – juz‘iy tasdiq hukmi (1).

- 4.1. Hech bir taraqqiyatparvar odam tinchlikka qarshi emas.
- 4.2. Har bir professional fulbolchi o‘z mahorat darajasiga ega.
- 4.3. Amir Temur – jahondagi buyuk sarkarda va siyosatchilaridan biri.
- 4.4. Baliqlar suvda yashaydi.
- 4.5. Taraqqiyotning o‘zbek modeli asosida besh tamoyil yotadi.
- 4.6. Hech bir hodisa sababsiz bo‘lmaydi.
- 4.7. Ayrim to‘rtburchaklar kvadrat emas.
- 4.8. Ayrim hududlarda chekish ta‘qilqandadi.
- 4.9. Shu aziz Vatan hammamizniki.
- 4.10. Rahbariyatga berilgan hech bir shikoyat javobsiz qolmasligi kerak.


5-mashq. Hukmlarning birlashgan tasnifini bering. Eyler aylanasi yordamida atamalar o‘rtasidagi munosabatni tasvirlang, subyekt va predikatning taqsimlanishini aniqlang.



Namuna: Hukm – tafakkur shaklidir. Umumiylashtirilgan tasdiq hukmi (A). S bo‘lingan, R – bo‘linmagan.

- 5.1. Hech bir inson adolat uchun azob chekishi mumkin emas.
- 5.2. 15 yoshga kirgan ayrim shaxslar ishga qabul qilinishi mumkin.
- 5.3. Odam savdosi bilan shug‘ullanish og‘ir jinoyatdir.
- 5.4. Chet eldan tarqatilgan ayrim ma‘lumotlar haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi.
- 5.5. O‘zbekiston Konstitutsiyasining ayrim moddalari jamoat tashkilotlari faoliyatiga bag‘ishlangan.
- 5.6. Faqat iqtidorli notiqqina yodlab olgan so‘zlarni aytmaydi.
- 5.7. Kitoblardagi ba’zi fikrlar eskirgan.
- 5.8. Ba’zi yozuvchilar dramaturgdirlar.
- 5.9. Ba’zi iqtisodchilar olimdirlar.
- 5.10. TDIU – yuqori obro‘ga ega oliy o‘quv yurtidir.

6-mashq. Chizmalardan qaysi biri keltirilgan hukmlarda terminlar munosabatini to‘g‘ri ifodalaydi?



- 6.1. TDIU talabalari mantiq fanini o‘qiydilar.
6.2. Ayrim yangi eksponatlar muzeiga topshirildi.
6.3. 8-guruhning faqat 4 talabasi mantiq bo‘yicha qo‘sishchaga mashg‘ulotga kelmadи.
6.4. Talabanining hech bir savoli javobsiz qolmasligi kerak.
6.5. Xususiy mulk inson erkinligining iqtisodiy asosidir.
6.6. Oshkoraliк – demokratiyaning muhim belgisidir.
6.7. Hech bir inson 300 yil yashamaydi.
6.8. Ba’zi baliqlar laqqa baliqdır.
6.9. Hamma tirk organizm nafas oladi.
6.10. Ko‘pchilik yoshlar ijtimoiy faoliyat bilan ajralib turadilar.

7-mashq. Murakkab hukmnинг ko‘rinishini aniqlang, uning tarkibiy qismlarini (oddiy hukmlarni) ko‘rsating, hukmni simvollar yordamida yozing.

Namuna: Vazirlikning qarori vazir yoki uning bir o‘rinbosari imzosi bilan e‘lon qilinadi. Ayiruvchi (diz‘yunktiv) hukm, tarkibidagi oddiy hukmlar: 1. Vazirlik-ning qarori vazir imzosi bilan e‘lon qilinadi. 2. Vazirlikning qarori vazirning bir o‘rinbosari imzosi bilan e‘lon qilinadi (q). Simvollik yozuvni p ¥ q —qat’iy diz yunksiya.

- 7.2. Aflatun, Arastu – Qadimgi grek falsafasining vakillaridir.
7.2. Anaxarsis Turkiston falsafasini Gretsiyada targ‘ib qildi, 7 donishmandning biri hisoblandi.
7.3. Shartnoma asosida o‘qiydigan talaba yoki belgilangan pulni to‘laydi, yoki o‘qishni to‘xtatadi.
7.4. O‘zbekiston fuqarolari millatlari, dinlari, jinslaridan qat’iy nazar teng huquqqa egadirlar.
7.5. Mashg‘ulotlarga qatnarmaydigan, o‘qimaydigan talaba imtihondan qoniqsiz baho oladi.
7.6. Prokuror sud majlisida ayblovni yoki quvvatlashi, yoki inkor qilishi kerak.
7.7. Kechirim ohangi ham, qo‘polik ham, qaysarlik ham munozarani bezamaydi.
7.8. Agar N. O‘zbekiston fuqarosi bo‘lsa, u 18 yoshga kirgandan keyin saylash huquqiga ega bo‘ladi.
7.9. TDIUda o‘qigan talaba yo biznesmen, yo iqtisodchi, yo bankir bo‘ladi.
7.10. Bu kasal yo o‘ladi, yo majruh bo‘lib qoladi.

8-mashq. Birlashtiruvchi va ayiruvchi hukmlarni toping, ularda diz‘yunksiya ko‘rinishini ko‘rsatib, hukmnинг simvolik yozuvini keltiring.

Namuna: jamiyat antagonistik yoki noantagonistik bo'lishi mumkin. Diz'yunktiv hukm. p ≠ q (kuchli diz'yunksiya).

8.1. Barchamiz tabiat uchun kelgusi avlod oldida, tarix oldida javobgarmiz.

8.2. Inson yoki o'g'il, yoki qiz tug'adi.

8.3. Advokat ishni yoki to'plangan faktik material bo'yicha, yoki dalillarning ishonchliligi bo'yicha, yoki faktlar huquqiy bahosining to'g'riligiga asoslanib ko'radi.

8.4. Kasal bo'lgan odam yoki ish joyi bo'yicha, yoki yashash joyi bo'yicha doktorga murojaat qilishi kerak.

8.5. Bundan keyingi jahon urushida na front, na jangchi, na betaraf bo'ladi.

8.6. Xususiy mulk yoki jamoaviy, yoki bir kishiga tegishli bo'lishi mumkin.

8.7. Kechalar yoki oydin, yoki qorong'u bo'ladi.

8.8. Har bir fuqaroning ishi tabiatni asrash, uning boyligini saqlab qolish bo'lishi kerak.

8.9. Qo'ziqorinlar yoki zaharli, yoki zaharsiz bo'ladi.

8.10. Alining yoshidan Valining yoshi yoki kichik, yoki katta, yoki ular tengdirlar.

9-mashq. Quyidagi shartli hukmlardan antetsedent va konsekventni ko'rsating, uning simvolik yozuvini keltiring.

Namuna: Agar talaba imtihonga tayyorlangan bo'lsa (r) uni muvaffaqiyatlil topshirishi mumkin (q) Antetsedent (asos) – r, konsekvent (natija) – q : p → q.

9.1. Agar yetarli ball to'play olsang, albatta o'qishga qabul qilinasan.

9.2. Agar haydovchi tormozni bosganida edi – asfalta g'ildirakning izi qolgan bo'lardi.

9.3. Agar mening taxminim to'g'ri chiqmasa, men juda hayron qolgan bo'lardim.

9.4. Agar uning diplomi bo'lganida edi, ishga shubhasisiz qabul qilinardi.

9.5. Agar o'qituvchi sodda va aniq qilib tushuntirganda edi, o'zlashtirish qiyin bo'lgan material tushunarli bo'lgan bo'lar edi.

9.6. Cheksang – sog'ligingga zarar yetkazasan.

9.7. Agar vaqtinchalik ish muddati davomida xodim bilan shartnomaga to'xtatilmasa, u doimiy ishga kirgan hisoblanadi.

9.8. Agar sen qattiqqa'l bo'lsang, avvalo o'zingga nisbatan qattiqqa'l bo'l.

9.9. Agar senga odamlar yaxshilik qilishsa – unutma; agar sen odamlarga yaxshilik qilsang – bu haqda unut.

9.10. Dengiz ustida qushlar paydo bo'ldi – yer yaqin.

10-mashq. Aletik modal hukmlarni aniqlang: u zaruriymi yoki tasodifiymi, mumkin yoki mumkin emasligini belgilang. Hukmni medal operatorlar yordamida yozing.

Namuna: Iqtisodiy asos o'zgarishi bilan ustqurmada ham o'zgarish tez yoki sekin amalg'a oshadi. Mazkur hukm (r) zaruriy. Uning yozuvini: □ r.

10.1. Materiyani harakatsiz fikrlab bo‘lmaniday, harakatni ham materiyasiz tushunib bo‘lmaydi.

10.2. Jamiyat rivojlanishining tezlashuvi demokratiyaning kengayishi va chuqurlashuvisiz bo‘lmaydi.

10.3. Ayblanuvchi oqlanishi mumkin.

10.4. Materiya va energiyaning ayniyligi haqidagi fikr albatta hatodir.

10.5. Atrof-muhitning ifloslanishi yurak-qon tomir va o‘pka kasalliklarining kelib chiqishiga turki beradi.

10.6. G’afur G’ulom 1903-yilda Toshkentda tug‘ilgan.

10.7. Qisqa muddatli uyqu qochishi sog‘lom odamlarda charchoqdan kelib chiqishi mumkin.

10.8. 1992-yilning 8-dekabrida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi.

10.9. Ehtimol, ertaga issiqroq bo‘lishi mumkin.

10.10. Diniy ekstremizm – diniy fanatizmning zaruriy natijasidir.

11-mashq. Deontik va epistemik modallikni aniqlang, ularni ma‘lum operatorlar yordamida O, R, G’ operatorlari yordamida yozing.

Namuna: Yong‘in xavfi bo‘lgan kimyoviy ashyolarni issiqlik manbalaridan uzoqroq joyda yopiq holda saqlang: Ruxsat berilgan Rr.

11.1. Yong‘in bo‘lgan taqdirda 01 telefon raqamiga qo‘ng‘iroq qiling.

11.2. Poytaxtimizning ko‘rkam joylari bilan tanishishni istaganlar, sayohatlar byurosining avtobuslariga o‘tiringlar.

11.3. Quduqqa tupurma – undan suv ichishingga to‘g‘ri kelishi mumkin.

11.4. Lasetti mashinasи haydovchisi, to‘xtang!

11.5. Jamoat transportida oson yonib ketadigan narsalarni tashish taqiqlanadi.

11.6. Fuqarolar, maxsus yordamchilar xizmatidan foydalaning, o‘z narsalaringizni tasodifiy kishilarga ishonmang.

11.7. Hurmatli yo‘lovchilar, butun reys davomida chekishdan saqlanishingizni so‘raymiz.

11.8. Ko‘chadan yashil chiroq yonganda o‘tayotganda, avval chapga, keyin o‘ngga qarash kerak.

11.9. Barcha xodimlar diqqatiga: xizmat xonalarida elektr asboblaridan foydalanmang.

11.10. Eshikning oldida to‘xtab qolmang, avtobusning saloniga o‘ting!

36. Xulosa tafakkur shakli sifatida. Xulosalar turlari

Xulosa - bu bir yoki bir necha hukmlardan yangi hukm yasaladigan tafakkur shaklidir.

Har qanday xulosa asos, xulosa va natijadan iborat bo‘ladi. Yangi hukmni yasashga asos bo‘ladigan boshlang‘ich hukmlar xulosaning asoslari deyiladi. Mantiqiy yo‘l bilan asoslardan olingan yangi hukm xulosa deyiladi. Asoslardan xulosaga mantiqiy o‘tish natija deyiladi.

Masalan: “Agar sudya jabrlanuvchi bo‘lib hisoblanadigan bo‘lsa, unda u ishning ko‘rib chiqilishida qatnashishi mumkin emas (1). Sudya N. - jabrlanuvchi (2). Demak, u ishning ko‘rib chiqilishida qatnashishi mumkin emas (3)”. Ushbu xulosada 1- va 2-hukmlar asoslar, 3-hukm - xulosa bo‘lib hisoblanadi.

Xulosani tahlil etishda asoslar bilan xulosani alohida, birini boshqasining ostida joylashtirib, yozib qo‘yish qabul qilingan. Xulosa uni asoslardan ajratib turadigan va mantiqiy ergashishni ifodalaydigan gorizontal chiziq ostiga yoziladi. “Binobarin” so‘zi va ma‘nosiga ko‘ra unga yaqin boshqa so‘zlar (“demak”, “shuning uchun” va shu kabilar) odatda chiziq ostiga yozilmaydi. Shunga muvofiq ravishda keltirilgan misol shunday ko‘rinishda bo‘ladi:

Agar sudya jabrlanuvchi bo‘lib hisoblanadigan bo‘lsa, unda u ishning ko‘rib chiqilishida qatnashishi mumkin emas.

Sudya N. - jabrlanuvchidir.

Sudya N. ishning ko‘rib chiqilishida qatnashishi mumkin emas.

Asoslar o‘rtasidagi ularning mazmuniga ko‘ra aloqa asoslar bilan xulosa o‘rtasidagi mantiqiy ergashuv munosabatlarini nazarda tutadi. Agar hukmlar bir-biri bilan mazmuniga ko‘ra bog‘lannagan bo‘lsa, unda ulardan xulosa chiqarish mumkin emas. Asoslar o‘rtasida mazmunli aloqa mavjud bo‘lganida biz mulohaza jarayonida quyidagicha ikki shartga rioya qilgan holda yangi chin bilimni olishimiz mumkin: birinchidan, boshlang‘ich hukmlar - xulosaning asoslari chin bo‘lishi kerak; ikkinchidan, mulohaza jarayonida xulosaning mantiqiy jihatdan to‘g‘ri bo‘lishini nazarda tutadigan natija qoidalariga rioya qilish lozim.

Xulosalar quyidagi turlarga bo‘linadi.

1. Natija qoidalarining qat‘iyligiga qarab oshkora (zaruriy) va oshkor bo‘lmagan (haqiqatga o‘xshash) xulosalar farqlanadi. Oshkora xulosalar ulardag‘i xulosaning zaruriy tarzda asoslardan kelib chiqishi bilan tavsiflanadi, ya’ni bunga o‘xshagan xulosalarda mantiqiy ergashuv mantiqiy qonundan iborat bo‘ladi. Oshkor bo‘lmagan xulosalarda faqat asoslardan chiqarilgan xulosaning ehtimolli ergashuvu xulosa qoidalarini ta‘minlaydi.

2. Umumiylikning turli darajasiga ega bilim o‘rtasidagi aloqaning asoslar va xulosada ifodalangan shakli bo‘yicha xulosalarning uch turi farqlanadi: deduktiv (umumiylik bilimdan xususiy bilim sari), induktiv (xususiy bilimdan umumiylik bilim sari), o‘xshashligiga qarab xulosalar (xususiy bilimdan xususiy bilim sari).

37. Bevosita deduktiv xulosalar: o‘zgarish

Umumiylik bilimdan xususiy bilimga tomon o‘tish mantiqiy zaruriyat bo‘lib hisoblanadigan xulosalar deduktiv (lotincha - chiqarish so‘zidan) xulosalar deyiladi.

Deduktiv xulosalar asoslar soniga qarab bevosita va bilvosita xulosalarga bo‘linadi. Xulosa bir asos negizida chiqariladigan xulosalar bevosita xulosalar, xulosa ikkita yoki undan ortiq asos negizida chiqariladigan xulosalar bilvosita xulosalar, deyiladi.

Bevosita xulosalar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: o‘zgarish, undalma, predikatga qarama-qarshi qo‘yish, mantiqiy kvadrat bo‘yicha xulosalar.

Ushbu xulosalarning har biridan natija hukmning turi - uning miqdoriy va sifatiga oid tavsifnomalari bilan bog'liq bo'lgan mantiqiy qoidalarga muvofiq olinadi.

O'zgartirish

Hukmning sifatiga ko'ra boshlang'ich hukmning predikatiga zid keladigan predikatga ega hukmiga aylantirilishi o'zgartirish, deyiladi. O'zgartirish shunday qoidaga tayanadi: ikki martalik inkor tasdiqqa tengdir: $\neg \neg p = p$.

Umumiy tasdiq, umumiy inkor, juz'iy tasdiq va juz'iy inkor hukmlarni o'zgartirish mumkin.

Umumiy tasdiq hukm (A) umumiy inkor hukm (E) qilib o'zgartiriladi. Masalan: "Bizning jamoamizdagi barcha xodimlar - malakali mutaxassislar. Binobarin, bizning jamoadagi hech bir xodim malakasiz mutaxassis hisoblanmaydi".

Barcha S lar R dir.

Hech bir S R emas.

Umumiy inkor etuvchi hukm (E) umumiy tasdiqllovchi hukm (A) qilib o'zgartiriladi. Masalan: "Diniy ta'limotlarning hech qaysisi ilmiy bo'lib hisoblanmaydi. Binobarin, har qanday diniy ta'limot g'ayriilmiy hisoblanadi".

Hech bir S R emas.

Barcha S R dir.

Juz'iy tasdiq hukmi (I) juz'iy inkor hukm (O) qilib o'zgartiriladi. Masalan: "Ayrim davlatlar federativ davlat bo'lib hisoblanadi. Binobarin, ayrim davlatlar federativ davlat bo'lib hisoblanmaydi".

Ayrim S R dir.

Ayrim S R emas.

Juz'iy inkor hukmi (O) juz'iy tasdiq hukm (I) qilib o'zgartiriladi. Masalan: "Ayrim jinoyatlar qasddan qilingan jinoyat bo'lib hisoblanmaydi. Binobarin, ayrim jinoyatlar qasddan qilinmagan jinoyatlar hisoblanadi".

Ayrim S lar R emas.

Ayrim S lar R dir.

38. Bevosita deduktiv xulosa: aylantirish

Boshlang'ich hukm subyekti predikat, predikat esa - xulosaning subyektiga aylanishiga olib keladigan o'zgartirish aylantirish, deyiladi.

Aylantirish shunday qoidaga bo'yusunadi: asosda taqsimlanmagan atama xulosada taqsimlanishi mumkin emas.

Sodda (sof) aylantirish va cheklashga ega aylantirish farqlanadi.

Hukm soni o'zgartirilmaydigan aylantirish sodda yoki sof aylantirish deyiladi. Har ikkala atama ham taqsimlangan yoki ikkalasi ham taqsimlanmagan hukmlar shu tarzda yuritiladi. Agar boshlang'ich hukm predikati taqsimlanmagan bo'lsa, unda u sub'ektga aylanadigan xulosada ham taqsimlanmaydi. SHuning uchun uning hajmi cheklangandir. Bunday aylantirish cheklashga ega undalma, deyiladi.

Umumiy tasdiqllovchi hukm (A) juz'iy tasdiqllovchi hukmga (I), ya'ni cheklashga ega hukmga aylanadi. Masalan, "Bizning guruhning hamma talabalari (S) imtihonlarni topshirishdi (P). Binobarin, imtihonlarni topshirgan ayrim talabalar (P) - bizning guruh talabalaridir (S)".

Hamma S P dir.

Ayrim P S dir.

Umumiylashtiruvchi hukmlar (ularda predikat taqsimlangan) cheklashlsiz quyidagi chizma bo'yicha o'zgaradi.

Hamma S va faqat S P dir.

Hamma P S dir.

Umumiylashtiruvchi hukmi (E) umumiylashtiruvchi hukmiga, ya'ni cheklashsiz hukmga aylanadi. Masalan, "Bizning guruhning bironta talabasi (S) o'zlashtirmovchi bo'lib hisoblanmaydi (P). Binobarin, bironta ham o'zlashtirmovchi (P) - bizning guruh talabasi hisoblanmaydi (S)".

Hech bir S P emas.

Hech bir P S emas.

Juz'iy tasdiq hukmi (I) juz'iy tasdiq hukmiga (I) hukmga aylanadi. Boshlang'ich hukmda taqsimlanmagan predikat xulosada ham taqsimlanmagan. Hukmlar soni o'zgarmaydi. Masalan, "Bizning guruhning ayrim talabalari (S) - a'lochilardir (P). Binobarin, ayrim a'lochilar (P) - bizning guruh talabalaridir (S)".

Ayrim S P dir.

Ayrim P S dir.

Juz'iy tasdiqlovchi ajratuvchi hukm (predikat taqsimlangan) umumiylashtiruvchi hukmga aylanadi. Masalan, "Ayrim ijtimoiy xavfli qilmishlar (S) odil sudlovgaga qarshi jinoyatlar hisoblanadi (P). Binobarin, odil sudlovgaga qarshi barcha jinoyatlar (P) - ijtimoiy xavfli qilmishlar hisoblanadi (S)".

Ayrim S lar va faqat S lar P dir.

Hamma P lar S dir.

Juz'iy inkor etuvchi hukm o'zgarmaydi.

39. Bevosita deduktiv xulosa: predikatga qarama-qarshi qo'yish

Subyekt predikatga zid keladigan tushunchaga aylanadigan, predikat esa - boshlang'ich hukmnинг subyekti bo'lib qoladigan o'zgartirish predikatga qarama-qarshi qo'yish, deyiladi. Predikatga qarama-qarshi qo'yish o'zgartirish va aylantirish natijasi sifatida ko'rib chiqilishi mumkin: S - P boshlang'ich hukmni o'zgartirish bilan S ning P-emasga munosabatini aniqlaymiz; o'zgartirish yo'li bilan olingan hukm o'zgargach, P-emasning S ga nisbatan munosabati belgilanadi. Predikatga qarama-qarshi qo'yish yo'li bilan olingan xulosa boshlang'ich hukmnинг soni va sifatiga bog'liq bo'ladi. Umumiylashtiruvchi hukmi (A) umumiylashtiruvchi hukmi (E) bo'lib o'zgaradi. Masalan: "Hamma advokatlar yuridik ma'lumotga ega. Binobarin, yuridik ma'lumotga ega bo'lmagan bironta shaxs advokat hisoblanmaydi".

Hamma S lar R dir.

Hech bir R-emas S emas.

Umumiylashtiruvchi hukmi (E) juz'iy tasdiq hukmi (I) bo'lib o'zgaradi. Masalan: "Bizning shahardagi bironta ham sanoat korxonasi zarar bilan ishlaydigan korxona bo'lib hisoblanmaydi. Binobarin, ayrim zarar bilan ishlamaydigan korxonalar bizning shahardagi sanoat korxonalarini hisoblanadi".

Hech bir S R emas.

Ayrim R-emaslar S dir.

Juz'iy tasdiq hukmi (I) predikatga qarama-qarshi qo'yish yo'li bilan o'zgarmaydi.


Juz'iy inkor hukmi (O) juz'iy tasdiq hukmi (I) bo'lib o'zgaradi. Masalan: "Ayrim guvohlar balog'at yoshiga etmagan bo'ladi. Binobarin, ayrim balog'at yoshiga etmaganlar guvohlar bo'lib hisoblanadi".

Ayrim S lar R emas.

Ayrim R-emas S dir.

40. Mantiqiy kvadrat bo'yicha bevosita deduktiv xulosa chiqarish

Mantiqiy kvadrat chizmasi bo'yicha tasvirlangan A, E, I, O qat'iy hukmlari o'rtaqidagi munosabatlarning xususiyatlarini hisobga olib, bir hukmnинг chinligi yoki xatoligi boshqa hukmnинг chinligi yoki xatoligiga ergashishini belgilab, xulosalarni qurish mumkin. Mantiqiy kvadratning yuqori qismi umumiy hukmlarni, quiyi qismi juz'iy hukmlarni ifodalaydi. Mantiqiy kvadratning chap tomonidan tasdiq hukmlar, o'ng tomonidan inkor hukmlar joylashgan.



Mantiqiy kvadrat

Ziddiyat (kontradiktorlik) munosabati: A - O, E - I.

Bir-biriga zid keladigan hukmlar o'rtaqidagi munosabatlardan uchinchisi istisno qonuniga bo'ysunishi tufayli bir hukmnинг chinligidan boshqa hukmnинг xatoligi, bir hukmnинг xatoligidan - boshqa hukmnинг chinligi kelib chiqadi. Masalan, "Hamma xalqlar o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga egadir", degan umumiy tasdiq hukmi (A) ning chinligidan "Ayrim xalqlar o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga ega emas", degan juz'iy inkor hukmi (O) ning xatoligi kelib chiqadi; "Suning ayrim hukmlari oqlov hukmlari bo'lib hisoblanadi" degan juz'iy tasdiq hukmi (I) ning chinligidan "Suning bironta ham hukmi oqlov hukmi bo'lib hisoblanmaydi" (E) degan umumiy inkor hukmining xatoligi kelib chiqadi.

Xulosalar shunday chizmalar bo'yicha quriladi:

$$A \rightarrow \neg O; \neg A \rightarrow O; E \rightarrow \neg I; \neg E \rightarrow I.$$

Qarama-qarshilik (kontrarlik) munosabati: A - E. Bir hukmnинг chinligidan boshqa hukmnинг xatoligi kelib chiqadi, lekin ulardan birining xatoligidan boshqasining chinligi kelib chiqmaydi. Masalan, "Hamma xalqlar o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga egadir", degan umumiy tasdiq hukmi (A) ning

chinligidan “Hech bir xalq o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqiga ega emas”, degan umumiy inkor etuvchi hukm (E) ning xatoligi kelib chiqadi. Lekin “Sudning hamma hukmlari oqlov hukmlari bo‘lib hisoblanadi” degan A hukmnинг xatoligidan “Sudning bironta ham hukmi oqlov hukmi bo‘lib hisoblanmaydi” (E) degan hukmnинг chinligi kelib chiqmaydi. Bu hukm ham xatodir.

Qarama-qarshi hukmlar o‘rtasidagi munosabatlar zidlik qonuniga bo‘ysunadi:

A → ⚡ E, E → ⚡ A, ⚡ A → (E ∨ ⚡ E), ⚡ E → (A ∨ ⚡ A).

Qisman mutanosiblik (subkontrariflik) munosabati: I - O. Bir hukmnинг xatoligidan boshqa hukmnинг chinligi kelib chiqadi, lekin ulardan birining chinligidan boshqa hukmnинг chinligi ham, xatoligi ham kelib chiqishi mumkin. Har ikkala hukm chin bo‘lishi ham mumkin. Masalan, “Ayrim vrachlar tibbiy ma‘lumotga ega emas”, degan xato hukmdan “Ayrim vrachlar tibbiy ma‘lumotga egadir”, degan chin hukm kelib chiqadi, “Ayrim guvohlar so‘roq qilingan”, degan chin hukmdan “Ayrim guvohlar so‘roq qilinmagan”, degan hukm kelib chiqadiki, bu hukm chin ham, xato ham bo‘lishi mumkin.

Shunday qilib, subkontrar hukmlar birligida xato bo‘lishi mumkin emas; juda bo‘limganda, ularning bittasi chin bo‘ladi:

⚡ I → O; ⚡ O → I; I → (O ∨ ⚡ O); O → (I ∨ ⚡ I).

Bo‘ysunganlik munosabati (A - I, E - O). Bo‘ysundiruvchi hukmnинг chinligidan bo‘ysunuvchi hukmnинг chinligi kelib chiqadi, lekin aksincha bo‘lmaydi: bo‘ysungan hukmnинг chinligidan bo‘ysundiruvchi hukmnинг chinligi kelib chiqmaydi, u yo chin, yo xato bo‘lishi mumkin. Masalan, A “Hamma vrachlar tibbiy ma‘lumotga egadir” degan bo‘ysundiruvchi hukmnинг chinligidan unga bo‘ysunuvchi I “Ayrim vrachlar tibbiy ma‘lumotga egadir” degan hukmnинг chinligi kelib chiqadi. “Ayrim guvohlar so‘roq qilingan”, degan chin bo‘ysunuvchi hukmdan “Hamma guvohlar so‘roq qilingan”, degan bo‘ysundiruvchi hukmnинг chinligini zaruriy tarzda tasdiqlash mumkin emas:

A → I; E → O; I → (A ∨ ⚡ A); O → (E ∨ ⚡ E).

Bo‘ysungan hukmnинг chinligidan bo‘ysundiruvchi hukmnинг xatoligi kelib chiqadi, lekin buning teskarisi bo‘lmaydi: bo‘ysuntiruvchi hukmnинг xatoligidan bo‘ysunuvchi hukmnинг xatoligi zaruriy ravishda kelib chiqmaydi; u chin ham, xato ham bo‘lishi mumkin. Masalan, (O) “Ayrim xalqlar o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqiga ega bo‘lmaydi” bo‘ysunuvchi hukmnинг xatoligidan (E) “Hech bir xalq o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqiga ega bo‘lmaydi” degan bo‘ysundiruvchi hukmnинг xatoligi kelib chiqadi. Agar (A) “Hamma guvohlar so‘roq qilingan” bo‘ysundiruvchi hukmi xato bo‘lsa, unda unga bo‘ysunadigan (I) “Ayrim guvohlar so‘roq qilingan” hukmi chin ham, xato ham bo‘lishi mumkin (ehtimol, bironta ham guvoh so‘roq qilinmagan bo‘lishi mumkin).

Mantiqiy kvadratda “ayrim” so‘zi “juda bo‘limganda, ayrim” degan ma‘noda ishlataladi.

⚡ I → ⚡ A; ⚡ O → ⚡ E; ⚡ A → (I ∨ ⚡ I); ⚡ E → (O ∨ ⚡ O).

41. Sodda qat'iy sillogizm, uning tuzilishi va aksioma

Sodda qat'iy sillogizm uchta qat'iy hukmlardan iborat bo'lib, ulardan ikitasi asoslar, uchinchisi esa - xulosa bo'ladi. Masalan,

"Ayblanuvchi himoya qilish huquqiga egadir.

Toshev - ayblanuvchi.

Toshev himoya qilish huquqiga egadir".

Sillogizmni tashkil etadigan hukmlarni tushunchalarga ajratamiz. Bunday tushunchalar uchta bo'ladi, bunda ularning har biri ikkita hukmnинг таркибига киради: "Ayblanuvchi" - 1-(asos)ga subyekt sifatida va 2-(asos)ga predikat sifatida; "himoya qilish huquqiga egadir" - 1-(asos)ga va 3-(xulosa)ga ularning predikatlari sifatida; "Toshev" - 2-(asos)ga va 3-(xulosa)ga ularning subyektlari sifatida kiradi.

Sillogizm таркибига кирадиган тушунчалар sillogizm atamalari deyiladi. Kichik, katta va o'rtacha atamalar farqlanadi.

Xulosada subyekt bo'ladigan tushuncha (bizning misolda: "Toshev" tushunchasi) sillogizmnинг kichik atamasi deyiladi. Xulosada predikat bo'ladigan tushuncha ("himoya qilish huquqiga egadir") sillogizmning katta atamasi deyiladi. Kichik va katta atamalar chetki atamalar deyiladi va tegishlicha lotincha S (kichik atama) va P (katta atama) harflari bilan belgilanadi.

Chetki atamalarning har biri nafaqat xulosaga, shu bilan birga asoslardan biriga ham kiradi. Kichik atamani o'z ichiga oladigan asos kichik asos, katta atamani o'z ichiga oladigan asos katta asos, deyiladi. Bizning misolda birinchi hukm (1) katta asos, ikkinchi hukm (2) - kichik asos, deyiladi.

Har ikkala asosga ham kiradigan va xulosa tarkibida bo'lmaydigan tushuncha (bizning misolda - "ayblanuvchi") sillogizmning o'rta atamasi, deyiladi. O'rta atama lotincha M harfi bilan belgilanadi.

Ayblanuvchi (M) himoya qilish huquqiga egadir.

Toshev (S) - ayblanuvchi (M).

Toshev (S) himoya qilish huquqiga egadir (R).

Shunday qilib, sodda qat'iy sillogizm - bu ikkita chetki atamalarning ularning o'rtacha atamaga munosabati asosidagi munosabati haqidagi xulosadir.

Sillogizm aksiomasi xulosaning, ya'ni asoslardan xulosaga mantiqiy o'tishning qonuniyligini asoslaydi: ayrim sinfning jami predmetlariga nisbatan tasdiqlanadigan yoki rad etiladigan hamma narsa ushbu sinfdagi har bir predmet va ularning har qanday qismiga nisbatan ham tasdiqlanadi yoki rad etiladi.

Ushbu misolda - jami ayblanuvchilarga nisbatan tasdiqlanadigan hamma narsa aniq bir ayblanuvchiga nisbatan ham tasdiqlanadi.

42. Sodda qat'iy sillogizm atamalari qoidalari

Oddiy asoslardan haqiqiy xulosani faqat sillogizm qoidalariга rivoja etilgani holda olish mumkin bo'ladi. Bunday qoidalalar yettita bo'lib, ulardan uchtaşı atamalarga va to'rttasi - asoslarga tegishlidir.

1-qoida: sillogizmda faqat uchta atama bo'lishi kerak. Sillogizmdagi asos ikkita chetki atamalarning o'rta atamaga munosabatiga asoslangan, shuning uchun unda faqat uchta atama bo'lishi mumkin. Ushbu qoidaning buzilishi bir tushuncha

deb qabul qilinadigan va o'rta atama sifatida ko'rib chiqiladigan turli tushunchalarning aynan bir xil deb qaralishi bilan bog'liqdir. Bunday xato ayniyat qonuni talablarining buzilishiga asoslanadi va atamalarning to'rttaga ko'paytirilishi deyiladi. Masalan, quyidagi asoslardan xulosani olish mumkin emas: "Qonunlarni odamlar yaratmaydi" va "Qonun - bu davlat hokimiyatining oliy organi tomonidan qabul qilingan normativ hujjatdir", chunki biz uchta atamaning o'mniga to'rtta atama bilan ish olib boramiz: birinchi asosda odamlarning ongidan qat'i nazar aral qiladigan obyektiv qonunlar, ikkinchisida - davlat tomonidan belgilanadigan yuridik qonun nazarda tutilmoqda. Bu chetki atamalar bog'lay olmaydigan ikkita turli xil tushunchalardir.

2-qoida: o'rta atama juda bo'limganda asoslardan birida taqsimlanishi lozim. Agar o'rta atama asoslardan hech birida taqsimlanmagan bo'lsa, unda chetki atamalar o'rtasidagi aloqa noaniqligicha qoladi. Masalan, "Ayrim yuristlar (M) - advokatlar hay'atining a'zolaridir (R)", "Bizning jamooadagi hamma xodimlar (S) - yuristlardir (M) asoslarida o'rta atama (M) katta asosda taqsimlanmagan, chunki u juz'iy hukm subyekti hisoblanadi va tasdiqlovchi hukmnинг predikati sifatida kichik asosda ham taqsimlanmagan. Binobarin, o'rta atama asoslardan hech birida taqsimlanmagan. Bunday holda chetki atamalar (S va P) o'rtasidagi zaruriy aloqani belgilash mumkin emas.

3-qoida: asosda taqsimlanmagan atama xulosada ham taqsimlanmaydi. Masalan,

"Ma'naviy normalar (M)ga davlat tomonidan sanksiya berilmaydi (R)".

Ma'naviy normalar (M) - ijtimoiy tartibga solish shakllaridir (S).

Ijtimoiy tartibga solinadigan ma'naviy normalarning ayrim shakllari (S) ga davlat tomonidan sanksiya berilmaydi (R).

Kichik atama (S) asosda taqsimlanmagan (tasdiqlovchi hukmnинг predikati sifatida), shuning uchun u xulosada ham taqsimlanmagan (xususiy hukmnинг subyekti sifatida). Umumiy hukm shaklidagi ("Ijtimoiy tartibga solinadigan ma'naviy normalarning hech bir shakliga davlat tomonidan sanksiya berilmaydi") taqsimlangan subyektlı xulosani chiqarishni qoida ta'qiqlaydi. Chetki atamalarning taqsimlanishi qoidasining buzilishi bilan bog'liq bunday xato kichik (yoki kattaroq) atamaning noqonunyi kengayishi deyiladi.

43. Sodda qat'iy sillogizmning asoslari qoidalari

1-qoida: asoslarning juda bo'limganda bittasi tasdiqlovchi hukm bo'lishi kerak. Ikkita inkor etuvchi asoslardan zaruriy tarzdagи xulosa kelib chiqmaydi.

Masalan, "Bizning institut talabalari (M) biologiyani o'rganishmaydi (R)", "ITI xodimlari (S) bizning institut talabalari hisoblanmaydi (M)" asoslaridan zarur xulosani chiqarib bo'lmaydi, chunki har ikkala chetki atamalar (S va R) o'rta atamadan istisno etiladi. Shuning uchun o'rta atama chetki atamalar o'rtasida muayyan munosabatni belgilashi mumkin emas.

2-qoida: agar asoslardan bittasi - inkor etuvchi hukm bo'lsa, unda xulosa ham inkor etuvchi bo'lishi kerak.

Masalan:

Jabrlanuvchining qarindoshi bo'lgan sudya (M) ishning ko'rib chiqiishida qatnashishi mumkin emas (R).

Sudya K. (S) - jabrlanuvchining qarindoshidir (M).

Sudya K. (S) ishning ko'rib chiqilishida qatnashishi mumkin emas (R).

3-qoida: asoslarning juda bo'lmaganda bittasi umumiy hukm bo'lishi kerak.

Ikkita xususiy asoslardan zaruriy xulosa kelib chiqmaydi.

Agar har ikkala asos - juz'iy tasdiqlovchi hukmlar (II) bo'lsa, unda atamalarning 2-qoidasiga ko'ra xulosa chiqarib bo'lmaydi: juz'iy tasdiqlovchi hukmda na subyekt, na predikat taqsimlanmagan bo'ladi, shuning uchun o'rta atama ham asoslarning hech birida taqsimlanmagan.

Agar har ikkala asoslar - juz'iy inkor etuvchi hukmlar (OO) bo'lsa, unda asoslarning 1-qoidasiga ko'ra xulosa chiqarib bo'lmaydi.

Agar bitta asos - juz'iy tasdiqlovchi bo'lib, ikkinchisi - juz'iy inkor etuvchi (IO yoki OI) bo'lsa, unda bunday sillogizmda faqat bitta atama - juz'iy inkor etuvchi hukmnинг predikati taqsimlangan bo'ladi. Agar bu atama o'rta atama bo'lsa, unda xulosa chiqarib bo'lmaydi, chunki asoslarning 2-qoidasiga binoan xulosa inkor etuvchi bo'lishi kerak. Lekin bunday holda xulosaning predikati taqsimlangan bo'lishi kerakki, bu atamalarning 3-qoidasiga zid keladi: 1) asosda taqsimlanmagan katta atama xulosada taqsimlanadi; 2) agar katta atama taqsimlangan bo'lsa, unda atamalarning 2-qoidasiga binoan xulosa chiqarilmaydi.

4-qoida: agar asoslardan bittasi - juz'iy hukm bo'lsa, unda xulosa ham juz'iy bo'lishi kerak.

Agar bir asos umumiy tasdiqlovchi bo'lib, boshqasi esa - juz'iy tasdiqlovchi (AI, IA) bo'lsa, unda ularda faqat bir atama - umumiy tasdiqlovchi hukmnинг subyekti taqsimlangan bo'ladi.


Atamalarning 2-qoidasiga binoan bu o'rta atama bo'lishi kerak. Lekin bunday holda ikkita chetki atamalar, shu jumladan, kichik atama, taqsimlanmaydi. Shuning uchun atamalarning 3-qoidasiga muvofiq kichik atama juz'iy hukm bo'ladi dan xulosada taqsimlanmaydi.

Agar asoslardan bittasi tasdiqlovchi bo'lib, boshqasi esa - inkor etuvchi va ularning bittasi juz'iy asos (EI, AO, OA) bo'lsa, unda ikkita atama: umumiy inkor etuvchi hukmnинг (EI) subyekti va predikati yoki umumiy hukmnинг subyekti va juz'iy hukmnинг predikati (AO, OA) taqsimlangan bo'ladi. Lekin har ikkala holda ham asoslarning 2-qoidasiga ko'ra xulosa inkor etuvchi, ya'ni taqsimlangan predikatli hukm bo'ladi. O'rta atama ikkinchi taqsimlangan atama bo'lishi kerakligi sababli (atamalarning 2-qoidasi) kichik atama natijada taqsimlanmagan bo'ladi, ya'ni hukm juz'iy bo'ladi.

44. Qat'iy sillogizmning birinchi figurasi, uning qoidalari, moduslari va bilishdagi roli

Sodda qat'iy sillogizmning asoslarida o'rta atama subyekt yoki predikatning o'rmini egallashi mumkin. Shunga qarab sillogizmning figuralar deb ataladigan to'rtta turi farqlanadi. Sillogizm figuralar - bu uning o'rta atamaning asoslardagi holatiga

qarab-farqlanadigan har xil turlaridir. Birinchi figurada o'rta atama katta asosda subyektning va kichik asoslarda predikatning o'mini egallaydi.



Sifati va soniga ko'ra turlicha bo'lgan hukmlar: umumiy tasdiqlovchi (A), umumiy inkor etuvchi (E), juz'iy tasdiqlovchi (I) va juz'iy inkor etuvchi (O) hukmlar sillogizmning asoslari bo'lishi mumkin. Sillogizm asoslarining miqdoriy va sifatga oid tavsifnomalari bilan farqlanadigan turlari sodda qat'iy sillogizmning moduslari, deyiladi. To'rtta figuradagi variantlarning umumiy soni 64 ta modusdir, lekin ularning faqat 19 tasi to'g'ri, ya'ni hamma qoidalarga muvofiq keladigan bo'lib hisoblanadi. Birinchi figura bo'yicha bular: AAA, EAE, AII, EIO moduslaridir.

Umumiy qoidalardan tashqari, figuralarning maxsus qoidalari ham amal qiladi.


1-figura qoidalari:

1. Katta asos - umumiy hukm.
2. Kichik asos - tasdiqlovchi hukm.

Birinchi figura - deduktiv xulosaning eng tipik shaklidir. Ko'pincha fan qonuni, huquqiy normani ifodalaydigan umumiy qoidadan alohida fakt, yagona holat, aniq shaxs haqidagi xulosa chiqariladi. Bunday figura amaliyotda keng qo'llaniladi. Huquqiy hodisalarining yuridik bahosi (kvalifikatsiyasi), huquq normalarining alohida holatga nisbatan qo'llanilishi, aniq bir shaxs sodir etgan jinoyat uchun jazoning tayinlanishi va boshqa sud yechimlari sillogizmning 1-figurasining mantiqiyligi shaklini qabul qiladi.

45. Qat'iy sillogizmning ikkinchi figurasi, uning qoidalari, moduslari va bilishdagi roli

Ikkinchi figurada o'rta atama har ikkala asosning ham predikati bo'lib keladi.



Sillogizm asoslarining miqdoriy va sifatga oid tavsifnomalari bilan farqlanadigan turlari sodda qat'iy sillogizmning moduslari deyiladi. To'rtta figuradagi variantlarning umumiy soni 64 ta modusdir, lekin ularning faqat 19 tasi to'g'ri, ya'ni hamma qoidalarga muvofiq keladigan bo'lib hisoblanadi, shundan ikkinchi figura bo'yicha: EAE, AEE, EIO, AOO.

Umumiy qoidalardan tashqari, figuralarning maxsus qoidalari ham amal qiladi.

2-figura qoidalari:


1. Katta asos - umumiy hukm.
2. Kichik asos - inkor etuvchi hukm.

Alovida bir holat (aniq shaxs, fakt, hodisa)ning umumiy qoida ostiga keltirilishi mumkin emasligini ko'rsatish zarur bo'lganida 2-figura qo'llaniladi. Ushbu holat katta asosda aylib o'tilgan predmetlar qatoridan istisno etiladi. Amaliyotda 2-figura mazkur aniq holatda xulosalar, umumiy qoidani ifodalaydigan asosda so'z boradigan narsaga zid keladigan qoidalarni inkor qilish uchun qo'llaniladi.

46. Qat'iy sillogizmning uchinchi figurasi, uning qoidalari, moduslari va bilishdagi roli

Uchinchi figurada o'rtacha atama har ikkala asosda ham subyekt bo'lib keladi.

Sifati va soniga ko'ra turlicha bo'lgan hukmlar: umumiy tasdiqlovchi (A), umumiy inkor etuvchi (E), juz'iy tasdiqlovchi (I) va juz'iy inkor etuvchi (O) hukmlar sillogizmning asoslari bo'lishi mumkin.




Sillogizm asoslarining miqdoriy va sifatga oid tavsifnomalari bilan farqlanadigan turlari sodda qat'iy sillogizmning moduslari, deyiladi. To'rtta figuradagi variantlarning umumiy soni 64 ta modusdir, lekin ularning faqat 19 tasi to'g'ri, ya'ni hamma qoidalarga muvofiq keladigan bo'lib hisoblanadi, shundan uchinchi figura bo'yicha: AAI, IAI, AII, EAO, OAO, EIO.

Umumiy qoidalardan tashqari, figuralarning maxsus qoidalari ham amal qiladi.

3-figura qoidalari:

1. Kichik asos - tasdiqlovchi hukm.
2. Xulosa - xususiy hukm.

3-figura faqat xususiy xulosalarni berish bilan ko'pincha bir predmetga tegishli belgilarning qisman bir-biriga mosligini belgilash uchun qo'llaniladi. Amaliyotda 3-figura mulohazalari nisbatan kam ishlataladi. Sillogizmning to'rtinchi figurasida o'rta termin katta asosning predikati, kichik asosning sub'ekti bo'lib keladi.



To'rtinchi figura 5 modusga ega: AAI, AEE, JAJ, EAO, EIO.

47. Sof shartli xulosa

Har ikkala asoslari shartli hukmlar bo'lgan xulosa sof shartli xulosa deyiladi.

Masalan:

Agar ixtiro bir necha fuqarolarning (*r*) birligida ijodiy mehnati bilan yaratilgan bo'lsa, unda ularning hammasi ixtironing ham mualliflari (*q*) deyiladi.

Agar ular ixtironing hammualliflari (r), deb e'tirof etilsa, unda ham mualliflikda yaratilgan ixtiro uchun huquqlardan foydalanish tartibi hammualliflar (r) o'rtasidagi bitimga ko'ra belgilanadi.

Agar ixtiro bir necha fuqarolarning (r) birqalikdagi ijodiy mehnati bilan yaratilgan bo'lsa, unda hammualliflikda yaratilgan ixtiro uchun huquqlardan foydalanish tartibi hammualliflar (r) o'rtasidagi bitimga ko'ra belgilanadi.

Keltirilgan misolda har ikkala asos - shartli hukmlardir, bunda birinchi asosning oqibati ikkinchisining asosi (q) hisoblanadi, undan, o'z navbatida, muayyan oqibat (r) kelib chiqadi. Har ikkala asosning umumiy qismi (q) birinchisining asosini (p) va ikkinchisining oqibatini (r) bog'lashga imkon beradi. Shuning uchun xulosa ham shartli hukm shaklida ifodalanadi.

Sof shartli xulosaning chizmasi:

$$(p \rightarrow q) \wedge (q \rightarrow g)$$

$$(q \rightarrow g)$$

-Sof shartli xulosadagi natija shunday qoidaga asoslanadi: oqibatning oqibati asosning oqibatidir.

Xulosasi ikkita shartli asosdan iborat bo'ladigan xulosa sodda xulosalarga kiradi. Biroq xulosa shartli hukmlar tizimini hosil qiladigan ko'p sonli asoslardan ham kelib chiqishi mumkin. Bunday xulosalar murakkab xulosalar deyiladi.

48. Shartli-qat'iy xulosa

Asoslaridan biri - shartli, boshqa asosi va xulosasi - qat'iy hukmlar bo'ladigan xulosa shartli-qat'iy xulosa deyiladi.

Bunday xulosa ikkita to'g'ri modusga: tasdiqlovchi va inkor etuvchi moduslarga ega bo'ladi.

I) Tasdiqlovchi modusda (modus ponens) qat'iy hukm orqali ifodalangan asos shartli asosning negizlari chinligini tasdiqlaydi, xulosa esa oqibatning chinligini tasdiqlaydi; mulohaza asosning chinligini tasdiqlashdan oqibatning chinligini tasdiqlashga yo'naltirilgan.

Masalan:

Agar da've yuridik salohiyatga ega bo'limgan shaxs (r) tomonidan qo'yilgan bo'lsa, unda sud da'veni ko'rib chiqmaydi (q).

Da've yuridik salohiyatga ega bo'limgan shaxs (r) tomonidan qo'yilgan.

Sud da'veni ko'rib chiqmaydi (q).

Birinchi asos - asos (p) bilan oqibat (p) ning aloqasini ifodalaydigan shartli hukmdir. Ikkinci asos - asosning haqiqatligini (r) tasdiqlaydigan qat'iy hukmdir: da've yuridik salohiyatga ega bo'limgan shaxs tomonidan qo'yilgan. Biz asosining haqiqatligini (r) e'tirof etib, oqibatning haqiqatligini (q) ham tan olamiz: sud da'veni ko'rib chiqmaydi.

Tasdiqlovchi modus ishonchli xulosalarni beradi. U quyidagi chizmaga ega bo'ladi:

2) Inkor etuvchi modusda (modus tollens) qat'iy hukm orqali ifodalangan asos shartli asosning oqibati chinligini inkor etadi, xulosa esa asosning chinligini inkor qiladi. Mulohaza oqibatning chinligini inkor qilishdan asosning chinligini inkor qilishga yo'naltirilgan. Masalan:

Agar da'vo yuridik salohiyatga ega bo'limgan shaxs (r) tomonidan qo'yilgan bo'lsa, unda sud da'veoni ko'rib chiqmaydi (q).

Sud da'veoni ko'rib chiqqan ($\neg q$).

Da'veoning yuridik salohiyatga ega bo'limgan shaxs (r) tomonidan qo'yilganligi to'g'ri emas ($\neg r$).

Inkor etuvchi modusning chizmasi:

Shuni aniqlash mumkinki, shartli-qat'iy sillogizmning: asosning haqiqatligini inkor etishdan oqibatning haqiqatligini inkor etishga va oqibatning haqiqatligini tasdiqlashdan asosning haqiqatligini tasdiqlashga yo'naltiriladigan yana ikkita turi bo'lishi mumkin.

Biroq bu moduslarga doir xulosa ishonchli bo'lmaydi. SHunday qilib, shartli-qat'iy xulosaning asoslarning barcha ehtimol tutilgan kombinatsiyalarini istisno etadigan to'rtta moduslaridan ikkitasi: tasdiqlovchi va inkor etuvchi moduslar ishonchli xulosalarni beradi. Ular mantiq qonunlarini ifodelaydi va shartli-qat'iy xulosaning to'g'ri moduslari deyiladi. Bu moduslar shunday qoidaga bo'ysunadi: asosning tasdiqlanishi oqibatning tasdiqlanishiga va oqibatning inkor etilishi - asosning inkor qilinishiga olib boradi. Boshqa ikkita modus ishonchli xulosalarni bermaydi. Ular noto'g'ri moduslar deyiladi va shunday qoidaga bo'ysunadi: asosning inkor etilishi zaruriy inkor qilishga olib bormaydi va oqibatning tasdiqlanishi asosning zaruriyat bilan tasdiqlanishiga olib bormaydi.

49. Ajratuvchi-qat'iy xulosa

Asoslaridan biri - ajratuvchi, boshqa asosi va xulosa qat'iy hukmlar bo'lgan xulosa ajratuvchi-qat'iy xulosa deyiladi.

Ajratuvchi (diz'yunktiv) hukmni tashkil etadigan sodda hukmlar diz'yunksiyaning a'zolari yoki diz'yunktlar, deyiladi. Masalan, "Obligatsiyalar taqdim etiladigan yoki egasining nomi ko'rsatilgan bo'lishi mumkin" degan ajratuvchi hukm "yoki" mantiqiy bog'lovchisi bilan birikkan: "Obligatsiyalar taqdim etiladigan bo'lishi mumkin" va "Obligatsiyalar egasining nomi ko'rsatilgan bo'lishi mumkin" degan ikkita hukm - diz'yunktlardan iborat bo'ladi.

Biz diz'yunksiyaning bitta a'zosini tasdiqlash bilan boshqasini zaruriy tarzda inkor etishimiz kerak va ularning bittasini inkor etish bilan - boshqasini tasdiqlashimiz lozim. Shunga muvofiq ravishda ajratuvchi-qat'iy xulosaning ikkita

modusi: tasdiqlovchi-inkor etuvchi va inkor etuvchi-tasdiqlovchi moduslari farqlanadi.

1. Tasdiqlovchi-inkor etuvchi modusda (modus ponendo tollens) qat'iy hukm bo'lgan kichik asos diz'yunksiyaning bir a'zosini tasdiqlaydi, yana bir qat'iy hukm - xulosa - uning boshqa a'zosini inkor etadi. Masalan:

Obligatsiyalar taqdim etiladigan (r) yoki egasining nomi ko'rsatilgan (q) bo'lishi mumkin.

Ushbu obligatsiya taqdim etiladigan (r) obligatsiyadir.

-Ushbu obligatsiya egasining nomi ko'rsatilgan (q) obligatsiyadir.

Tasdiqlovchi-inkor etuvchi modusning chizmasi:

$$P \sqsupset q \neq q, p$$

* - qat'iy diz'yunksiya ramzi.

Agar quyidagi qoidaga rioya qilinsa, unda ushbu modus bo'yicha xulosa har doim ishonchli bo'ladi: katta asos istisno etuvchi-ajratuvchi hukm yoki qat'iy diz'yunksiya hukmi bo'lishi kerak. Agar bunday qoidaga rioya etilmasa, unda ishonchli xulosani olib bo'lmaydi. Aslida, "O'g'irlikni K. yoki L. sodir qilgan" va "O'g'irlik K. tomonidan sodir etilgan" degan asoslardan "L. o'g'irlikni sodir qilmagan" degan zaruriy xulosa kelib chiqmaydi. Ehtimol, L. ham o'g'irlik sodir etilishiga daxldor, K.ning sherigi bo'lishi ham mumkin.

2. Inkor etuvchi-tasdiqlovchi modusda (modus tollendo ponens) kichik asos bir diz'yunktni inkor etadi, xulosa boshqacini tasdiqlaydi. Masalan:

Obligatsiyalar taqdim etiladigan (r) yoki egasining nomi ko'rsatilgan (q) bo'lishi mumkin.

Ushbu obligatsiya taqdim etilmaydigan ($\neg r$) obligatsiyadir.

Ushbu obligatsiya egasining nomi ko'rsatilgan (q) obligatsiyadir.

Inkor etuvchi-tasdiqlovchi modusning chizmasi:

$$< p \vee q > \neg p$$

q

<> - yopiq diz'yunksiya ramzi.

Tasdiqlovchi xulosa inkor etish vositasida olindi: biz bir diz'yunktni inkor etish bilan boshqasini tasdiqlaymiz.

Agar quyidagi qoidaga rioya qilinsa, unda ushbu modus bo'yicha xulosa har doim ishonchli bo'ladi: katta asosda barcha ehtimol tutilgan hukmlar - diz'yunktlar sanab o'tilishi kerak, boshqacha aytganda, katta asos to'liq (yopiq) diz'yunktiv fikr bo'lishi lozim. Noto'liq (ochiq) diz'yunktiv fikrni qo'llash bilan ishonchli xulosani olib bo'lmaydi. Masalan:

Bitim ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama bo'lishi mumkin.

Tuzilgan bitim ikki tomonlama emas.

Tuzilgan bitim ko'p tomonlamadir.

Biroq bu xulosa yo'g'on bo'lishi ham mumkin, chunki katta asosda bitimlarning barcha ehtimol bo'lgan turlari hisobga olinmagan: asos noto'liq yoki ochiq, diz'yunktiv fikrdan iboratdir (bitim bir tomonlarna bo'lishi ham mumkin, uni tuzish uchun bir shaxsnинг o'z roziligini bildirishi - ishonchnomani berishi, vasiyatnomaga to'ldirishi, merosdan voz kechishi va shu kabilar yetarli bo'ladi).

Ajratuvchi asos diz'yunksiyaning ikkita emas, balki uchta va undan ko'proq a'zosini o'z ichiga olishi mumkin.

Ajratuvchi-qat'iy xulosa amaliyotda, ayniqsa taxminiy fikrlarni qurish va tekshirishda keng qo'llaniladi.

50. Shartli-ajratuvchi xulosa

Bir asosi shartli hukm bo'lib, boshqasi - ajratuvchi hukm bo'lgan xulosa shartli-ajratuvchi yoki lemmatik (lotinchadan - gipoteza) xulosa, deyiladi.

Ajratuvchi hukm ikki, uchta va undan ko'proq sonli alternativalarini o'z ichiga olishi mumkin, shuning uchun lemmatik xulosalar dilemmalar (ikkita alternativa), trilemmalar (uchta alternativa) va shu kabilarga bo'linadi.

Dilemma misolida shartli-ajratuvchi xulosaning tuzilmasi va turlarini ko'rib chiqamiz. Dilemmalarning ikki turi: konstruktiv (bunyodkor) va destruktiv (buzg'unchi) dilemmalar mavjud bo'lib, ularning har biri sodda va murakkab dilemmalarga bo'linadi.

Sodda konstruktiv dilemmada shartli asos ikkita asosni o'z ichiga oladi, ulardan ayni bir xil oqibat kelib chiqadi. Ajratuvchi asos har ikkala ehtimol tutilgan asoslarni, xulosa esa - oqibatni tasdiqlaydi. Mulohaza asoslarning chinligini tasdiqlashdan oqibatning chinligini tasdiqlashga yo'naltirilgan.

Sodda konstruktiv dilemmaning chizmasi:

$$(p \rightarrow q) \wedge (r \rightarrow s), p \vee r$$

$$q \vee s$$

Agar ayblanuvchi oldindan ma'lum bo'lgan noqonuniy hibsga olishda (r) aybdor bo'lsa, unda u odil sudlovga qarshi jinoyat (r) uchun jinoiy javobgarlikka tortilishi kerak; agar u oldindan ma'lum bo'lgan noqonuniy qamoqqa olishda (q) aybdor bo'lsa, unda u ham odil sudlovga qarshi jinoyat (r) uchun jinoiy javobgarlikka tortilishi kerak.

Ayblanuvchi yo oldindan ma'lum bo'lgan noqonuniy hibsga olishda (r) aybdor yoki u oldindan ma'lum bo'lgan noqonuniy qamoqqa olishda (q) aybdor. Ayblanuvchi odil sudlovga qarshi jinoyat (r) uchun jinoiy javobgarlikka tortilishi kerak bo'ladi. Murakkab konstruktiv dilemmada shartli asos ikkita asosni va ikkita oqibatni o'z ichiga oladi. Ajratuvchi asos har ikkala ehtimol tutilgan oqibatlarni tasdiqlaydi. Mulohaza asoslarning chinligini tasdiqlashdan oqibatning chinligini tasdiqlashga yo'naltirilgan.

Murakkab konstruktiv dilemmaning chizmasi:

$$(p \rightarrow q) \wedge (r \rightarrow s), p \vee r$$

$$q \vee s$$

Sertifikat taqdim etiladigan (r) yoki egasining nomi ko'rsatilgan (r) bo'lishi mumkin.

Sodda destruktiv dilemmada shartli asos bitta asosni o'z ichiga oladi, undan ikkita ehtimol tutilgan oqibat kelib chiqadi. Ajratuvchi asos har ikkala oqibatni, xulosa esa - asosni inkor qiladi. Mulohaza oqibatlarning chinligini inkor qilishdan asosning chinligini inkor qilishga yo'naltirilgan.

Sodda destruktiv dilemmaning chizmasi:

$$(p \rightarrow q) \wedge (r \rightarrow s), \neg q \vee \neg r$$

$$\neg p$$

Misol.

Agar N. qasddan qilingan jinoyatni (r) sodir etgan bo'lsa, demak, uning harakatlarida bevosita (q) yoki bilvosita niyat (r) bo'lgan.

Lekin N.ning harakatlarida na bevosita (q), na bilvosita (r) niyat bo'lmagan.

N. sodir etgan jinoyat qasddan qilingan jinoyat (p) hisoblanmaydi.

Murakkab destruktiv dilemma shartli asos ikkita asosni va ikkita oqibatni o'z ichiga oladi. Ajratuvchi asos har ikkala oqibatlarni inkor qiladi. Mulohaza oqibatlarning chinligini inkor qilishdan asoslarining chinligini inkor etishga yo'naltirilgan.

Murakkab destruktiv dilemmaning chizmasi:

$$(p \rightarrow q) \wedge (r \rightarrow s), \neg q \vee \neg s$$

$$\neg p \vee \neg r$$

Misol.

Agar korxona ijara korxonasi (r) bo'lsa, unda u tadbirkorlik faoliyatini o'zi ijara olgan mulkiy kompleks (q) asosida amalga oshiradi; agar u jamoa korxonasi (r) bo'lsa, unda bunday faoliyatni o'z mulkchiligidagi bo'lgan mol-mulk (s) asosida amalga oshiradi.

Mazkur korxona o'z faoliyatini o'zi ijara olgan mulkiy kompleks (q) asosida ($\neg q$) ham, o'z mulkchiligidagi bo'lgan mol-mulk ($\neg s$) asosida ham amalga oshirmaydi.

Mazkur korxona ijara ($\neg p$) yoki jamoa ($\neg r$) korxonasi ham emas.

51. Qisqartirilgan sillogizm (entimema)

Hamma qismlari - har ikkala asosi va xulosa ifodalangan sillogizm to'liq sillogizm, deyiladi. Biroq amaliyatda ko'pincha asoslaridan biri yoki xulosa yaqqol ifodalanmaydigan, balki nazarda tutiladigan sillogizmlar qo'llaniladi.

Asosi yoki xulosa tushirib qoldirilgan sillogizm qisqartirilgan sillogizm yoki entimema (grekchadan - xotirada), deyiladi.

Sodda qat'iy sillogizmning entimemalari, ayniqsa birinchi figura bo'yicha xulosalar keng qo'llaniladi. Masalan: "N. jinoyat sodir qilgan va shuning uchun jinoi javobgar bo'lishi kerak". Bu erda "Jinoyatni sodir qilgan shaxs jinoi javobgar bo'lishi lozim", degan katta asos tushirib qoldirilgan. U shakllantirilishi shart bo'lmagan umumiy ma'lum qoidadir.

To'liq sillogizm 1-figura bo'yicha quriladi:

Jinoyatni sodir qilgan shaxs (M) jinoi javobgar bo'lishi lozim.

N. (S) jinoyat (M) sodir qilgan.

N. (S) jinoi javobgar bo'lishi (R) kerak.

Nafaqat katta asos, shu bilan birga kichik asos va xulosa ham tushirib qoldirilishi mumkin: "Jinoyatni sodir qilgan shaxs jinoi javobgar bo'lishi lozim, demak N. jinoi javobgar bo'lishi kerak". Yoki: "Jinoyatni sodir qilgan shaxs jinoi javobgar bo'lishi lozim, N. esa jinoyatni sodir qilgan". Sillogizmning tushirib qoldirilgan qismlari gipoteza qilinadi.

Sillogizmning qaysi qismi tushirib qoldirilganligiga qarab entimemaning uch turi: katta asosi tushirib qoldirilgan, kichik asosi tushirib qoldirilgan va xulosasi tushirib qoldirilgan entimemalar farqlanadi.

Entimema shaklidagi xulosa 2-figura bo'yicha ham qurilishi mumkin; u 3-figura bo'yicha juda kam quriladi.

Shuningdek, shartli va ajratuvchi hukmlar asos bo'ladigan xulosalar ham entimema shaklini qabul qilishi mumkin.

Katta asosi tushirib qoldirilgan shartli-qat'iy sillogizm: "Jinoi ish qo'zg'atilishi mumkin emas, chunki jinoyat hodisisi yuz bermagan". Bu yerda katta asos - "Agar jinoyat hodisisi yuz bermagan bo'lsa, jinoi ish qo'zg'atilishi mumkin emas", degan shartli hukm tushirib qoldirilgan. U Jinoyat-protsessual kodeksining gipoteza qilinadigan ma'lum qoidasini o'z ichiga oladi.

Katta asosi tushirib qoldirilgan shartli-qat'iy sillogizm: "Mazkur ish bo'yicha oqlov hukmi chiqarilishi mumkin emas, hukm ayblov hukmi bo'lishi kerak".

Katta asos - "Mazkur ish bo'yicha yo oqlov hukmi, yo ayblov hukmi chiqarilishi mumkin" ajratuvchi hukmi ifodalananmaydi.

Xulosa tushirib qoldirilgan shartli-qat'iy sillogizm: "O'lim yo qotillik natijasida, yo o'zini o'zi o'ldirish natijasida, yo baxtsiz hodisa natijasida, yo tabiiy sabablar sababli yuz bergen. O'lim baxtsiz hodisa natijasida yuz bergen".

Boshqa barcha alternativalarni inkor etadigan xulosa odatda ifodalananmaydi.

Qisqartirilgan sillogizmlarning qo'llanilishi shu bilan bog'liqki, tushirib qoldirilgan asos yoki xulosa yo og'zaki yoki yozma bayon qilishga muhtoj bo'lmagan ma'lum qoidani o'z ichiga oladi, yo u xulosaning ifodalangan qismlari kontekstida osonlik bilan gipoteza qilinadi. Aynan shuning uchun mulohaza, odatda, entimemalar shaklida kechadi. Lekin entimemada xulosaning hamma qismlari ham ifodalananmagani sababli unda pinhon bo'lgan xatoni topish to'liq xulosadagi xatoni topishga nisbatan qiyinroqdir. Natijada mulohazaning to'g'rilingini tekshirish uchun

xulosaning tushirib qoldirilgan qismlarini topish va entimemani to‘liq sillogizm qilib qayta tiklash kerak bo‘ladi.

52. Induktiv xulosa, uning turlari va mantiqiy tuzilishi

Alovida hodisalar haqidagi bilimdan umumiymi bilishga mantiqiy o‘tish induktiv xulosa yoki induksiya (lotinchadan - to‘g‘rilash) shaklida sodir etiladi.

Belgining muayyan sinfnинг alovida predmetlari yoki qismlariga mansubligi asosida uning umuman sinfga tegishli ekanligi haqida chiqariladigan xulosa induktiv xulosa, deyiladi.

Masalan, fizika tarixida temir sterjenlar elektr quvvatini yaxshi o‘tkazishi tajriba yo‘li bilan aniqlangan. Xuddi shunday xususiyat mis sterjenlarda va kumushda ham aniqlangan. Ko‘rsatilgan o‘tkazuvchilarning metallarga mansubligini hisobga olib, elektr o‘tkazish xususiyati hamma metallarga xosdir, degan induktiv umumlashtirish qilingan.

Tajriba yo‘li bilan olingan, R belgisining aynan bir K. sinfiga tegishli bir qator: S_1, S_2, \dots, S_n hodisalarida takrorlanishi haqidagi axborot qayd qilinadigan hukmlar induktiv xulosaning asoslari bo‘ladi. Xulosa chizmasi shunday ko‘rinishda bo‘ladi:

- 1) S_1 R belgisiga ega;
- 2) S_2 R belgisiga ega;

.....

S_n P belgisiga ega.

- 2) $S_1; S_2, \dots, S_n$ - K sinfining unsurlari (qismlari).

K sinfidagi hamma predimetlarga R belgisi xosdir.

Induktiv xulosada olamning qonuniy rivojlanishi sababli aloqaning umumiytusi, hodisalarning zaruriy belgilarning ularning umumiyligi va barqaror takrorlanuvchanligi orqali namoyon bo‘lishi haqidagi ming yillik amaliyot bilan tasdiqlanadigan qoida asoslardan xulosaga mantiqiy o‘tishga asos bo‘ladi. Ayni shu metodologik qoidalarni induktiv xulosalarning mantiqiy yaroqliligi va samaradorligini oqlaydi.

Bilish jarayonida induktiv xulosalarning asosiy funksiyasi - umumiyligi olishdir. Bunday umumlashtirishlar o‘zining mazmuni va bilishga oid ahamiyatiga ko‘ra - kundalik amaliyotning eng oddiy umumlashtirishlaridan fandagi empirik umumlashtirishlarga yoki umumiyligi qonunlarni ifodalaydigan universal hukmlargacha bo‘lgan turlicha tusga ega bo‘lishi mumkin.

Amaliyotda induktiv xulosalar muhim o‘rin tutadi - ular asosida odamlar, harakatlarning motivlari va maqsadlari, xarakat usullari, harakatlariga bildiriladigan tipik munosabatlari va shu kabilar o‘rtasidagi oddiy munosabatlarga tegishli ko‘p sonli umumlashmalar shakkantiriladi.

Empirik tadqiqotning to‘liqligi va tugallanganligiga qarab induktiv xulosalarning ikki turi: to‘liq induksiya va noto‘liq induksiya farqlanadi. Noto‘liq induksiya boshlang‘ich materialning tanlab olinishi usuliga ko‘ra ommaviy va ilmiy induksiya farqlanadi. Ilmiy induksiya tadqiqot usuliga qarab tanlab olish uslubi bilan olingan induksiya va istisno qilish uslubi bilan olingan induksiya bo‘linadi.

53. To'liq induksiya va uning bilishdagi roli

To'liq induksiya - bu sinfning har bir unsur yoki har bir qismiga muayyan belgining tegishli ekanligi asosida uning umuman sinfga mansubligi haqida xulosa chiqariladigan xulosadir.

Bunday tipdag'i induktiv xulosalar faqat unsurlari soni pirovard va osonlik bilan sharhanadigan yopiq sinflar bilan ishlaydigan hollarda qo'llaniladi. Masalan, Yevropadagi davlatlar soni, ushbu mintaqadagi sanoat korxonalari soni, mazkur davlatdagi federatsiya subyektlari soni va hokazo.

Tasavvur qilaylikki, auditorlik komissiyasi oldiga aniq bir bank birlashmasi filiallарidagi moliyaviy intizom holatini tekshirish vazifasi qo'yilgan. Ma'lumki, uning tarkibiga beshta alohida filiallar kiradi. Bunday hollarda tekshirishning odadtagi usuli - beshta bankning har biri faoliyatini tahlil qilishdir. Agar ulardan bittasida ham moliyaviy tartib buzishlar aniqlanmasa, unda shu bilan umumlashtiruvchi xulosa chiqariladi: bank birlashmasining hamma filiallari ham moliyaviy intizomga rioya etadi.

To'liq induksiya xulosalarining chizmasi shunday shaklda bo'ladi:

- 1) S₁ R belgisiga ega;
S₂ R belgisiga ega;
S_n P belgisiga ega.
- 2) S₁; S₂, ..., S_n - K sinfini tashkil etadi.

K sinfidagi hamma predmetlarga R belgisi xosdir.

Ushbu xulosaning asoslarida ifodalangan sinfning har bir unsuri yoki har bir qismi haqidagi axborot tadqiqot to'liqligining ko'rsatkichi va belgini butun sinfga mantiqiy o'tkazish uchun yetarli asos bo'lib xizmat qiladi. Bu bilan to'liq induksiya xulosasidagi natija oshkora tus oladi. Bu asoslar haqiqat bo'lganida xulosaning ham zaruriy tarzda haqiqiy bo'lishini anglatadi.

To'liq induksiyadagi xulosaning bilishga oid roli hodisalar sinfi yoki jinsi haqidagi yangi bilimni shakllantirishda namoyon bo'ladi. Belgining alohida predmetlardan umuman sinfga mantiqiy o'tkazilishi oddiy bir jamlash bo'lmaydi. Sinf yoki jins haqidagi bilim - bu yagona asoslarga nisbatan yangi bosqichdan iborat bo'ladigan umumlashmadir.

Sud tadqiqotida ko'pincha inkor etuvchi xulosalarga ega to'liq induksiya shaklidagi dalillovchi mulohazalar qo'llaniladi. Masalan, har xil turlarni istisno etadigan tarzda qayta sanab o'tish orqali jinoyat sodir etilishining muayyan usuli, jinoyatchining jinoyat sodir etiladigan joyga kirib olish usuli, jarohat yetkazilgan qurol tipi va shu kabilar istisno etiladi.

To'liq induksiyaning mulohazalarda qo'llanilishi ko'plab hodisalarining amalda qayta sanab chiqilishi bilan belgilanadi. Agar predmetlarning butun sinfini qamrab olish mumkin bo'limasa, unda umumlashma noto'liq induksiya shaklida quriladi.

54. Noto'liq induksiya va uning turlari

Noto'liq induksiya - bu belgining sinfning muayyan elementlariga yoki qismlariga mansubligi asosida uning umuman sinfga tegishli ekanligi haqidagi xulosa chiqariladigan xulosadir.

- 1) S₁ R belgisiga ega;
S₂ R belgisiga ega;

.....
S_n P belgisiga ega.

- 2) S₁; S₂, ..., S_n - K sinfiga tegishlidir.

Aftidan, K sinfiga R belgisi xosdir.

Induktiv umumlashmaning noto'liqligi uning hamma narsani emas, balki faqat sinfnинг S₁ dan S_n gacha bo'lgan ayrim unsurlari yoki qismlarini tadqiq qilishida ifodalanadi. Noto'liq induksiyaning sinfnинг ayrim elementlaridan uning barcha elementlari yoki qismlariga mantiqiy o'tishi asossiz bo'lmaydi. U empirik asoslar - belgilarning umumiyligi tusi bilan ularning tajribada ayrim hodisalar turi uchun barqaror takrorlanuvchanligi o'ttasidagi obyektiv bog'liqlik bilan oqlanadi. Shu sababli noto'liq induksiya amaliyatda keng qo'llaniladi. Masalan, hosilni yig'ib-terish paytida olingan alohida namunalar asosida donning katta turkumining ifloslanganligi, namligi va boshqa tavsifnomalari to'g'risida xulosa chiqariladi. Ishlab chiqarish sharoitlarida tanlab olingan namunalar bo'yicha u yoki boshqa ommaviy mahsulotning sifati haqida xulosa chiqariladi.

Ayrim belgilardan hamma belgilarga tomon induktiv o'tish mantiqiy zarurat bo'la olmaydi, chunki belgining takrorlanuvchanligi oddiy mos kelishning natijasi bo'lishi ham mumkin.

Shu bilan noto'liq induksiya uchun susaygan mantiqiy oqibat xos bo'ladi - chin asoslar ishonchli emas, balki faqat muammoli xulosani olishni ta'minlaydi. Bunda umumlashmaga zid keladigan hech bo'limganda bitta holatning aniqlanishi induktiv xulosani yaroqsizga chiqaradi.

Shu asosda noto'liq induksiya haqiqatga yaqin (oshkor bo'limgan) xulosalarga kiritiladi. Bunday natijalarda xulosa eng kam ehtimollikdan ancha chinlikka yaqinlikkacha o'zgarib turadigan muayyan ehtimollik darajasiga ega chin asoslardan kelib chiqadi.

Induktiv xulosa asoslarini shakllantirishning uslubiyligi yoki bir tizimliliqida namoyon bo'ladigan boshlang'ich materialni tanlab olish usuli noto'liq induksiya natijalarida mantiqiy oqibat tusiga katta ta'sir ko'rsatadi. Tanlab olish usuliga ko'ra noto'liq induksiyaning ikki turi: o'tkazish yo'li bilan olingan ommaviy induksiya va tanlab olish yo'li bilan olingan ilmiy induksiya farqlanadi.

55. Ommaviy induksiya

Belgining sinfnинг ayrim predmetlari yoki qismlariga mansubligi o'tkazish yo'li bilan aniqlanadigan va shu negizda uning butun sinfga tegishli ekanligi haqida muammoli tarzda xulosa chiqariladigan umumlashma ommaviy induksiya deyiladi.

Odamlar ko'p asrlik faoliyat jarayonida ko'pgina hodisalarining barqaror takrorlanuvchanligini kuzatishadi. Yuz bergen voqeа va hodisalarни izohlash hamda kelgusida bo'lishi mumkinlarini bashorat qilish uchun qo'llaniladigan umumlashmalar shu asosda paydo bo'ladi. Bu turdagи umumlashmalar ob-havoni, iqlim sharoitlarining hosliga ta'siri, kasalliklarning tarqalishi sabablari, odamlarning muayyan vaziyatlardagi fe'l-atvori, ularning o'zaro munosabatlari va boshqalarni

kuzatishlar bilan bog'liq bo'ladi. Bunday umumlashmalarning ko'pchiligining mantiqiy mexanizmi - ommaviy induksiyadir. Uni ba'zan sodda o'tkazish orqali induksiya deb ham atashadi.

Belgilarning takrorlanuvchanligi ko'p hollarda haqiqatan ham hodisalarning umumiy xususiyatlarini aks ettiradi. Uning negizida qurilgan umumlashmalar odamlarning amaliy faoliyatida muhim yo'naltiruvchi asoslar funksiyasini bajaradi. Ana shunday eng sodda umumlashmalsiz mehnat faoliyatining mehnat qurollarini takomillashtirish, dengizda suzishning rivoji, dehqonchilikning muvaffaqiyatli yuritilishi, ijtimoiy muhitda odamlar o'rtasidagi aloqalar kabi biron bir turini bajarish mumkin bo'lmaydi.

Jinoyatlarni tergash jarayonida ko'pincha jinoyatga daxldor shaxslarning fe'l-atvoriga tegishli empirik induktiv umumlashmalar ishlataladi. Masalan: jinoyat sodir qilgan shaxslar sud va tergovdan yashirinishga intilishadi; o'ldirish haqidagi po'pisa ko'pincha ijro qilinadi; o'g'irlangan (jinoyat ustida qo'lga tushirilgan) buyumlarning aniqlanishi jinoyatga daxldorlikdan dalolat beradi. Tajribadan o'tgan bunday umumlashmalar yoki ko'pincha yuridik adabiyotlarda aytildiganidek: faktik prezumpsiylar aslida muammoli hukmlar bo'lishiga qaramasdan, ko'pincha tergovga katta yordam beradi.

Ommaviy induksiya ilmiy bilimlar rivojidagi ilk qadamlarni ham belgilab beradi. Har qanday fan empirik tadqiqotdan - tegishli obyektlarni bayon qilish, tasniflash, barqaror aloqalari, munosabatlari va o'zaro bog'liqliklarini aniqlash maqsadida ular ustidan olib boriladigan kuzatuvdan boshlaydi. Fandagi dastlabki umumlashmalar takrorlanadigan belgilarni oddiy sanab o'tish yo'li bilan chiqarilgan eng sodda induktiv xulosalar tufayli amalga oshirilgan. Ular keyinchalik tekshirish va aniqlashtirishga muhtoj bo'lgan boshlang'ich gipotezalar, taxminlar va gipotetik izohlashlarning muhim evristik funksiyasini bajaradi.

Sinfning faqat ayrim vakillari tadqiq qilinadigan sharoitda xato umumlashma qilinishi ehtimoli ham istisno etilmaydi.

Ommaviy induksiya yordamida olingen va uzoq vaqt davomida Yevropada keng yoyilgan: "Hamma oqqushlar oppoqdir" degan umumlashma shunga misol bo'lishi mumkin. Bunday fikr zid keladigan hollar uchramagan ko'p sonli kuzatuvlar asosiga qurilgan. XVII asrda Avstraliyaga borib qolgan yevropaliklar qora oqqushlarni uchratganidan keyin mazkur qaror topgan fikr inkor etilgan.

Ommaviy induksiya natijalari haqidagi xato xulosalar umumlashmani yaroqsizga chiqaradigan, bir-biriga zid keladigan hollarni hisobga olish haqidagi talablarga rioya etilmasligi tufayli paydo bo'ladi. Dalillarning tegishliligi muammosi hal etiladigan sud oldidan o'tkaziladigan tergov jarayonida, ya'ni ko'pgina faktik holatlardan faqat tergovchining fikricha, ishga daxldor bo'lganlarini tanlab olish paytida shunday hol yuz beradi. Bunday holda, ehtimol, faqat bitta, haqiqatga o'xshab ketadigan yoki "yurakka eng yaqin" taxminiy fikrga tayanib, ishning nuqul tasdiqlovchi holatlari tanlab olinadi. Boshqa faktlar va, avvalo, boshlang'ich taxminiy fikrga zid keladigan faktlar e'tiborsiz qoldiriladi. Ko'pincha ularni shunchaki ko'rishmaydi va shu sababli hisobga olishmaydi. Shuningdek, bir-biriga zid keladigan faktlar ham madaniyat etishmasligi, e'tiborsizlik yoki kuzatuvdag'i

nuqsonlar tufayli e'tibor doirasidan chetda qoladi. Bunday holda tergovchi faktlar asiri bo'lib qoladi: u ko'plab hodisalar orasidan faqat tajribada eng ko'p uchratganlarini qayd qiladi va ular a'sosida shoshilinch umumlashma chiqaradi. Ana shunday xomxayol ta'sirida keyingi kuzatuvlarda bir-biriga zi'd keladigan holatlarni nafaqat kutishmaydi, balki ularning bo'lishi mumkinligini butunlay inkor etishadi.

Xato induktiv xulosalar nafaqat adashish natijasida, shu bilan birga bir-biriga zi'd keladigan holatlarni ongli ravishda mensimmaslik yoki yashirish bilan noto'g'ri, oldindan o'ylab qo'yilgan umumlashma chiqarilishida ham paydo bo'lishi mumkin. Bunday soxta induktiv umumlashmalar hiyla sifatida ishlatalishi mumkin.

Yaglish qurilgan induktiv umumlashmalar ko'pincha turli xil xurofotlar, johil afsonalarga asos bo'ladi va "yomon ko'z", "yaxshi" va "noxush" tushlar, yo'lni kesib o'tadigan qora mushuk va shu kabilar tusini oladi.

56. Ilmiy induksiya

Umumlashma zaruriy holatlarni tanlab olish va tasodifiy holatlarni rad qilish yo'l bilan quriladigan xulosa ilmiy induksiya deyiladi.

Tadqiqot usullariga qarab tanlab olish uslubiga ko'ra olingan induksiya (seleksiya) va istisno etish uslubiga ko'ra olingan induksiya (eliminatsiya) farqlanadi.

1. Tanlab olish uslubiga ko'ra olingan induksiya.

Tanlab olish uslubiga ko'ra olingan induksiya yoki selektiv induksiya - bu belgining sinfga (ko'pchilikka) mansubligi haqidagi xulosa ushbu sinfning har xil qismlaridan uslubiy tanlab olish yo'l bilan olingan namuna (kichik ko'pchilik) haqidagi bilimga asoslanadigan xulosadir.

- Agar ommaviy umumlashmada R belgisining K sinfida bir tekisdagi taqsimlanishi haqidagi gipotezaga asoslanib, shu bilan uning oddiy takrorlanuvchanlikda (S_1, S_2, \dots, S_n) K ga o'tishiga yo'l qo'yilsa, unda ilmiy induksiyada K ko'pchilikning turli qismlarida R notejis taqsimlangan bir xilda bo'lmagan ko'pchilikdan iborat bo'ladi.

Namunani shakkantirishda kuzatuv sharoitlarini o'zgartirish kerak. K ning turli qismlaridan R ning tanlab olinishi namunaning vakolatini yoki reprezentlligini ta'minlash uchun bu qismlarning o'ziga xos xususiyatlari, vazni va mohiyatini hisobga olishi lozim.

Janubiy viloyatlardan birini kesib o'tadigan katta yo'l bo'ylab o'tishda yo'l davomida bir necha (masalan, oltita) tumanlardagi dalalarga kuzgi bug'doyning ayni bir xil navi ekilganligini qayd qilishadi. Agar shu asosda umumlashma qilinadigan bo'lsa, unda 25 ta tumanning hammasida, demak, butun viloyatda aynan bir nav ekilgan, degan umumlashma chiqarish mumkinki, shubhasiz, bunday ommaviy induksiya juda ham to'g'ri xulosani bermaydi.

Agar xuddi shu sondagi tumanlar tasodifan, yo'l bo'ylab ketayotib tanlab olinmasdan, balki ularning joylashgan joyi va iqlim sharoitlaridagi tafovutlarni hisobga olib tanlanganida ish boshqacha bo'ladi. Agar janubiy va shimoliy, ichki va chetdagi, cho'l va o'rmon-dashtli tumanlar tanlanib, bunda navning takrorlanishi

belgilanganida: butun viloyatda kuzgi bug'doyning ayni bir xildagi navi ekiladi, degan ko'proq ehtimolli gipoteza qilish mumkin bo'lardi.

Bu holda ishonchli xulosaning asosli bo'lishi mushkul, chunki bevosita kuzatilmagan boshqa tumanlarda boshqa nav ekilgan bo'lishi ehtimolini istisno qilib bo'lmaydi.

2. Istisno etish uslubiga ko'ra olingan induksiya yoki eliminativ induksiya - bu tadqiq qilinayotgan hodisalarining sabablari haqidagi natijalar tasdiqlovchi holatlarni aniqlash va sababli aloqa xususiyatlariiga mos kelmaydigan holatlarni inkor etish yo'li bilan quriladigan xulosalar tizimidir.

Eliminativ induksiyaning bilishdagi roli - sababli aloqalar tahliliidir. Bittasi oldin yuz beradigan va boshqa harakatni keltirib chiqaruvchi sabab bo'ladigan ikkita hodisa o'rtasidagi aloqa sababli aloqa, deyiladi. Sababli aloqaning eliminativ induksiyaning uslubiyligini oldindan belgilab beradigan: umumiylik, zamondagi izchillik, zaruriylik va bir ma'nolilik kabi tavsifnomalari uning eng muhim xususiyatlari bo'ladi.

(1) Sababli aloqaning umumiyligi dunyoda sababsiz hodisalar bo'lmasligini anglatadi.

(2) Zamondagi izchillik sababning har doim oqibatdan oldin yurishini bildiradi. Ayrim hollarda oqibat sababdan keyin darhol, sanoqli daqiqalar ichida yuz beradi. Masalan, patron ichidagi kapsyul alanga olishi hamon o'qotar quroldagi o'q otilib ketadi. Boshqa hollarda sabab birmuncha ko'proq vaqt o'tganidan keyin oqibatni keltirib chiqaradi. Masalan, zahar bilan zaharlanish zaharning kuchiga va organizmning holatiga qarab bir necha daqiqa, minut, soat yoki kundan keyin yuz berishi mumkin. Ijtimoiy sohada sababli aloqalar ko'plab oyalar va yillar davomida, geologiyada esa - asrlar va ming yilliklar mobaynida amalga oshishi mumkin.

Sabab har doim oqibatdan oldinda yurishi sababli induktiv tadqiqot jarayonida ko'plab holatlar ichidan faqat bizni qiziqtiradigan oqibatdan oldin yuz bergenlari tanlab olinadi va u bilan ayni bir vaqtda yuz bergenlari va undan so'ng paydo bo'lganlari ko'rib chiqilmaydi (eliminatsiya qilinadi).

Zamondagi izchillik - bu sababli aloqaning zaruriy shartidir, lekin uning o'zidan o'zi haqiqiy sababni aniqlash uchun yetarli bo'lmaydi. Bunday shartning yetarli deb e'tirof etilishi ko'pincha: "shundan so'ng, demak, shu sababga ko'ra" (post hoc, ergo propter hoc), deyiladigan xatoga olib keladi. Masalan, garchi bular ayni bir vaqtda yuz beradigan hodisalar bo'lsa-da, lekin momaqaldiroq ovozi chaqmoq chaqnashidan keyin eshitilishi sababli ilgari yashinni momaqaldiroq gumbirashi uchun sabab bo'ladi, deb hisoblashardi. Tergov amaliyotida, garchi do'q-po'pisalar har doim ham ijro etilavermasligi yaxshi ma'lum bo'lsa-da, ba'zan muayyan bir shaxsning boshqa shaxs nomiga bildirgan po'pisasi faktini va keyinchalik ikkinchi shaxs ustidan qilingan zo'ravonlikni sababli aloqa sifatida xato talqin qilishadi.

(3) Sababli aloqa zaruriyat xususiyatidan farq qiladi. Bu shuni anglatadiki, oqibat faqat sabab mavjud bo'lganida amalga oshirilishi mumkin, zaruriy sababning yo'qligi oqibatning ham bo'lmasligiga olib keladi.

(4) Sababli aloqaning bir xil ma'noli tusi har bir aniq sababning har doim butunlay aniq, unga muvofiq keladigan oqibatni keltirib chiqarishida namoyon bo'ladi. Sabab bilan oqibat o'rtasidagi bog'lanish shundayki, zaruriy sababdagi tur o'zgarishlari oqibatdag'i tur o'zgarishlarini keltirib chiqaradi va aksincha, oqibatdag'i o'zgarishlar sababdagi o'zgarishlarning ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi.

57. O'xshashlik uslubi ilmiy induksiya uslubi sifatida

Hozirgi mantiq sababli aloqalarini belgilashning beshta uslubini: o'xshashlik uslubi, farqlanish uslubi, o'xshashlik va farqlanishning birikkan uslubi, qo'shimcha o'zgarishlar uslubi, qoldiqlar uslubini bayon qiladi.

1. O'xshashlik uslubi

O'xshashlik uslubi bo'yicha har birida tadqiq qilinayotgan hodisa yuz beradigan bir nechta hollar qiyoslanadi; bunda barcha hollar faqat bir holatda o'xshash bo'lib, boshqa hamma hollarda turli xilda bo'ladi.

O'xshashlik uslubi turlichadan umumiylikni topish uslubi deyiladi, chunki bittasidan tashqari barcha hollar bir-biridan sezilarli tarzda farq qiladi.

O'xshashlik uslubiga doir mulohazaga misolni ko'rib chiqamiz. Bir posyoikadagi tibbiyot shoxobchalaridan biri yozgi davrda qisqa vaqt ichida dizenteriya (d) bilan kasallanishga oid uchta holatni qayd etdi. Kasallik manbaini aniqlashda asosiy e'tibor yozgi davrda ichki kasalliklarga eng ko'p sabab bo'lidaniquyidagi suv va ovqat turlariga qaratildi: A - quduqlardagi ichimlik suvi; M - daryo suvi; V - sut; S - sabzavotlar; G' - mevalar. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, dizenterianing tarqalishi, aftidan, sutni iste'mol qilish bilan bog'liq ekan. Keyinchalik bu qo'shimcha tadqiqotlar bilan o'z tasdig'ini topdi.

O'xshashlik uslubiga oid mulohaza chizmasi quyidagi shaklda bo'ladi:

- 1) AVS d ni keltirib chiqaradi.
- 2) MVG' d ni keltirib chiqaradi.
- 3) MVS d ni keltirib chiqaradi.
- 4) Aftidan, V d ga sabab bo'lgan.

Agar quyidagicha bo'lsa, unda o'xshashlik uslubi yuksak darajadagi haqiqatga yaqin xulosalarni beradi:

- 1) Tadqiq qilinayotgan hodisaning barcha ehtimol tutilgan sabablari aniqlangan;
 - 2) d hodisasidan oldin V holati yuz berganligi aniqlangan;
 - 3) Tadqiq qilinayotgan harakat uchun zaruriy bo'limgan barcha holatlar istisno etilgan;
 - 4) Holatlarning hech biri boshqalari bilan o'zaro ta'sirga kirishmaydi.
- Xulosaning muammoligiga qaramasdan o'xshashlik uslubi bilish jarayonida muhim evristik funksiyani bajaradi, u samarali gipotezalarni qurishga ko'maklashadiki, ularning tekshirilishi fanda yangi haqiqatlarning ochilishiga olib keladi.

58. Farqlanish uslubi ilmiy induksiya uslubi sifatida

Bittasida tadqiq qilinayotgan hodisa yuz beradigan, boshqasida esa bunday hodisa yuz bermaydigan ikkita holat farqlanish uslubiga ko'ra qiyoslanadi; bunda

ikkinci holat birinchisidan faqat bir holat bo'yicha farqlanadi, boshqalari esa bir-biriga o'xhash bo'ladi.

Farqlanish uslubi o'xhashlikdan turlichalikni topish uslubi deyiladi, chunki qiyoslanadigan holatlardan bir-biri bilan ko'pgina xususiyatlari bo'yicha mos keladi.

Farqlanish uslubi tabiiy sharoitlarda hodisalarini kuzatish jarayonida va laboratoriyadagi yoki ishlab chiqarishdagi tajriba sharotida qo'llaniladi. Kimyo tarixida o'xhashlik uslubi vositasida ko'pgina moddalar - keyinchalik katalizatorlar nomini olgan reaksiyalarni tezlashtiruvchilar kashf etilgan. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda, masalan, o'g'itlarning samaradorligi ushbu uslub bilan tekshiriladi.

Biologiya va tibbiyotda farqlanish uslubi turli xil moddalar va dorivor preparatlarning organizmga ta'sirini tadqiq etishda qo'llaniladi. Shu maqsadda o'simliklar, tajriba hayvonlari yoki odamlarning nazoratli va tajriba guruhlari ajratiladi. Har ikkala guruh bir xil sharoitlarda tutib turiladi - A, V, S. So'ngra tajriba guruhiga yangicha holat olib kiriladi - M. Keyingi qiyoslash shuni ko'rsatadiki, tajriba guruhni nazoratli guruhdan yangicha natija bilan farqlanadi - d. Bundan shunday xulosa chiqadi: aftidan, M d ning sababchisi bo'lgan.

Farqlanish uslubiga ko'ra mulohaza ham bir qator asoslarni nazarda tutadi.

(1) Bundan ilgari yuz bergan va har biri tadqiq qilinayotgan hodisaning sababi bo'lishi mumkin bo'lgan holatlardan haqidagi umumiy bilim talab etiladi. Keltirilgan chizmada bu - A, V, S, M holatlari bo'lib, ular diz'yunktiv ko'pchilikni tashkil etadi:

A V V S V M.

(2) Tadqiq qilinayotgan harakat uchun yetarlilik shartiga javob bermaydigan holatni diz'yunksiya a'zolari tarkibidan chiqarib tashlash kerak bo'ladi. Keltirilgan chizmada A, V va S eliminatsiya qilinishi kerak, chunki ularning ikkinchi holatda mayjud bo'lishi d ni keltirib chiqarmaydi. Istisno etish natijasi: "Na A, na V, na S d ning sababchisi bo'lmaydi" degan inkor etuvchi hukmda ifodalanadi.

Eliminatsiya mulohazada farqlanish uslubi bo'yicha shuningdek tadqiq qilinayotgan hodisaning niima sababli yuz bermaganligi haqidagi salbiy bilimni shakllantiradi.

(3) Ko'plab ehtimol tulitgan sabablar orasida haqiqiy sabab sifatida ko'rib chiqiladigan yagona holat qoladi. Keltirilgan chizmada A ning sababchisi bo'ladigan M ana shunday yagona holat bo'ladi.

Mulohaza farqlanish uslubi bo'yicha faqat bundan oldindi, yopiq diz'yunktiv ko'pchilikni tashkil etadigan holatlarning aniq va to'liq bilimi mavjud bo'lsagina, dalillovchi bilim tusiga ega bo'ladi.

Empirik bilim sharoitida hamma holatlarni uzil-kesil qayd qilish qiyinligi sababli farqlanish uslubiga ko'ra natijalar ko'pchilik hollarda faqat muammoli xulosalarni beradi. Ko'pgina tadqiqotchilarning e'tirof qilishicha, farqlanish uslubi orqali haqiqatga eng yaqin induktiv natijalarga erishilar ekan.

59. Qo'shimcha o'zgarishlar uslubi ilmiy induksiya uslubi sifatida

Uslub bundan oldindi holatlardan biri tadqiq qilinayotgan harakatning ham turini o'zgartiradigan holda o'zgaradigan hollarning tahlil qilinishida qo'llaniladi.

Bundan oldingi induktiv uslublar muayyan holatning takrorlanuvchanligi yoki bo'lmasligiga asoslanar edi. Biroq hamma sababli bog'langan hodisalar ham ularni tashkil qiladigan ayrim omillarning neytrallashtirilishi yoki almashtirilishiga yo'l qo'yavermaydi. Masalan, ishqalanishning jism harakati tezligiga ta'sirini tadqiq etishda amalda ishqalanishning o'zini istisno etib bo'lmaydi. Xuddi shunga o'xshab, Oyning dengizdag'i suv toshishlarining kattaligiga ta'sirini belgilashda Oyning massasini o'zgartirib bo'lmaydi.

Bunday sharoitda bundan oldingi va keyingi hodisalar dagi qo'shimcha o'zgarishlarni kuzatuv jarayonida qayd qilish sababli aloqalarni aniqlashning yagona usuli hisoblanadi. Bunday holda bundan oldin yuz bergan va o'zgarish intensivligi yoki darajasi tadqiq qilinayotgan harakatning o'zgarishi bilan mos tushadigan holat sabab bo'ladi. Agar bundan oldin sodir bo'lgan va hech biri tushirib qoldirilishi yoki almashtirilishi mumkin bo'lmaydigan holatlarni A, V, S ramzlari bilan; ushbu holatlarning o'zgarish darajasini 1, 2, ..., n indekslari bilan; bizni qiziqtiradigan harakatni - d ramzi bilan ifodalaydigan bo'lsak, unda mulohaza qo'shimcha o'zgarishlar uslubi bo'yicha quyidagi shakhni qabul qiladi:

- 1) ABC₁ d₂ ni keltirib chiqaradi;
- 2) ABC₂ d₂ ni keltirib chiqaradi;

.....
n) ABC_n dn ni keltirib chiqaradi.

Aftidan, C d ning sababchisidir.

Quyoshdagi dog'larning yerdagi magnitli bo'ronlarning paydo bo'lishiga ta'siri haqidagi xulosa xuddi shu yo'l bilan chiqarilgan. Kuzatuvlar magnitli bo'ronlarning Quyoshdagi dog'larning 11 yillik sikl bilan paydo bo'lishi va dog'larning kattalashuvi magnitli bo'ronlarning kuchayishi bilan davom etishiga shunday mos kelishini ko'rsatdi.

Qo'shimcha o'zgarishlar uslubini qo'llanish shuningdek bir qator shartlarga rioya etilishini ham nazarda tutadi.

(1) Tadqiq qilinayotgan hodisaning barcha ehtimol tulilgan sabablarini bilish zarur.

(2) Keltirilgan holatlardan sababli aloqaning bir xildagi ma'noliligi xususiyatiga to'g'ri kelmaydigan holatlar eliminatsiya qilinishi lozim.

(3) Bundan oldingi holatlar ichidan o'zgarishi harakatning o'zgarishiga qo'shilib ketadigan yagona holat ajratib olinishi kerak.

Qo'shimcha o'zgarishlar bevosita va teskari bo'lishi mumkin.

Bevosita bog'liqlik: bundan oldingi omilning namoyon bo'lishi qanchalik intensivroq bo'lsa, tadqiq qilinayotgan hodisaning ham o'zini shunchalik faolroq namoyon qilishi va aksincha - intensivlik pasayishi bilan shunga tegishli ravishda harakatning namoyon bo'lishi faolligi yoki darajasining ham pasayishini anglatadi. Masalan, havo harorati ko'tarilishi bilan simobning kengayishi yuz beradi va uning gradusnikdag'i darajasi ham ko'tariladi, harorat pasayishi bilan simob ustuni ham tegishlichka pasayadi. Xuddi shunga o'xshab, Quyoshning faolligi kuchayishi yoki susayishiga qarab yer sharoitidagi radiatsiya darajasi ham tegishlichka ko'payadi yoki pasayadi.

Teskari bog'liqlik shunda ifodalanadiki, bundan oldingi holatning intensiv namoyon bo'lishi tadqiq qilinayotgan hodisaning faolligini susaytiradi yoki uning o'zgarishi darajasini kamaytiradi. Masalan, ishqalanish qanchalik ko'p bo'lsa, jismning harakat tezligi ham shunchalik kamroq bo'ladi yoki mehnat unumdorligi qanchalik yuqori bo'lsa, mahsulotning tannarxi ham shunchalik past bo'ladi.

Xulosaning natijadagi asoslanganligi qo'shimcha o'zgarishlar uslubi bo'yicha ko'rib chiqilgan holatlar soni, bundan oldingi holatlar haqidagi bilimning aniqligi, shuningdek bundan oldingi holat va tadqiq qilinayotgan hodisadagi o'zgarishlarning adekvatligi bilan belgilanadi.

Natijaning asoslanganligi ko'p jihatdan bundan oldingi omil va harakatning o'zidagi o'zgarishlarning muvofiqligi darajasiga bog'liq bo'ladi. Har qanday o'zgarishlar emas, balki faqat proporsional oshib boruvchi yoki kamayuvchi o'zgarishlar e'tibor uchun qabul qilinadi. O'zarobir xil ma'nodagi mutazamliligi bilan ajralib turmaydigan o'zgarishlar ko'pincha nazorat etilmaydigan, tasodifiy omillar ta'siri ostida paydo bo'ladi va tadqiqotchini chalkashtirishi ham mumkin.

60. Qoldiqlar uslubi ilmiy induksiya uslubi sifatida

Uslubning qo'llanilishi mazkur harakatning boshqa qismlarini keltirib chiqaradigan sabablar aniqlangani holda murakkab harakatning muayyan qismini keltirib chiqaradigan sababning aniqlanishi bilan bog'liqdir.

Qoldiqlar uslubi bo'yicha mulohaza chizmasi quyidagi shaklga ega bo'ladi:

- 1) AVS xyz ni keltirib chiqaradi.
- 2) A x ni keltirib chiqaradi.
- 3) B y ni keltirib chiqaradi.
- C z ni keltirib chiqaradi.

Qoldiqlar uslubi vositasida ayrim kimyoviy elementlar - geliy, rubridiy va boshqalarning mavjudligi haqidagi xulosa chiqarilgan. Gipoteza spektral tahlil jarayonida olingan natijalarga asoslangan: fanga ma'lum kimyoviy elementlarning hech biriga tegishli bo'lmagan yangi chiziqlar aniqlangan.

Ilmiy va oddiy mulohazalar amaliyotida ko'pincha ma'lum harakatga qarab ma'lum sababga nisbatan yangiroq bo'lgan sababning amal qilishi haqida xulosa chiqariladi. Masalan, Mariya Skladovskaya-Kyuri ayrim uran rudalarining intensivligiga ko'ra uranning nurlanishi intensivligidan ham yuqoriyoq bo'lgan radioaktiv nur tarqatishini aniqlagach, ushbu birikmalarda qandaydir yangi moddalarining mavjudligi haqidagi xulosaga keladi. Yangi radioaktiv elementlar: poloniya va radyi shu tariqa kashf etilgan.

Boshqa induktiv xulosalar kabi qoldiqlar uslubi ham, odatda, muammoli bilim beradi. Bunday natijadagi xulosaning ehtimolligi darjasasi, birinchidan, orasidan tadqiq qilinayotgan hodisaning sabablari izlanayotgan bundan oldingi holatlar haqidagi bilimning aniqligi, ikkinchidan, ma'lum sabablardan har birining umumiyligi natijaga ta'siri darjasasi haqidagi bilimning aniqligi bilan belgilanadi. Bundan oldingi holatlarining taxminiy va noaniq ro'yxati ham ma'lum sabablardan har birining umumiyligi natijaga ta'siri haqidagi noaniq tasavvur singari shunga olib kelishi

mumkinki, natijaning xulosasida zaruriy holat emas, balki faqat qo'shimcha holat noma'lum sabab sifatida taqdim etilishi mumkin.

Qoldiqlar uslubi bo'yicha mulohazalar ko'pincha jinoyatlarni tergash jarayonida asosan tadqiq etilayotgan harakatlarning yaqqol nomutanosisligi belgilanadigan hollarda qo'llaniladi. Ager harakat o'zining hajmi, mijoslari yoki intensivligi bo'yicha ma'lum sababga muvofiq kelmasa, unda qandaydir boshqa holatlarning mavjudligi haqidagi masala qo'yildi.

Masalan, ombordan mollarning o'g'irlanganligi haqidagi jinoyat ishi bo'yicha ayblanuvchi o'g'irlash faktini tan oldi va u o'g'irlangan buyumni ombordan bitta o'zi olib chiqib ketganligini ko'rsatdi. O'tkazilgan tekshirish shuni ko'rsatdiki, bunday og'ir buyumni bir kishining olib chiqib ketishga kuchi etmasdi. Tergovchi o'g'irlilikda boshqa shaxslarning ishtirok etganligi haqidagi xulosaga keldi, shu munosabat bilan qilmishning kvalifikatsiyasi ham o'zgartirildi.

Sababli aloqalarni aniqlashiga doin ko'rib chiqilgan usublar o'zining mantiqiy tuzilishiga ko'ra murakkab mulohazalarga kiradiki, bunday mulohazalarda induktiv umumlashmalar deduktiv xulosalar ishtirokida quriladi. Deduksiya sababli aloqa xususiyatlariiga tayanib, tasodifiy holatlarning eliminatsiyasi (istisno etilishi)ning mantiqiy vositasi bo'ladi, bu bilan induktiv umumlashmani mantiqan o'zgartiradi va yo'naltiradi.

Induksiya bilan deduksiyaning o'zaro aloqasi usublarni qo'llanishda mulohazalarning mantiqiy layoqatligini ta'minlaydi, bilim asoslarida ifodalangan aniqlik olinadigan xulosalarning asoslanganligi darajasini belgilaydi.

61. O'xhashlik bo'yicha xulosa: mohiyati va mantiqiy tuzilishi

Fanda va amaliy ishlarda ko'pincha yagona, o'zining individual tavsifnomalariga ko'ra takrorlamaydigan hodisalar, predmetlar va voqealar tadqiqot obyekti bo'ladi. Ularni izohlash va baholashda deduktiv va induktiv mulohazalarni qo'llanish mushkul bo'ladi. Bunday holda mulohazaning uchinchi usuli - o'xhashligi bo'yicha xulosaga murojaat qilinadi: yangi yagona hodisa boshqa, ma'lum va u bilan o'xhash bo'lgan yagona hodisaga qiyoslanadi va ilgari olingan axborot ushbu o'xhash hodisaga ham tegishli deb olinadi.

Fizika tarixida tovushning tarqalishi mexanizmini aniqlashda uni suyuqlik harakati bilan qiyoslab xulosa chiqarish shunday shaklda kechgan edi. Shunday qiyoslash asosida tovushning to'lqinli nazariyasi paydo bo'ldi. Bunday holda suyuqlik va tovush qiyoslash obyektlari, ularning tarqalishining to'lqinsimon usuli esa - o'tkazilgan belgi bo'lgan.

O'xhashlik bo'yicha xulosa - bu muayyan belgining tadqiq qilinayotgan yagona ob'ekt (predmet, hodisa, munosabat yoki sinfliga mansubligi haqida ushbu obyektning muhim belgilari bo'yicha boshqa bir ma'lum yagona obyektgina o'xhashligi asosida chiqarilgan xulosadir.

O'xhashlik bo'yicha xulosadan ilgari har doim ikkita ob'ektning o'xhashligi va ular o'rtaсидаги farqni aniqlashga imkon beradigan qiyoslash operatsiyasi o'tkaziladi. Bunda o'xhatish uchun nafaqat mos kelishlar, balki farqlar nomuhim

bo'lgani holda eng muhim belgilardagi o'xshashlik talab etiladi. Aynan shunday o'xshashliklar ikkita moddiy yoki ideal ob'ektlarni taqqoslash uchun asos bo'ladi.

Ma'lum bilimdan yangi bilimga tomon mantiqiy o'tish o'xshashlik bo'yicha xulosalarda: agar ikkita yagona predmetlar muayyan belgilariga ko'ra o'xshash bo'lsa, unda ular boshqa, qiyoslanayotgan predmetlardan birida aniqlangan belgilarda ham o'xshash bo'lishi mumkin, degan qoida orqali tartibga solinadi.

62. O'xshashlik turlari

Taqqoslanadigan obyektlarning tusiga qarab o'xshashlikning ikki turi farqlanadi: (1) predmetlarning o'xshashligi va (2) munosabatlarning o'xshashligi.

(1) Predmetlarning o'xshashligi - bu ikkita bir-biriga o'xshash yagona predmet o'xshatiladigan obyekt, ushbu predmetlarning xususiyatlari - o'tkaziluvchi belgi bo'ladigan xulosadir.

Agar ikkita yagona predmetlar yoki voqealarni a va d ramzlar bilan, unda P, Q, S, T - bilan ularning belgilarini ifodalasak, unda o'xshashlik bo'yicha xulosani quyidagi chizma orqali tasvirlash mumkin:

- a P, Q, S, T ga xosdir;
- b P, Q, S ga xosdir;
- b T ga xosdir.

Fizika tarixidagi yorug'likning tarqalishi mexanizmining izohi bunday o'xshashlikka misol bo'lishi mumkin. Fizika oldida yorug'lik harakatining tabiatini haqidagi masala ko'ndalang bo'lganida XVII asrdagi golland fizigi va matematigi Gyuygens yorug'lik bilan tovushning ularning to'g'ri chiziqli tarqalishi, aks etishi, sinishi va interferensiyasi kabi xususiyatlarining o'xshashligiga asoslanib, yorug'lik harakatini tovush harakati bilan taqqosladi va yorug'likning ham to'lqinsimon tabiatga egaligi haqidagi xulosaga keldi.

Taqqoslanadigan predmetlarning bir qator xususiyatlardagi o'xshashligi shu kabi o'xshashliklarda belgi o'tkazilishining mantiqiy asosi bo'ladi.

(2) Munosabatlarning o'xshashligi - bu ikki just predmetlar o'rtasidagi o'xshash munosabatlar taqqoslash ob'ekti, ushbu munosabatlarning xususiyatlari - o'tkaziladigan belgi bo'ladigan xulosadir.

Masalan, ikki just shaxslar x va y, m va n quyidagi munosabatlarda bo'lishadi:

- 1) x balog'at yoshiga yetmagan u o'g'ilning otasidir (R_1 munosabati);
- 2) m balog'at yoshiga yetmagan n nabiraning bobosi va yagona qarindoshidir (R_2 munosabati);

3) ma'lumki, ota-onalarga doir munosabatlarda (R_1) otasi o'zining balog'at yoshiga yetmagan farzandini boqishi shart. R_1 va R_2 munosabatlari o'rtasidagi muayyan o'xshashlikni hisobga olib, shunday xulosa chiqarish mumkin: qayd qilingan xususiyat, ya'ni aynan bobosining muayyan vaziyatda o'z nabirasini boqishi vazifasi R_2 uchun ham xosdir. Munosabatlarning o'xshashligi bo'yicha xulosa quyidagi chizma orqali taqdim etilishi mumkin:

- 1) $xR_1y R_1 P, Q, S, T$ ga xosdir;
 - 2) $mR_2y R_2 P, Q, S$ ga xosdir;
- Aftidan, $R_2 T$ ga xosdir.

Munosabatlar o'xhashligiga murojaat etishda ushbu natijaning o'ziga xos xususiyatlarini nazarda tutish kerak va uni predmetlar o'xhashligi bo'yicha natijalar bilan aralashtirmaslik lozim. Agar keyingi holatda ikkita yagona hodisa yoki voqeа taqqaoslanadigan bo'lsa, unda birinchisida predmetlarning o'zлari qiyoslanmaydi va hatto taqqaoslanishi ham mumkin emas. x bilan u ning o'rtasidagi munosabatning m bilan n o'rtasidagi munosabatga taqqaoslanishi x ning m bilan, y ning n bilan o'xhash bo'lishi kerakligini anglatmaydi. Shunisi muhimki, birinchi juftlikdagi predmetlar o'rtasidagi munosabat (xR_1y) birinchi juftlikdagi predmetlar o'rtasidagi munosabat (mR_{2n}) kabi bo'lishi kerak. Munosabatlar o'xhashligi bo'yicha natijalarning noto'g'ri tushunilishi ba'zan munosabatlarning (R_1 va R_2) emas, balki predmetlarning o'zларининг asossiz tarzда aynan bir xil deb tushunilishidan iborat mantiqiy xatoga olib keladi: x m bilan, u - n bilan aynan bir xil, deb olinadi.

O'xhashlik bo'yicha natijalarning asoslanganligi quyidagi shartlarga bog'liq bo'ladi:

(1) Agar faqat muhim belgilarda taxminiy, tasodify emas, balki qat'iy aniq va muayyan o'xhash bo'ladigan haqiqiy o'xhashlik aniqlanib, qayd etilganida natija yaroqli bo'ladi. Bunday o'xhashlikning bo'lmasligi o'xhashligi bo'yicha xulosani yaroqsiz qilib qo'yadi.

(2) Taqqaoslanadigan obyektlar o'rtasidagi farqlarning hisobga olinishi - o'xhashligi bo'yicha natijalar yaroqliliginin ikkinchi muhim shartidir. Tabiatda mutlaqo o'xhash hodisalar bo'lmaydi: o'xhashlikning eng yuqori darajasi ham har doim farqlarni nazarda tutadi. Demak, taqqaoslanadigan har qanday holatda qiyoslanayotgan predmetlar o'rtasida tafovut ham mavjud bo'ladi. Tafovutlar nomuhim, ya'ni o'tkazilayotgan belgiga mutanosib va muhim, yoki belgining bir predmetdan boshqasiga o'tkazilishiga to'sqinlik qiladigan bo'lishi ham mumkin.

(3) O'xhashligi bo'yicha natijalarning asoslanganligi darajasi o'xhash va o'tkaziladigan belgi o'rtasidagi aloqa sifatiga bog'liq bo'ladi.

Qat'iy o'xhashlik. Uning farqlanuvchi xususiyati - o'tkaziladigan belgining o'xshashlik belgilar bilan zaruriy aloqasidir.

Qat'iy bo'lмаган о'xhashlik - bu shunday taqqaoslashki, unda o'xhash va o'tkaziladigan belgilari o'rtasidagi bog'lanish faqat ehtimollilikning ko'proq yoki kamroq darajasiga ega zaruriy bog'lanish sifatida fikrlanadi. Bunday holda boshqa bir obyektda o'xhashlik belgilarini aniqlagach, unga o'tkaziladigan belgining mansubligi haqida faqat mantiqan sustroq, ya'ni muammoli shaklda xulosa chiqarish mumkin.

Qat'iy bo'lмаган о'xhashlik ko'pincha ijtimoiy-tarixiy tadqiqotlarda uchraydi, chunki bu yerda hodisalar o'rtasidagi barcha kelib chiqadigan oqibatlarni qat'iy ko'rsatadigan aloqani aniqlash g'oyat qiyin kechadi.

Quyidagilar natijalarning ehtimollilik darajasini oshiradigan shart-sharoitlar bo'ladi: 1) taqqaoslanayotgan predmetlarning muhim belgilarning eng ko'p sonida o'xhash bo'lishi - muhim o'xhashliklar qanchalik ko'proq bo'lsa, o'xhashlik bo'yicha xulosa shunchalik asosli bo'ladi; 2) taqqaoslanadigan predmetlar o'rtasida muhim farqlar bo'lmasligi; 3) o'xhash va o'tkaziladigan belgilar o'rtasidagi bog'lanish haqidagi bilimning ehtimolligi darajasi.

Qiyoslanayotgan predmetlarda o'xshash belgilarning yetarli soni aniqlanmaganida yoki o'xshash va o'tkaziladigan belgilar o'rtasidagi bog'lanish zaif shaklda aniqlangan bo'lsa, o'xshashligi bo'yicha natija yetarli asoslanmaganligi sababli faqat ko'p ishonchli bo'limgan xulosani berishi mumkin. Agar bunda farqlanish belgilari ham hisobga olinmasa, unda bunday o'xshashlik faqat yuzaki deb baholanishi mumkin.

63. O'xshashlikning fandagi roli

O'xshashlikni to'la huquq bilan tafakkur rivojining ilk bosqichlarida keng qo'llanilgan xulosa shakli deb atash mumkin. O'xshashlik - bu tafakkurining rivojlanishi umuman inson tafakkurning rivojlanish tarixini lo'nda shaklda takrorlaydigan go'dakning mulohazalaridagi xulosaning ko'p ishlatiladigan shaklidir

Fan va texnikaning rivojlanishi tarixi shuni ko'rsatadiki, o'xshashlik ko'plab ilmiy va texnik kashfiyotlar uchun asos bo'lib xizmat qilgan. Faradeynning elektr liniyalariga o'xshagan magnitli liniyalarning fizik jihatdan mavjudligi haqidagi ajoyib taxmini, shuningdek u o'tkazgan, bir tomonidan, magnit bilan Quyosh o'rtasidagi o'xshashlik, boshqa tomonidan, yorug'lik nurlari bilan magnit liniyalarini o'rtasidagi o'xshashlik shunday keyingi tadqiqotlar va Maksvell, Gershel, Lebedev, Popov va boshqa olimlarning ixtirolari uchun dastur bo'lib xizmat qildi.

O'xshashligi bo'yicha xulosa asos bo'ladigan modellashirish uslubi hozirgi fanda katta rol o'ynaydi. U kemasozlik, aerodinamika, suv qurilishi, kibernetika va boshqa sohalarda qo'llaniladi.

O'xshashligi bo'yicha xulosa ijtimoiy-tarixiy fanlarda alohida rol o'ynaydi va ko'pincha tadqiqotning yagona mumkin bo'lgan uslubi ahamiyatiga ham ega bo'ladi. Tarixchi yetarli faktik materialga ega emasligi sababli ko'pincha yaxshi ma'lum bo'limgan faktlar, hodisalar va vaziyatni ularni ilgari tadqiq etilgan, iqtisodiyoti, madaniyat, jamiyatdagi siyosiy tashkilotining rivojlanishi darajasida o'xshashlik mavjud bo'lgan boshqa xalqlar hayotidan olingan hodisalar va faktlarga taqqoslash yo'li bilan izohlaydi.

O'xshashligi bo'yicha xulosa siyosatshunoslik va siyosatda strategik vazifalarni ishlab chiqish va ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotning aniq sharoitlarida taktik liniyani belgilashda katta rol o'ynaydi.

Alohibda huquqiy baholash hollarida, shuningdek jinoyatlarni tergash jarayonida va kriminalistik ekspertizalarni o'tkazishda ham o'xshashlikka murojaat qilinadi.

64. Gipotezaning bilishdag'i roli, uning tuzilishi va ilmiy asosliligi shartlari

Gipoteza - bu bilimlar rivojlanishining tadqiq qilinayotgan hodisalarining xususiyatlari va sabablarini aniqlash maqsadida ilgari suriladigan asosli taxmindan iborat qonuniy shaklidir. Gipoteza - bu yangi bilimning hosil bo'lishini ta'minlaydigan bilish tizimidagi hal qiluvchi bo'g'indir.

Gipoteza quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

1 - boshlang'ich ma'lumotlar yoki asoslar;

2 - taxmin;

3 - boshlang'ich ma'lumotlarning mantiqiy ishlaniши va gipotezaga o'tish;

4 - gipotezaning ishonchli bilimga aylantirilishi yoki uning rad qilinishi uchun tekshirilishidir.

Gipoteza tabiiy, ijtimoiy va texnik fanlarning rivojlanishi shakli hisoblanadi. U mantiqiy tuzilma nuqtai nazaridan olganda tafakkurning qandaydir bir shakli: tushuncha, hukm yoki xulosadan iberat bo'ladi, u ushbu shakllarning hammasini o'z tarkibiga oladi.

Gipotezani qurish tamoyillari

Tadqiqotning obyektivligi tamoyili. U ikki ma'noda: psixologik va mantiqiy-metodologik ma'nolarda takqim qilinishi mumkin.

Psixologik jihatdan olganda obyektivlik oldindan bila-ko'ra turib qaror qabul qilishning bo'lmasligini anglatadi, bunda tadqiqotchi o'zining subyektiv mayllari, afzal ko'rishlari va xohishlaridan kelib chiqib emas, balki haqiqatni belgilash manfaatlariga amal qilib, ish tutadi.

Mantiqiy-metodologik jihatdan olganda obyektivlik tadqiqotning haqiqatni belgilash maqsadida har tomonlarma o'tkazilishini anglatadi.

Birinchidan, gipoteza yoki taxminiy fikrni ilgari surishda jami boshlang'ich empirik material hisobga olinishi kerak.

Ikkinchidan, har tomonlamatik muayyan sharoitda mumkin bo'lgan barcha taxminiy fikrlarni qurishni talab etadi. Bunday talabni fanda yaxshi ma'lum bo'lgan "ko'pchilik gipotezalar" uslubining qo'llanilishi taqozo etadi. Har qanday empirik tadqiqotdagi boshlang'ich material, odatda, to'liq bo'lmasligi sababli u hodisalar o'rtasidagi faqat ayrim bo'g'imir, ayrim bog'lanishlar haqida tasavvur beradi. O'zarlo aloqlarning butun tizimini aniqlash uchun barcha ehtimol utilgan izohlarni gipoteza qilish, bir qator taxminiy fikrlarni qurish zarur. Ko'pincha faktik holatlarning shu tarzdagi uyqashib ketishi kuzatiladi, bunda qaysidir bir taxminiy fikrning ehtimolliligi ancha ishonchlilik bilan gavdalanganadi va boshqa taxminlar ehtimoldan xoli bo'lib tuyuladi.

-Boshqa taxminiy fikrlarni e'tiborga olmasdan, eng ko'proq haqiqatga yaqin taxminiy fikrni qurish - bu ishga bir tomonlama yondashish demakdir. Buning xavfi shundaki, tadqiqotchi faktlar asiri bo'lib qoladi va agar bir hollarda bitta taxminiy fikrga yopishib olish xatoga olib kelishi mumkin.

Gipotezaning yaroqli bo'lishi shartlari

Fandagi gipoteza ham sud tadqiqotdagi taxminiy fikr singari agar quyidagi mantiqiy-metodologik talablarga javob bersagina yaroqli bo'lib hisoblanadi.

Gipoteza qarama-qarshi ma'noli bo'lmasligi kerak. Bu shuni anglatadiki, N taxmini boshlang'ich empirik bazisiga zid bo'lmasligi, shuningdek ichki ziddiyatlarga ega bo'lmasligi lozim.

Gipoteza principial jihatdan tekshiriladigan tarzda bo'lishi, faktlar bilan tekshirib ko'rishga yo'l qo'yishi lozim. Gipotezaning principial jihatdan tekshiriladigan tarzda bo'lishi uning har doim muammoli bo'lishini keltirib chiqaradi va uni ishonchli bilimga aylantirishini taqozo etadi.

Agar gipoteza empirik va nazariy jihatdan asoslangan bo'lsa, unda u yaroqli bo'lib hisoblanadi. Gipotezaning ehtimolliligi uning asoslanishi darajasiga bog'liq bo'lib, miqdoriy yoki sifatga oid baholovchi standartlar yordamida belgilanadi.

Gipotezaning bilishga oid yoki evristik qimmati uning bashorat qilishlik va izohlovchi kuchida ifodalanadigan axborotiligi bilan belgilanadi.

65. Gipoteza turlari

Gipotezalar o'zining bilishga oid funksiyalari va tadqiqot obyekti bo'yicha farqlanadi.

1. Gipotezalar bilish jarayondagi funksiyalari bo'yicha: bayon qiluvchi va izohlovchi gipotezalarga bo'linadi.

Bayon qiluvchi gipoteza - bu tadqiq qilinayotgan obyektga xos bo'lgan xususiyatlar haqidagi taxminder. U odatda shunday savollarga javob beradi: "Ushbu predmet nima?" yoki "Ushbu predmet qanday xususiyatlarga ega?".

Bayon qiluvchi gipotezalar obyektning tarkibi yoki tuzilishini aniqlash, uning faoliyat yuritish mexanizmini yoki buning o'z rusumiga doir xususiyatlarini ochib berish, obyektning funksional tavsifnomalarini belgilash maqsadida ilgari suriladi.

Masalan, fizika nazariyasida paydo bo'lgan yorug'likning tarqalishi haqidagi gipoteza yorug'lik harakati mexanizmi haqidagi gipoteza bo'lgan edi. Kimyogarning yangi polimerning tarkibiy qismlari va atomli zanjirlari haqidagi taxmini tarkib va tuzilma haqidagi gipotezalarga kiradi. Siyosatshunos yoki yuristning yangi qabul qilingan qonuniy qoidalari turkumining yaqin vaqtidagi yoki keyingi vaqtdagi ijtimoiy samarasini oldindan bashorat qiladigan gipotezai funksional taxminlarga kiradi.

Qandaydir obyektning mavjudligi haqidagi gipotezalar bayon qiluvchi gipotezalar ichida alohida o'rinn tutadi, ular ekzistensial gipotezalar, deyiladi. Bir paytalar g'arbiy (Amerika) va sharqiylar (Yevropa va Afrika) yarim sharlar qit'asining birgalikda mayjud bo'lganligi haqidagi gipoteza bunga misol bo'ladi. Atlantidaning mayjud bo'lganligi haqidagi gipoteza ham shunday gipoteza bo'ladi.

Bayon qiluvchi gipoteza - bu tadqiqotlar obyektning vujudga kelishi sabablari haqidagi taxminder. Bunday gipotezalar odatda quyidagilarni aniqlaydi: "Bu hodisa nima uchun yuz bergen?" yoki "Ushbu predmet qanday sabablarga ko'ra paydo bo'lgan?".

Bunday taxminlarga misollar: Tungus meteoriti haqidagi gipoteza; Yerda muzlik davrlarining paydo bo'lganligi haqidagi gipoteza; turli geologik davrlarda hayvonlarning qirilib ketganligi sabablari haqidagi taxminlar; ayblanuvchini aniq bir jinoyatni sodir etishga undagan sabablар va motivlar haqidagi gipotezalar va hokazo.

Fan tarixining ko'rsatishicha, bilimlarning rivojlanishi jarayonida aniq obyektlarning mavjudligi faktini aniqlaydigan ekzistensial gipotezalar paydo bo'ladi. So'ngra ushbu obyektlarning xususiyatlarini aniqlaydigan bayon qiluvchi gipotezalar vujudga keladi. Eng so'nggi bosqich - tadqiq qilinayotgan obyektlarning paydo bo'lishi mexanizmi va sabablarini ochib beradigan bayon qiluvchi gipotezalarni qurishdir.

2. **Tadqiqot obyekti ko'ra:** umumiy va xususiy gipotezalar farqlanadi.

Qonuniy aloqalar va empirik muntazamliliklar haqidagi asoslangan taxmin umumiyligi gipoteza, deyiladi. Moddaning atomistik qurilishi haqidagi gipoteza; akademik O.YU.SHmidt va akademik V.G.Fesenkovning fazoviy jismlarning kelib chiqishi to'g'risidagi hozirgi raqobatlashuvchi gipotezalar; neftrning organik va noorganik kelib chiqishi haqidagi gipotezalar va boshqalar umumiyligi gipotezalarga misol bo'ldi.

Umumiyligi gipotezalar ilmiy bilimlar rivojida qurilish taxtalarini rolini bajaradi. Ular isbotlangach, ilmiy nazariyalarga aylanadi va ilmiy bilimlar rivojida qimmatli ulush bo'lib hisoblanadi.

Xususiy gipoteza - bu yagona faktlar, aniq hodisalar va voqealarning kelib chiqishi va ularning xususiyatlari haqidagi asoslangan taxmindir. Agar yagona holat boshqa faktlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan bo'lsa va agar uni bevosita idrok etish mumkin bo'lmasa, unda uni b'ilish ushbu holatning mavjudligi yoki uning xususiyatlari haqidagi gipotezalar shaklini oлади.

Xususiy gipotezalar tabiatshunoslikda va ijtimoiy-tarixiy fanlarda ham ilgari suriladi.

"Umumiy" va "xususiy" gipoteza atamalari bilan bir qatorda fanda "ishchi gipoteza" degan atama ham qo'llaniladi.

Ishchi gipoteza - bu tadqiqotning ilk bosqichlarida ilgari suriladigan, kuzatuvlar natijalarini guruhlashitirishga va ularga boshlang'ich izohni berishga imkon beradigan shartli yo'l qo'yish bo'lib xizmat qiladigan taxmindir.

Ishchi gipotezaning o'ziga xos xususiyati - uning shartli ravishda va shu bilan vaqtinchalik qabul qilinishidadir. Tadqiqotchi uchun mavjud faktik ma'lumotlarni tergovning boshlanishidayoq bir tizimga solib olish, ular ustida oqilona ish olib borish va shundan keyingi izlanishlar yo'llarini belgilash g'oyat muhimdir. Ishchi gipoteza tadqiqot jarayonida ayni shunday faktlarni birinchi bor bir tizimga soluvchi funksiyasini bajaradi.

Gipoteza ishchi gipotezadan barqaror va serunum gipotezaga aylanishi mumkin. Shuningdek, agar uning yangi faktlar bilan nomutanosibligi aniqlanadigan bo'lsa, unda u boshqa gipotezalar bilan almashtirilishi ham mumkin.

66. Taxminiy fikr gipotezaning bir turi sifatida

Tarixiy, sotsiologik yoki siyosatshunoslikka doir tadqiqotda, shuningdek sudtergov amaliyotida ayrim faktlarni yoki holatlarni majmuuni izohlashda ko'pincha ushbu faktlarni turlicha izohlaydigan bir qator gipotezalar ilgari suriladi. Bunday gipotezalar taxminiy fikrlar deyiladi.

Amaliy faoliyatda ishlarning mazmuniga va holatlarni qamrab olishiga ko'ra turlicha taxminiy fikrlar quriladi. Ular orasida umumiyligi va xususiy taxminiy fikrlar farqlanadi.

Umumiyligi fikr - bu umuman jami holatlarni aniq holatlarning yagona tizimi sifatida izohlaydigan taxmindir. U bitta emas, balki ko'plab o'zarboq bog'liq savollarga javob berib, ishning muhim holatlarining butun majmuuni aniqlaydi.

Rivojlansh tamoyili yoki obyektiv qonuniyat emas, balki yagona hodisani sodir qiladigan faktik holatlarning aniq majmui taxminiy fikrning yaratilishi uchun

noma'lum real sabab bo'ladi. Bunday taxminiy fikr aniqlanishi kerak bo'lgan barcha savollarni yoritish bilan umuman butun hodisani izohlovchi umumiylamlovchi taxmin belgilariga ega bo'ladi.

Xususiy taxminiy fikr - bu ko'rib chiqilayotgan hodisaning ayrim holatlarini izohlovchi taxmindir. Holatlarning har biri noma'lum yoki ko'p ham ma'lum bo'lmasdan mustaqil tadqiqot predmeti bo'lishi mumkin, ularning har biri yuzasidan bunday holatlarning o'ziga xos xususiyatlari va kelib chiqishini izohlovchi taxminiy fikrlar yaratilishi ham mumkin.

Quyidagi taxminlar xususiy taxminiy fikrlarga misol bo'ladi: o'g'irlangan buyumlar yashirilgan joy yoki jinoyatchining joylashgan joyi haqidagi; qilmishdagi sheriklar haqidagi; jinoyatchining qilmish sodir etilgan joyga kirib borishi usuli haqidagi; jinoyatning sodir qilinishi motivlari haqidagi va boshqalar.

Xususiy va umumiylamlovchi taxminiy fikrlar tergov jarayonida bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Xususiy taxminiy fikrlar yordamida olingan bilimlar umuman jinoiylarni izohlaydigan umumiylamlovchi taxminiy fikri qurish, aniqlashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. O'z navbatida, umumiylamlovchi taxminiy fikr ishning shu paytgacha aniqlanmagan holatlari yuzasidan xususiy taxminiy fikrlarni ilgari surish uchun asosiy yo'naliishlarni belgilash imkoniyatini beradi.

67. Gipoteza (taxminiy fikr)ni ishlab chiqish bosqichlari

Taxminiy fikrnинг qurilishi uchta izchil bosqichlardan tashkil topadi. Birinchi bosqich - ayrim faktlar va ular o'tasidagi munosabatlar tahlili, ikkinchi bosqich - faktlar sintezi, ularning umumlashtirilishi; uchinchi bosqich - taxminning ilgari surilishi.

Faktlar tahlili

Tahlilning maqsadi - ko'plab faktik holatlar orasidan hodisa bilan bevosita yoki bilvosita, yaqqol yoki pinhona, yaqindan yoki olisroqdan bog'langan holatlarni ajratib olishdir.

Faktlarni tahlil etishda yordam beradigan xulosalar faktlarning o'ziga xos xususiyatlaraiga va ilgari olingan bilimlarning tusiga bog'liq bo'ladi. Agar mutaxassis umumiylamlovchi murojaat etsa, uning xulosasi deduktiv xulosalar shaklida kechadi. YO fanda tekshirishdam o'tgan qoidalar, yo amaliyotda olingan empirik umumlashmalar bunday sillogizmlarning boshlang'ich asoslarini rolini bajaradi.

Faktlar tahlili induksiya shaklida ham kechishi mumkin. Masalan, bir qator muallifi ko'rsatilmagan tuhmat arizalaridagi dastxatning o'xshash xususiyatlari bo'yicha tergovchi ularning hammasi aynan bir shaxs tomonidan yozilgan, degan taxminiy umumlashtiruvchi xulosa chiqardi. Ushbu taxmin keyinchalik o'z tasdig'ini topdi.

Bu darajadagi umumlashma shunday vazifani hal etadi: ko'pgina tadqiq qilingan faktlar ichidan faqat ularning jinoyat bilan aloqasi haqidagi taxmin uchun asos bo'ladiganlari tanlab olinadi.

Faktlar sintezi

Sintez - bu faktlarni mantiqiy ishlashdagi yangi qadam, ya'ni tahlil paytida ajratib olingen faktlarni tasodifiy holatlardan chetlatib, yagona bir yaxlitlikka fikran birlashtirishdir.

Faktlar o'rtasidagi bog'lanishni aniqlash, bunday bog'liqlikning yo'nalishlari va izchilligi sababli aloqaning butun tizimini yana qayta tiklash, ushu tizim boshidagi boshqa barcha holatlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq faktlarni bilib olishga imkon beradi. Faktik ma'lumotlarning yagona bir tizimga sintezi gipoteza yoki taxminiy fikri qurishda asos bo'ladi.

Taxminining shigeri surʼiidi

Boshlang'ich faktik material ilmiy va amaliy umumalashmalar asosida tahlil etiladi, muhim jihat nomuhim jihatdan ajratib olinadi va ishga tegishli bo'lgan faktlar ziddiyatlarsiz ko'pchilikka sintez qilinadi. Bunday ko'pchilik empirik bazis rolini bajarib, uning asosida ushu faktlarning kelib chiqishini izohlaydigan ehtimol tutilgan sabab haqida ehtimolli xulosa chiqariladi.

Xulosaning muammoliligi shundaki, gipoteza asoslardan faqat qisman chiqarilishi mumkin. Yetarli asoslanmaganlik shuni anglatadiki, asoslar haqiqat bo'lganida xulosa haqiqiy ham, yolg'on ham bo'lishi mumkin. gipotezaning ehtimoliligi darajasi bunda uning faktlar orqali mazmunan asoslanishi darajasi bilan belgilanadi.

Yagona hodisalar haqidagi taxminiy fikrlar quriladigan sud tadqiqotida ularning ehtimoliligi son bilan ifodalammaydi, balki oddiy: "juda ehtimol", "shunisi aniqroq", "ehtimoliligi yaqin", "ehtimoldan uzoq" kabi va boshqa ma'nolarni qabul qiladi.

Gipotezaning tekshiriflishi

Gipoteza yoki taxminiy fikr ikki bosqichda tekshiriladi: ularning birinchisi - gipotezadan kelib chiqadigan oqibatlarning deduktiv keltirib chiqarilishi, ikkinchisi - oqibatlarning faktlar bilan taqqoslanishidir.

Oqibatlarning deduktiv keltirib chiqarilishi.

Oqibatlarning deduktiv keltirib chiqarilishi butun jarayonni oqilona, ya'ni izchillik bilan, rejali, samarali etib qurishga imkon beradi. Taxminiy fikr tadqiqotda ishlarni rejalashtirishning mantiqiy negizi rolini bajaradi.

Oqibatlarning faktlar bilan taqqoslanishi

Gipoteza yoki taxminiy fikri tekshirishning ikkinchi bosqichi uni inkor qilish yoki tasdiqlash maqsadida mantiqiy keltirib chiqarilgan oqibatlarning faktlar bilan taqqoslanishidan iboratdir.

(1) Taxminiy fikrning inkor etilishi undan keltirib chiqarilgan oqibatlarga zid keladigan faktlarni aniqlash yo'li bilan kechadi.

Taxminiy fikri undan kelib chiqadigan oqibatlar ishdagi holatlар bilan tasdiqlanmagani uchungina yaroqli bo'lmaydi, deb hisoblash mumkin emas. Taxminiy fikri inkor qilish uchun undan kelib chiqadigan oqibatlarning ishdagi faktik holatlarga shunchaki mos kelmasligi emas, balki zid kelishi zarur. Faqat shunday holda taxminiy fikri inkor etilgan deb hisoblash uchun yetarli asos bo'ladi.

Tergovchi taxminiy fikrlarni inkor qilish uchun qo'llaydigan turli usullar orasida sud va tergovni qiziqtiradigan holatlarning tergovdag'i yoki suddagi eksperiment shaklida empirik tekshirilishi alohida ahamiyat kasb etadi.

(2) Taxminiy fikrnинг tasdiqlanishi. Agar gipoteza yoki taxminiy fikrdan chiqariladigan oqibatlar yangi aniqlangan faktlarga mos tushsa, u tasdiqlangan bo'ladi. Bunday mosliklar qanchalik ko'p bo'lsa va tergov qanchalik turli-tumanlik tusiga ega bo'lsa, gipoteza ham shunchalik ehtimolga yaqinroq bo'ladi.

68. Gipotezalarni isbotlash usullari

Quyidagilar gipotezalarni isbotlashning asosiy usullaridir: gipotezada ifodalangan taxminning deduktiv asoslanishi; gipotezada nazarda tutilgan predmetlarning bevosita aniqlanishi; gipotezaning mantiqiy jihatdan tasdiqlanishi. Taxminlarning deduktiv chiqarilishi ilgari ko'rib chiqildi va endi keyingi ikkitasiga to'xtalamiz.

Izlangan predmetlarning bevosita aniqlanishi. Fandagi xususiy gipotezalar va ish faoliyatidagi taxminiy fikrlar ko'pincha aniq predmetlar yoki hodisalarning muayyan bir vaqtida va muayyan bir joyda mavjud bo'lganligi faktini aniqlashni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi yoki bunday predmetlarning xususiyatlari va sifati haqidagi savolga javob beradi. Izlangan predmetlarning taxmin qilingan vaqtida yoki taxmin etilgan joyda bevosita aniqlanishi yoki taxmin qilingan xususiyatlarning bevosita idrok etilishi bunday taxminning ishonchli bilimga aylanrilishining eng ishonchli usuli hisoblanadi.

Masalan, o'g'irliliklar, shuningdek talonchilik, banditizm, tovlamachilik kabi boshqa jinoiy ishlarni tergov qilishda jinoiy yo'l bilan orttirilgan yoki to'plangan buyumlar, qimmatli narsalar va pullik summalarining aniqlanishi sud-tergov organlarining muhim vazifasi hisoblanadi. Jinoyatchilar bunday buyumlar va qimmatli narsalarni, odatda, yashirib qo'yishadi yoki sorib yuborishadi. Shu sababli bunday buyumlar va qimmatli narsalarning yashirib qo'yilgan joyi haqidagi xususiy taxminiy fikrlar vujudga keladi.

Taxmin qilingan sababning bevosita aniqlanishi bilan isbotlanadigan taxminiy fikrlar har doim xususiy taxminiy fikrlar bo'ladi. Odatda, ular yordamida ishning faqat ayrim faktik holatlari, jinoyat hodisasining xususiy jihatlari aniqlanadi.

Taxminiy fikrlarning mantiqiy isbotlanishi. Tergov qilinayotgan ishlarning muhim holatlарини izohlaydigan taxminiy fikrlar mantiqiy asoslash yo'li bilan ishonchli bilimga aylanadi. U bilvosita yo'l bilan bajariladi, chunki o'tmishda sodir bo'lib o'tgan hodisalar yoki hozirgi vaqtida ham mavjud bo'lgan, lekin bevosita idrok etilmaydigan voqealar bilib olinadi. Masalan, jinoyat sodir etilgan usul, aybdorlik, jinoyatning sodir etilishi uchun motivlar, qilmish sodir etilganidagi obyektiv holatlar va shu kabilar haqidagi taxminiy fikrlar shu tariqa isbotlanadi.

Gipotezaning mantiqiy isbotlanishi asoslash usuliga qarab bilvosita yoki bevosita dalillash shaklida kechishi mumkin.

Bilvosita dalillash qolgan yagona taxminning ishonchliligini asoslash uchun negiz bo'lgan barcha yolg'on taxminiy fikrlarni rad etish yoki istisno qilish yo'li bilan kechadi.

Bunday natijadagi xulosa, agar, birinchidan, tadqiq qilinayotgan hodisani izohlaydigan taxminiy fikrlarning uzil-kesil qatori qurilgan bo'lsa, va ikkinchidan, taxminiy fikrlarni tekshirish jarayonida hamma yolg'on taxminlar rad qilingan bo'lsa, ishongchli xulosa sifatida baholanishi mumkin. Qolgan sababni ko'rsatuvchi taxminiy fikr bunday holda yagona bo'lib, unda ifodalangan bilim endi muammoli emas, balki ishongchli bo'ladi.

Isticno etish uslubi bo'yicha kechadigan ushbu dalillash usuli ko'pincha sudtergov amaliyotida umumiy va xususiy taxminiy fikrlarni dalillashda qo'llaniladi.

Bilvosita dalillash qolgan taxminning bevosita asoslanishi bilan birga qo'shib olib borilishi kerak.

Gipotezaning bevosita dalillanishi taxmindan turli xil, lekin faqat ushbu gipotezadan kelib chiqadigan oqibatlarni keltirib chiqarish va ularni yangidan aniqlangan faktlar bilen tasdiqlash yo'li bilan bajariladi.

Bilvosita dalillash bo'imganida faktlarning taxminiy fikrdan chiqarilgan oqibatlar bilan shunchaki mos kelishini taxminiy fikr haqiqatligining ishongchli asosi sifatida baholamaslik kerak, chunki mos keladigan faktlar boshqa sababga ko'ra ham kelib chiqqan bo'lishi mumkin.

69. Mantiqiy isbotning mohiyati va uning tuzilishi

Dalillash - bu qaysidir hukmnинг haqiqatligini boshqa haqiqiy va u bilan bog'liq hukmlar yordamida asoslashdan iborat mantiqiy operatsiyadir.

"Dalillash" atamasi protsessual huquqda ikki ma'noda ishlatalidi:

Jinoyat yoki fuqarolik ishining muhim jihatlari haqidagi axborotning tashuvchilari bo'ladigan faktik holatlarni ifodalash uchun (masalan, ayblanuvchining jabrlanuvchi nomiga bildirgan do'q-po'pisasi; jinoyat sodir etilgan joyda qoldirilgan izlar va shu kabilalar);

Ishga tegishli bo'lgan faktik holatlар haqidagi axborot manbalarini ifodalash uchun (masalan, guvohlarning ko'rsatmalari, yozma hujjatlar va shu kabilar).

Dalillanganlik talabi sudda ishlarning ko'rib chiqilishidagi bilimga ham qo'yiladi; agar jinoyat yoki fuqarolik ishi bo'yicha sud qarori sudda ishning ko'rib chiqilishi jarayonida obyektiv va har tomonlama asoslangan bo'lsa, unda bunday qaror adolatlari hisoblanadi. Dalil dalillash jarayonining turlaridan biridir.

Mantiqiy uslublar bilan bir qatorda ishontiruvchi ta'sir ko'rsatadigan nutqiy, emotsiyonal-psixologik va boshqa nomantiqiy uslublar va usullar qo'llaniladigan qandaydir hukmlarni asoslaydigan operatsiya dalillash deyiladi. "Dalillash" tushunchasi "dalil" tushunchasiga nisbatan ancha keng (jinsli) tushunchadir.

Dalillash tuzilmasi

Dalillash uchta o'zarbo'lgan elementlarni: tezis, dalillar, oshkor qilishlikni o'z ichiga oladi.

Tezis - bu haqiqatligi isbotlanishi lozim bo'lgan hukmdir. Tezis dalillashda bosh tuzilmayi element bo'ladi va "Nima asoslanayapti?", degan savolga javob beradi.

Dalillar yoki asoslar - bu tezisni asoslashda qo'llaniladigan boshlang'ich nazariy yoki faktik qoidalardir. Ular dalillashning asosi yoki mantiqiy poydevori

rolini bajaradi va “Tezis nima bilan, nima yordamida asoslanayapti?” degan savolga javob beradi.

O‘z mazmuniga ko‘ra turlicha bo‘lgan hukmlar: nazariy yoki empirik umumlashmalar; faktlar haqidagi ta‘kidlar; aksiomalar; ta‘riflar va konvensiyalar dalillar sifatida namoyon bo‘lishi mumkin.

(1) Nazariy umumlashmalar nafaqt ma‘lum hodisalarni izohlash yoki yangi hodisalarni bashorat qilish maqsadlariga xizmat qiladi, balki shu bilan birga ular dalillashda asoslar rolini ham bajaradi. Masalan, fizikadagi gravitatsiya qonunlari aniq bir fazoviy jismning uchib o‘tishi traektoriyasini hisoblashga imkon berib, bunday hisob-kitoblar to‘g‘riligini tasdiqlaydigan asoslar bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, empirik umumlashmalar ham dalillar rolini bajarishi mumkin. Masalan, tergovchi ayblanuvchi barmoqlari izlari bilan jinoyat sodir etilgan joydagisi barmoq izlarining bir-biriga mos kelishi haqidagi ekspertiza xulosasiga ega bo‘lgach, ayblanuvchi jinoyat sodir etilgan joyda bo‘lgan, degan xulosaga keladi.

Umumiy huquqiy qoidalar, huquq normalari va boshqa baholovchi standartlar ham dalillar funksiyasini bajarishi mumkin.

(2) Faktlar haqidagi hukmlar dalillar rolini bajaradi: muayyan vaqtida, joyda va aniq sharoitlarda paydo bo‘lish va amal qilish xos bo‘lgan yagona hodisalar yoki voqealar faktlar yoki faktik ma‘lumotlar, deyiladi.

(3) Aksiomalar, ya‘ni muqarrar bo‘lgan va shu sababli ushbu sohada dalillanmaydigan qoidalar ham dalillar bo‘lishi mumkin.

(4) Bilimlarning aniq bir sohasidagi asosiy tushunchalar ta‘riflari ham dalillar rolini bajarishi mumkin.

Dalilning oshkor qilinishi yoki shakli - bu dalillar bilan tezis o‘rtasidagi mantiqiy aloqadir.

Dalillardan tezisga sari mantiqiy o‘tish xulosa shaklida kechadi. Bu alohida xulosa bo‘lishi ham mumkin, lekin ko‘pincha bu ularning tizimi bo‘ladi. Dalillar haqidagi axborot ifodalangan hukmlar natijadagi asoslar, tezis haqidagi hukm - xulosa bo‘ladi. Oshkor qilish degani - tezising tegishli xulosalar qoidalari bo‘yicha qabul qilingan dalillardan mantiqiy kelib chiqishini ko‘rsatishdir.

70. Tezisning bevosita asoslanishi

Dalillash usuli bo‘yicha ilgari surilgan qoidani asoslashning ikki turi: bevosita va bilvosita turlari farqlanadi.

1. Tezisni u bilan raqobatlashadigan yo‘l qo‘yishlarga murojaat etmasdan asoslash bevosita asoslash deyiladi.

Bevosita asoslash mustaqil holda yoki turli aralashmalar ichida qo‘llaniladigan deduktiv xulosalar, induksiya yoki o‘xhashlik shaklini qabul qilishi mumkin.

Deduktiv asoslash ko‘pincha xususiy holatni umumiy qoidaga bo‘ysun-dirishda ifodalanadi. Muayyan belgining aniq bir predmetga yoki hodisaga mansubligi yoki tegishli emasligi haqidagi tezis fandagi ma‘lum qonunlar, empirik umumlashmalar, ma‘naviy yoki huquqiy ko‘rsatmalar, shubhasiz aksiomatik qoidalar yoki ilgari qabul qilingan ta‘riflarga asosan asoslanadi. Bunday qoidalar katta asosda

ifodalanadi va ularga asoslarga tayangani kabi tayanib, aniq faktlar haqida hukm chiqariladi, ular haqidagi bilim kichik asosda qayd qilinadi.

Deduktiv asoslashning o'ziga xos xususiyati shundaki, asos-dalillar haqiqat bo'lganida, shuningdek xulosa chiqarish qoidalariga rioya qilinganida ishonchli natijalarini beradi. Bunday holda tezisning haqiqatligi zaruriy ravishda asoslardan kelib chiqadi. Bundan tashqari, katta asosda taqdim etilgan umumlashtiruvchi asos tufayli deduktiv mulohaza shuningdek izohlovchi yoki baholovchi funksiyani ham bajaradi. Bu deduktiv asosning tasdiqlovchi ta'sirini oshiradi.

Induktiv asoslash - bu muayyan jinsdag'i ayrim holatlari haqidagi axborot taqdim etilgan dalillardan ushu holatlarni umumlashtiruvchi tezisga tomon mantiqiy o'tishdir.

Ko'pincha kuzatuvlar natijalarini va eksperimental ma'lumotlarni tahlil etishda, statistik materiallar bilan ishlashtiruvchi induktiv asoslash ishlataladi. Induktiv asoslashning o'ziga xos xususiyati shundaki, bu erda, odatda, faktik ma'lumotlar dalillar sifatida qo'llaniladi. Faktlarga misbatan to'g'ri yondashilganida induktiv tarzda qurilgan dalillash ancha yuqori ishontiruvchi kuchga ega bo'ladi.

O'xshashlik shaklidagi asoslash - bu yagona hodisaning xususiyatlari haqidagi ta'kid shakllantiriladigan tezising bevosita asoslanishidir. Asoslash usuli sifatidagi o'xshashlik tabiiy va ijtimoiy fanlarda, texnikada, oddiy mulohazalar amaliyotida qo'llaniladi. Bu yerda u, odatda, muammoli xulosalarni beradi. Texnikaning turli sohalari idarasi modellashtirish uslubi, agar o'xshashining nazariy jihatdan o'zini oqlaydigan mezonlari ishlab chiqilgan bo'lsa, unda mantiqiy asosli natijalarini ta'minlaydi. Tarixiy tadqiqotlarda o'xshashlik haqiqatga yaqin, lekin asoslashning yagona mumkin bo'lgan usuli tarzida qo'llaniladi.

71. Tezising bilvosita asoslanishi

Antitezisning yoki tezis bilan raqobatlashadigan boshqa yo'l qo'yishlarning yolg'onligi asosida tezising asoslanishi bilvosita asoslash, deyiladi.

Bilvosita asoslashning ikki turi: apagogik va ajratuvchi asoslashlar raqobatlashadigan yo'l qo'yishlar tuzilmasidagi tafovutni belgilaydi.

Tezising unga zid keladigan yo'l qo'yish - antitezisning yolg'onligini belgilash yo'li bilan asoslanishi apagogik (grekchadan - olib ketuvchi) asoslash deyiladi. Bunday holda dalillash uch bosqichda quriladi.

Birlachi bosqich. Tezis mavjud bo'lganida unga zid keladigan qoida - antitezis ilgari suriladi; uni shartli ravishda haqiqiy, deb e'tirof etishadi (bilvosita dalillashning yo'l qo'yilishi) va undan mantiqan kelib chiqadigan oqibatlarni chiqarishadi.

Tezis va antitezis turliha hukmlar shaklida ifodalanishi mumkin. Masalan, "N. ushu jinoyatning sodir etilishiда aybdor", degan yagona tasdiqlovchi hukm shaklidagi tezis uchun ushu hukmmning inkori: "N. ushu jinoyatning sodir etilishiда aybdor emas", degan hukm antitezis bo'ladi. Agar tasdiqlovchi hukmda gap ayni bir hodisaning nomutanosib xususiyatlari haqida boradigan bo'lsa, unda tasdiqlovchi hukm ham yagona tasdiqlovchi hukm uchun antitezis bo'lishi mumkin. Masalan, "Jinoyat qasddan sodir etilgan", degan tezis bilan "Jinoyat ehtiyoitsizlik oqibatida sodir etilgan", degan antitezis o'rtaida ziddiyat munosabati mavjuddir.

Agar tezis - “Barcha S lar P dir”, degan umumiy tasdiqlovchi hukm orqali taqdim etilgan bo’lsa, unda: “Ayrim S lar P emas”, degan unga zid keladigan juz’iy inkor etuvchi hukm antitezis bo’ladi. “Hech bir S P emas”, degan umumiy inkor etuvchi tezis uchun: “Ayrim S lar P dir”, degan juz’iy tasdiqlovchi hukm antitezis bo’ladi. Shunday qilib, tezis hukmlar o’tasidagi munosabat qoidalariga muvofiq tuziladi.

Ikkinch bosqich. Antitezisdan mantiqiyl ravishda chiqarilgan oqibatlar ilgari chinligi belgilangan qoidalar bilan taqqoslanadi. Bir-biriga mos kelmagani holda bunday oqibatlar inkor etiladi.

Uchinchi bosqich. Oqibatlarning yolg’onligi asosida yo’l qo'yishning yolg’onligi haqida mantiqiyl ravishda xulosa chiqariladi.

Oqibatda yo’l qo'yishning yolg’onligi asosida inkorni inkor etish qonuniga muvofiq tezisning chinligi haqidagi xulosa chiqariladi.

Bilvosita asoslashning apogogik turi faqat agar tezis va antitezis ziddiyat holatida bo’lganida qo’llaniladi. Nomutanosiblikning boshqa turlarida, shu jumladan, qarama-qarshilik mayjud bo’lganida apagogik asoslash yaroqli bo’lmay qoladi.

Diz’unksiya a’zosini bo’lgan tezisning yolg’onlikni belgilash va diz’unksiyaning boshqa barcha raqobatlashuvchi a’zolarini inkor qilish yo’li bilan bilvosita asoslanishi ajratuvchi asoslash, deyiladi.

Bunday holda tezisning asoslanishi inkor qilish uslubi orqali quriladi. Dalillash jarayonida diz’unksiyaning bir a’zosidan tashqari boshqa barcha a’zolarining yaroqsizligi ko’rsatiladi va bu bilan qolgan tezisning chinligi bilvosita asoslanadi.

Ajratuvchi asoslash faqat agar diz’unktiv hukm to’liq yoki yopiq bo’lganida yaroqli bo’ladi. Agar yechimning hamma variantlari ko’rib chiqilmayotgan bo’lsa, unda inkor qilish uslubi tezisning ishonchiligidini ta’minlamaydi, balki faqat muammoli xulosani beradi.

72. Tanqid, uning shakllari va usullari

Tanqid - bu ilgari bo’lib o’tgan dalillash jarayonini buzishga qaratilgan mantiqiyl operatsiyadir.

Tanqid ifodalanim shakliga ko’ra pinhoniy va oshkora bo’ladi.

Pinhoniy tanqid - bu tezisning kamchiliklarini aniq tahlil qilmasdan va zaif joylarini aniq ko’rsatmasdan turib shubhalni tarzdagi baholanishidir. Bunday holdagi shubha taxminan shunday shaklda ifodalananidi: “Sizning g’oyalaringiz menqa shubhalni bo’lib tuyulayapti”, “Men sizning ta’kidlaringizga ko’proq shubha bilan qarayman”va hokazo. Bunday tanqidni aniqlashtirish haqidagi iltimos odatda javobsiz qoldiriladi.

Oshkora tanqid - tezisning aniq kamchiliklarining ko’rsatilishidir.

Yo’naltirilishiga qarab oshkora tanqid uch turda: destruktiv, konstruktiv va aralash bo’ladi.

Tezis, dalillar yoki oshkor qilingan fikrni buzishga qaratilgan tanqid destruktiv tanqid deyiladi.

(1) Tezis tanqid

Tezis yolg’onligi oldindan ma’lum bo’lgan fikr sifatida baholanadi. “Bema’nilikka olib borish” degan nom olgan hukm shaklida qurilgan tezisning

bevosita inkor qilinishini ko'rib chiqamiz. Avval-boshda ilgari surilgan qoidaning haqiqiy deb e'tirof etilishiga shartli ravishda yo'l qo'yiladi va undan mantiqan kelib chiqadigan oqibatni chiqarishadi. Agar oqibatlar faktlar bilan taqqoslanganida ular obyektiv ma'lumotlarga zid kelishi ma'lum bo'lsa, ular yaroqsiz, deb e'tirof etiladi. Shu asosda: yolg'on oqibatlar har doim ular asosining yolg'onligidan dalolat beradi, degan tamoyil bo'yicha mulohaza yuritilib, tezisning o'zi yaroqsizligi qayd etiladi.

Dalillash jarayonida bevosita inkor etish buzg'unchi yoki destruktiv funksiyani bajaradi. Uning yordamida tezisning yaroqsizligi oshkor qilinadi, lekin uning o'mniga hech qanday g'oya ilgari surilmaydi.

(2) Dalillar tanqidi

Dalillar tanqidi shunda ifodalanishi mumkinki, opponent faktlarning noaniq bayon qilinganligi, statistik ma'lumotlarni umumlashtirish rusumlarining ikki xildagi ma'nolilagini ko'rsatib, xulosasi asos qilib olinayotgan ekspertning obro'si xususida shubha bildiradi va hokazo.

Asoslarning to'g'riliqi xususidagi shubhalar dalillardan mantiqiy ravishda kelib chiqadigan tezisga ham o'tkaziladi va u ham shubhali, deb baholanadi. Dalillarning yolg'onligi aniqlanganida tezis so'zsiz ravishda asossiz deb hisoblanadi va u yangidan mustaqil tasdiqlanishga muhtoj bo'ladi.

(3) Oshkor qilishlikning tanqidi - destruktiv tanqidning uchinchi usulidir. Bunday holda dalillar bilan tezis o'rtasida mantiqiy bog'lanish yo'qligi ko'rsatiladi. Agar tezis dalillardan kelib chiqmasa, unda u asosiz, deb hisoblanadi. Mulohazaraning boshlang'ich va oxirgi bandlari bir-biri bilan mantiqiy bog'lanmagan bo'lib qoladi.

Oshkor qilishlikning muvaffaqiyatlari tanqidi tegishli xulosalar: tezisni asoslash shakli bo'ladigan deduksiya, induksiya, o'xshashlikning qoidalari va xatolari haqida aniq tasavvur bo'lishini nazarda tutadi.

Dalillar tanqidi va oshkor qilishlikning tanqidi o'z-o'zicha faqat dalillashni buzadi va tezisning asoslanmaganligini ko'rsatadi. Bunday holda tezis haqida u asoslarga tayanmaydi yoki sifati yomon asoslarga tayanadi va yangi asosni talab qiladi, deyish mumkin.

Tanqidning ko'rsatilgan usullari nafaqat mustaqil operatsiyalar sifatida, shu bilan birga turli xil birikmalarda ham qo'llaniladi.

Alternativ ta'kidni inkor qilish maqsadida o'z tezisimizni asoslashni konstruktiv tanqid, deb ataymiz.

Konstruktiv tanqid uchun quyidagilar zarur:

O'z nutqidagi tezismi aniq va keng miqyosda taqdim etish.

Ushbu tezisning taklif etilayotgan tezisdan shunchaki farq qilmasligi, balki unga alternativa sifatida zid kelishini ko'rsatish.

Maksimal tasdiqlovchi ta'sir ko'rsatish uchun taqdim etilgan tezis foydasiga dalillarni tanlashga butun kuch-g'ayratlarni jamlash.

Konstruktiv va destruktiv yondashuvlarni o'z ichiga oladigan tanqid aralash tanqid bo'ladi.

73. Mantiqiy isbotning asosiy qoidalari va ularni buzishda uchraydigan xatolar. Tezisga munosabat bo'yicha qoidalar va xatolar

Mantiqiy fikr yuritish tezisga nisbatan ikkita qoidaga: tezisning aniqligi va tezisning o'zgarmasligi qoidalariga rioya etishni nazarda tutadi.

Tezisning aniqligi

Aniqlik qoidasi tezisning aniq va lo'nda shakllantirilishi kerakligini anglatadi. Aniqlik, ilgari suriladigan hukmlar ma'nosining aniq va yaqqol aniqlanishiga doir talab o'z tezisini bayon qilishga va tanqid qilinayotgan qoida - antitezisning bayon qilinishiga ham birdek tegishli bo'ladi. Qadimgi hind falsafasida shunday oqilonqa qoida amal qilgan: agar siz kimningdir qoidasini tanqid qilmoqchi bo'lsangiz, unda tanqid qilinadigan tezisni takrorlash va ishtirok etayotgan opponentdan uning fikri to'g'ri bayon qilinganligi to'g'risidagi roziligin olish kerak bo'ladi. Faqat shundan keyin tanqid qilishni boshlash mumkin. Shu yerda ishtirok etmeyotgan opponentning fikri tsitata yordamida aniq bayon qilinishi mumkin. Ushbu qoidaga amal qilish tanqidga obyektiv, aniq va xolis tus beradi.

Tezisning aniq ta'riflanishi quyidagi qadamlarni nazarda tutadi: ishlatalidagan atamalar ma'nosini aniqlash; tezis taqdim etiladigan shakldagi hukmni tahlil etish: hukm subyekti va predikatini, hukmnинг sifatini (unda tasdiq yoki nimaningdir inkor etilishi mavjudligini) aniqlash; hukmnинг miqdoriy tavsifnomasini bilib olish.

Tezis miqdoriy jihatdan noaniq fikrlar orqali taqdim etilgan bo'lishi ham mumkin. Masalan, "Odamlar - xudbindir" yoki "Odamlar o'z-o'ziga haddan ortiq ishonishadi". Bunday holda ushbu fikrda so'z hamma to'g'risidami yoki ayrim odamlar haqida ketayotgani noma'lumdir. Bu turdag'i tezislarni himoya qilish mushkul va ularni aynan shu mantiqiy jihatdan noaniqligi uchun ham inkor qilish oson emas.

Tezisning modalligi: ushbu fikrning ishonchli yoki muammoli; ehtimol tutilgan yoki haqiqiyligi; tezisning mantiqiy yoki faktik haqiqiylikka da'vo qilishi va shu kabilar haqidagi masala muhim ahamiyatga egadir.

Agar tezis murakkab hukm orqali taqdim etilgan bo'lsa, unda mantiqiy bog'lamalarning qo'shimcha tahlili talab etiladi.

Tezisning o'zgarmasligi

Tezisning o'zgarmasligi qoidasi mazkur mulohaza jarayonida avval-boshda ifodalangan qoidaning o'zgartirilishi yoki undan voz kechishni ta`qiqlaydi. Bunday qoidalarga rioya qilmaslik xatolarga olib keladi.

Tezisning yo'qotilishi. Bunday xato tezisning ifodalaniib, keyin unutib qo'yilishi va boshqa, u bilan bevosita yoki bilvosita bog'liq, lekin aslida boshqacha qoidaga o'tilishida namoyon bo'ladi.

Tezisning almashtirilishi. Tezisning almashtirilishi to'liq yoki qisman yuz berishi mumkin.

Tezisning to'liq almashtirilishi ko'pincha notiq o'zining asosiy fikrini oldindan aniq va ravshan ifodalamasdan, uni butun nutq davomida tuzatib boradigan va aniqlashtiradigan holdagi mulohazalardagi chalkashlik yoki pala-partishlik natijasida vujudga keladi.

Tezisning qisman almashririlishi shunda ifodalanadiki, nutq davomida o'zining tezisini o'zgartirish, avval-boshda haddan ortiq umumiy, ko'pitirilgan yoki haddan ziyod keskin bo'lib tuyulgan ta'kidni toraytirish yoki yumshatishga intilishadi.

74. Mantiqiy isbotning asosiy qoidalari va ularni buzishda uchraydigan xatolar. Dalillarga munosabat bo'yicha qoidalar va xatolar

Dalillar yuzasidan quyidagi qoidalarning bajarilishi zarur:

Ishonchlik;

Asosning tezisdan alohiда bo'lishi;

Zid kelmaslik;

Yetarlilik.

(1) Ko'rsatilgan mantiqiy qoidaning buzilishi ikkita xatoga: yolg'on dalilning haqiqat deb qabul qilinishi - bu "asosiy yanglishish" deyiladi - va asosning oldindan ma'lum bo'lishiga olib keladi. Birinchi xatoning sababi - mavjud bo'lmagan faktning dalil sifatida qo'llanilishi, aslida mavjud bo'lmagan hodisani asos qilib keltirish, mavjud bo'lmagan guvohlarni ko'rsatish va hokazo. Boshqa xato - asosning oldindan ma'lum bo'lishi shundan iborat bo'ladi, dalillar sifatida isbotlanmagan, odatda, asossiz olingan qoidalar ishlatalidi: mish-mishlar, odamlar orasida yurgan fikrlar yoki kimdir bildirgan taxminlar asos qilib olinadi va ular go'yoki asosiy tezisni asoslaydigan dalillar sifatida taqdirm etiladi.

(2) Dalillarning alohiда tarzda asoslanishi quyidagilarni anglatadi: asoslar haqiqiy ekanligi sababli tezisni asoslashdan oldin dalillarning o'zini tekshirish kerak bo'ladi. Bunda vajlar uchun asoslar tezisiga murojaat etmasdan qidiriladi. Bunda boshqacha hol bo'lib, isbotlanmagan tezis orqali isbotlanmagan dalillar asoslanishi ham mumkin. Bunday xato "oshkor qilishlikdag'i doira" deyiladi.

(3) Dalillarning zid kelmasligi haqidagi talab ziddiyatdan rasmiy ravishda hamma narsa - tezis ham, antitezis ham kelib chiqishi mumkinligini ta'kidlaydigan mantiqiy g'oyadan kelib chiqadi. Mazmuniy jihatidan esa ziddiyatli asoslardan hech bir qo'da zaruriy tarzda kelib chiqmaydi.

(4) Dalillarning yetarliligi haqidagi talab mantiqiy me'yor bilan bog'liqdir - asoslar majmui ulardan mantiq qoidalariiga binoan isbotlanayotgan tezis zaruriy ravishda kelib chiqishi kerak.

Dalillarning yetarliligini ularning soni jihatidan emas, balki ularning salmoqlilagini hisobga olib baholash kerak bo'ladi. Bunda ayrim, ajralib turgan dalillar, odatda, kamroq salmoqqa ega bo'ladi, chunki turlicha talqinga yo'l qo'yadi. Agar o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lgan va bir-birini qo'llab-quvvatlaydigan dalillar qatori qo'llanilsa, bu boshqacha ish bo'ladi.

75. Mantiqiy isbotning asosiy qoidalari va ularni buzishda uchraydigan xatolar. Oshkor qilishlikdag'i qoidalar va xatolar

Dalillarning tezis bilan mantiqiy aloqasi deduksiya, induksiya va o'xshashlik kabi xulosalar shaklida kechadi. Oshkor qilishlikning mantiqiy batartibligi tegishli xulosalar qoidalalariga rioya qilinishiga bog'liq bo'ladi.

1) Dalillashning deduktiv usuli bir qator metodologik va mantiqiy talablarga amal qilishni nazarda tutadi. Quyidagilar ularning eng muhim-laridir:

(1) Boshlang'ich nazariy yoki empirik qoidaning vaj rolini bajaradigan katta asosda aniq belgilanishi yoki bayon qilinishi.

(2) Kichik asosda berilgan aniq hodisaning aniq va ishonchli bayon qilinishi.

(3) Sillogizmlarning barcha qat'iy, shartli, ajratuvchi va aralash shakllari qoidalariga rioya qilish.

2) Dalillashning induktiv usuli, odatda, faktik ma'lumotlar asoslar sifatida qo'llanilgan hollarda ishlataladi. Induktiv asosning dalilli ahamiyati bir xildagi hodisalar xususiyatlarining barqarorlik bilan takrorlanuvchanligiga bog'liq bo'ladi. Qanchalik ko'p sonli yaxshi holatlар kuzatilsa va ularning tanlab olinishi shartlari qanchalik turli-tuman bo'lsa, induktiv dalillash ham shunchalik asoslangan bo'ladi. Ko'pincha induktiv asos faqat muammoli xulosalarga olib keladi, chunki ayrim obyektlarga xos bo'lgan narsa hodisalarning butun guruhiga har doim ham xos bo'lavermaydi.

3) O'xshashlik shaklidagi dalillash yagona hodisalar va voqealarning taqqoslanishi holida qo'llaniladi.

Ijtimoiy-tarixiy hodisalarning o'xshashligi har doim ham shubhasiz va uzileskil xulosalarni bermasligi sababli undan faqat deduktiv yoki induktiv asoslashga qo'shimcha sifatida foydalanish mumkin.

Oshkor qilishlikdagi xatolar dalillar bilan tezis o'rtasida mantiqiy bog'lanish yo'qligi bilan bog'liqidir.

Dalillar bilan tezis o'rtasida mantiqiy bog'lanishning bo'lmasisligi "soxta ergashish" xatosi deyiladi.

Soxta ergashuv ko'pincha dalillar taqdim etilgan asoslarning mantiqiy maqomi bilan tezisni o'z ichiga oladigan hukmning mantiqiy maqomi bir-biriga muvofiq kelmasligi sababli yuz beradi. Oshkor qilishlikning ishlataladigan xulosalar turlaridan qat'i nazar buzilishining tipik hollarini ko'rsatib o'tamiz.

(1) Torroq sohadan birmuncha kengroq sohaga mantiqiy o'tish. Masalan, dalillarda muayyan turdag'i hodisalarning xususiyatlari bayon qilinadi, tezisda esa, garchi turning hamma belgilari ham jinsga oid ermasligi ma'lum bo'lsa-da, butun jinsdag'i hodisalarning xususiyatlari haqidada asosiz ravishda so'z yuritiladi.

(2) Shartli tarzda aytiganlardan shartsiz tarzda aytiganlarga o'tish.

(3) Muayyan munosabatda aytiganlardan hech narsaga tegishli bo'lmagan narsalar haqidada aytiganlarga o'tish. Masalan, agar muammoli, hatto juda ehtimol bo'lgan asoslarga tayanib, ishonchli tezisni asoslashga urinishsa ham bundagi oqibat soxta bo'ladi.

Soxta ergashuv xatosi tezisni asoslash uchun muhokama qilinayotgan tezis bilan mantiqiy bog'lanmagan dalillar keltirilgan hollarda ham yuz beradi. Shu tusdag'i ko'plab hiylalar orasidan quyidagilarini aytib o'tamiz:

Kuch bilan dalillash. Tezisni mantiqiy asoslash o'rniiga nomantiqiy majburlash - jismoniy, iqtisodiy, ma'muriy, axloqiy-siyosiy va boshqa turdag'i ta'sirlar ishlataladi.

Bilmaslik bilan dalillash. Opponent yoki tinglovchilarning bexabarligi yoki bilmaslidigan foydalanish va ob'ektiv tasdiqlanmaydigan hamda fanga zid bo'lgan fikrlarni ularga singdirishga urinish.

Foya bilan dalillash. Tezisni mantiqiy asoslash o'mniga axloqiy-siyosiy yoki iqtisodiy jihatdan foydalni ekanligi sababli ushu tezisni qabul qilish tashviq qilinadi.

Sog'lom fikr bilan dalillash. Ko'pincha real asoslash o'mniga oddiy ongga murojaat qilish sifatida qo'llaniladi. Garchi sog'lom fikr tushunchasi ancha nisbiy bo'lsa-da, ko'pincha u, mabodo gap uy-ro'zg'ordagi buyumlar haqida ketmayotgan bo'lsa, unda yolg'on bo'lib qoladi.

Hamdardlik bilan dalillash. Aniq bir qilmishni real baholash o'mniga rahmdillik, insonparvarlik, hamdardlik ko'rsatishga chaqiriladigan hollarda namoyon bo'ladi. Odatda gap shaxsning sodir qilgan qilmishlari uchun hukm qilinishi yoki jazolanishi ehtimoli haqida ketadigan hollarda bunday dalilga murojaat qilinadi.

Sadoqat bilan dalillash. Tezisni haqiqiy tezis sifatida asoslash o'mniga sadoqat, yaqinlik, hurmatlash va shu kabilar yuzasidan uni qabul qilishga undashadi.

Obro'-e'tiborilik bilan dalillash. Tezisni aniq asoslash o'mniga shaxsning obro'-e'tiborli ekanligi yoki jamoa nomining yuksakligi vaj qilib keltiriladi.

76. Paralegizmlar, sofizmlar va mantiqiy paradokslar

Fikr-mulohazadagi qonunlar va mantiq qoidalari buzilishi bilan bog'liq bo'lgan ataylab qilinmagan xato paralogizm deyiladi.

Qasddan, kimnidir chalg'itish niyatida bildirilgan yolg'on fikr odatda safsata (sofizm) deyiladi. Sofizm - bu nozik va niqoblangan yolg'on bo'lib, uning maqsadi - yolg'oni chin deb o'tkazishdir. "Sen nimaiki yo'qotmasang, shunga ega bo'lasan", degan fikr bunga misol bo'ladi. Sofizmlarni ishlatalish umuman aldamchilik va yolg'on fikrni ilgari surish kabi nojo'ya ish deb hisoblangan. Sofizmlarning o'zi singari uni shu tarzda tushunish ham Qadimgi Gretsiyada paydo bo'lgan. "Sofizm" atamasini Aristotel joriy qilgan: u sofizmni soxta donolik sifatida tavsiflagan va Zenonning aporiyalarini ham ular qatoriga kiritgan. Hozirgi vaqtida tadqiqotchilar sofizmlarni yuzaki tushunishdan o'zlarini tutishadi va sofizmlar mantiq rivojida katta rol o'yagan, deb hisoblashadi.

Sofizmlar Qadimgi Gretsiyada keng tarqalgan va hozirgi tadqiqotchilarning fikricha, tafakkurning antik uslubining o'ziga xos xususiyatlardan biri bo'lgan. Bunday xususiyat uning paradoksliligidagi ko'rinishi.

Paradoks - bu muayyan hukmnинг haqiqiyligini ham, yolg'onligini ham, ya'ni hukmni ham, uning inkorini ham isbotlaydigan fikr-mulohazadir. Keng ma'noda olganda paradoks - bu umumiyl qabul qilingan, qaror topgan, ortodoksal fikrdan keskin farq qiladigan qoidadir. Nazariyada paradokslarning mavjudligi nazariyaning mukammal emasligidan dalolat beradi, paradoksning yechimi esa uning shundan keyingi rivojiga olib boradi. Ko'p hollarda sofizmlar paradokslarni o'z ichiga oladi. Hozirgi inglez faylasufi B.Rassselning so'zlariga qaraganda, Zenonning o'z vaqtida sofizmlarga misol bo'lib xizmat qilgan aporiyalari u yoki boshqa shaklda fanda qadimgi davrlardan beri amal qilib kelayotgan makon, zamon va cheksizlikning qariyb barcha nazariyalari asoslariga daxldordir.

“Yolg‘onchi” sofizmi mantiq va semantikaning ko‘plab eng muhim mavzulariga: haqiqatni belgilash, ziddiyat va dalilni talqin qilish, nomning ma’nosini bilan u ifodalaydigan obyekt o‘rtasidagi tafovut va shu kabilarga tegishli bo‘ladi. Fin faylasufi G. fon Vrigt yozganidek, sofizmlarni shunchaki o‘z yechimini kutayotgan muammolar deb emas, balki mushohada yuritish uchun xom material sifatida ko‘rib chiqish lozim. Ular muhimdir, chunki ular haqidagi mushohada butun mantiq, demak jami tafakkurning eng fundamental masalalariga tegishli bo‘ladi.

MASHQLAR

1-mashq. Aylantirish orqali xulosa chiqaring.

- 1.1. Guruhimizning barcha talabalari a‘lochidirlar.
- 1.2. Hech bir bosqinchilik urushi adolatlama emas.
- 1.3. Ayrim Yevropa mamlakatlarda monarxiya saqlanib qolgan.
- 1.4. Mantiq – falsafiy fan.
- 1.5. Ayrim urushlar adolatlidir.
- 1.6. Ayrim guvohlarning ko‘rsatmalari ishonchli emas.
- 1.7. Ayrim kelishuvlar bir tomonlama emas.
- 1.8. Hamma yo‘llar Rimga olib boradi.
- 1.9. Hech kim abadiy yashamaydi.
- 1.10. Ayrim urushlar adolatlama emas.

2-mashq. O‘zgartirishning to‘g‘riligini tekshiring. Noto‘g‘ri o‘zgartirishlardan to‘g‘ri xulosalar chiqaring.

- 2.1. Ayrim qo‘ziqorinlar zaharlidir.
Ayrim qo‘ziqorinlar zaharsiz emas.
- 2.2. Ayrim mevalar iste‘mol qilinadigan emas.
Ayrim mevalar iste‘mol qilinadigandir.
- 2.3. Olam cheksizdir.
Olam chekli emas.
- 2.4. Sudning hech bir qarori asoslanmagan bo‘lmasi kerak.
Sudning har qanday qarori asoslangan bo‘lishi kerak.
- 2.5. Ayrim talabalar – a‘lochi.
Ayrim talabalar – a‘lochi emas.
- 2.6. Ayrim iqtisodchilar bankir emas.
Ayrim iqtisodchilar bankirmsa emas.
- 2.7. Ayrim fanlar ijtimoiy fanlardir.
Ayrim fanlar ijtimoiy fanlar emas.
- 2.8. Din ilmiy bilimlar bilan kelishmaydi.
Din noilmay bilimlar bilan kelishadi.
- 2.9. Davlat hamisha mavjud bo‘lgan.
Davlat hamisha mavjud bo‘lmagan.
- 2.10. Insonga xato qilish xos.
Insonga xato qilish xos emas.

3-mashq. Agar mumkin bo'lsa, predikatga qarama-qarshi qo'yish yo'li bilan xulosa chiqaring, uni aylantirish va almashtirish yordamida tekshiring.

Namuna: (A) Har qanday davlat (S) rahbar tashkilotdir (R)

(E) Hech bir rahbar bo'lmagan tashkilot (R-emas) davlat emas (S)

Aylantirish va almashtirish yordamida tekshiramiz:

(A) Har qanday davlat (S) rahbar tashkilotdir (R)

(E) Hech bir davlat (S) rahbarmas tashkilot emas (R-emas)

3.1. Barcha soliqchilar iqtisodchidir.

3.2. Ayrim faylasuflar mantiqshunos emas.

3.3. Ayrim vrachlar neyroxiurgidirlar.

3.4. Hech bir talaba-iqtisodchi biokimyoni o'qimaydi.

3.5. O'zbekiston fuqarolari sifatlari tibbiy xizmat olish huquqiga egadirlar.

3.6. Rasman siyosiy mustaqillikka erishgan ayrim davlatlar haqiqatda mustaqil emas.

3.7. Ayrim qushlar sayroqidir.

3.8. Hayvonlarning ayrim reflekslari shartsiz emas.

3.9. Guruhimizning barcha talabalari o'zlashtiruvchilardir.

3.10. Hech bir bosqinchilik urushi adolatli emas.

4-mashq. Sillogizmni to'la tahlil qiling. xulosa va usullarni, o'rta, kichik va katta atamalarni, katta va kichik asoslarni ko'rsating. Atamalar o'tasidagi munosabatni doiraviy chizmasida tasvirlang.


Namuna: 1. Ikkinchi bosqichning barcha talabalari (M) mantiq fanini o'rganadilar (R)

2. Sardor-ikkinchi bosqich talabasi (M)

3. Sardor (S) mantiq fanini o'rganadi (R)

1-hukm-katta asos, 2-hukm-kichik asos, 3-hukm-xulosa.

Doiraviy chizmasi:



4.1. Hamma tabiiy hodisalar materianing maxsus shaklidir. Kimyoviy elementlar tabiiy hodisalardir. Demak, kimyoviy elementlar materianing mahsus shaklidir.

4.2. Hech bir sayyora o'zicha mustaqil nurga ega emas. Mars-sayyora. Demak, Mars o'zicha mustaqil nurga ega emas.

4.3. Barcha metallar elektr tokini o'tkazadi. Ba'zi qattiq jismlar metalldir. Demak, ba'zi qattiq jismlar elektr tokini o'tkazadi.

4.4. Hech bir bola matabdan chetda qolmasin. Ko'chamizdagilarning ba'zisi – bolalar. Demak, ko'chamizdagilarning barchasi matabdan chetda qolmasin.

4.5. Hech qanday bosqinchilik urushi adolatli urush emas. Xalqlarimizning fashistlar Germaniyasiga qarshi urushi adolatli urushdir. Demak, xalqlarimizning fashistlar germaniyasiga qarshi urushi bosqinchilik urushi emas.

4.6. barcha metallar elektr tokini o'tkazadi. Barcha jismlar elektr tokini o'tkazmaydi. Demak, ba'zi jismlar metal emas.

4.7. Barcha ruhoniylar dingi ishonadi. Barcha ruhoniylar – insonlar. Demak, ba'zi insonlar dingi ishonadi.

4.8. Ba'zi partiyalar biznesmenlarning manfaatini ifodalaydi. Barcha partiyalar – siyosiy tashkilotdir. Demak, ba'zi siyosiy tashkilotlar biznesmenlarning manfaatini ifodalaydi.

4.9. Barcha prokurorlar – yuristdir. Barcha prokurorlar – shaxmatchi. Ba'zi shaxmatchilar yuristdir.

4.10. Hech bir dotsent talaba emas. Barcha talabalar imtihon topshirishi zarur. Ba'zi imtihon topshirishi zarur bo'lganlar dotsent emas.

5-mashq. Asoslardan xulosa chiqaring. Xulosaning to'g'rilingini doiraviy chizmalar yordamida tekshiring.


Namuna: 1. Asoslarni yozamiz:

O'zbekiston fuqarolari (M) qonunga rioya qilishlari shart (R).

Valiev (S) O'zbekiston fuqarosi (M)

2. xulosa chiqaramiz: Valiev (S) qonunga rioya qilishi shart.

3. Xulosaning to'g'rilingini doiraviy chizma yordamida tekshiramiz.



5.1. Ayblanuvchi himoya huquqiga ega. N-ayblanuvchi. Demak,

5.2. Guruhimizning barcha talabalari imtixon topshirdilar, lekin Bo'riev imtixon topshira olmadidi. Demak,

5.3. Urushni targ'ib qilish – davlat jinoyati, davlat jinoyatlari esa jazolanadi.....

5.4. Umumiyy hissadorlik mulkinining har bir a'zosi umumiyy boylikdan o'z ulushini talab qilishga haqlidir. V-umumiyy xissadorlik mulkinining qtnashchisi. Demak,

5.5. Ikki o'zarlo zid hukm bir vaqtning o'zida xato bo'lish emas. Bu hukmlar o'zarlo ziddir. Demak,

5.6. Quyosh tizimidagi barcha sayyoralar quyosh atrofida aylanadi. Oy quyosh atrofida aylanadi. Demak,

5.7. Hech bir sut emizuvchi qush emas. Ba'zi sut emizuvchilar tog'da hayot kechiradi. Demak,

5.8. Ba'zi mediklar voleybol o'ynamaydi. Barcha mediklar o'z hunarining mutaxassisisi. Demak,

5.9. Hech bir qush chivin emas. Barcha qushlarning qanoti bor. Demak,

5.10. Barcha daraxtlar o'simlik. Hech bir o'simlik suvsiz yashay olmaydi.....

6-mashq. Asoslardan xulosa chiqaring, sillogizmning figurasini aniqlang. Figuralar qoidalari yordamida xulosaning zaruran kelib chiqish-chiqmasligini aniqlang.


Namuna: 1. Asoslardan xulosa chiqaramiz.

Ayrim ijodkorlar (M) yozuvchidirlar (R)

Umarov (S) – ijodkor (M)

Umarov (S) yozuvchidir (R)

2. Figurasini aniqlaymiz:



3. Katta asos qoidasi buzilgan (katta asos umumiy bo'lishi kerak).

6.1. Oliy o'quv yurti barcha talabalari mantiq fanini o'qiydilar.

Vali Oliy o'quv yurti talabasi emas. Demak,.....

6.2. Oliy o'quv yurti barcha talabalari mantiq fanini o'qiydilar.

Umarov mantiqni o'qimoqda. Demak.....

6.3. Ayrim talabalar – a'lochi Umarov – a'lochi emas

6.4. Ayrim talabalar – a'lochi Valiev – talaba

6.5. Ayrim vrachlar – neyroxiturg. Kengashda qatnashayotganlarning barchasi – neyroxiturgular.

6.6. Ayrim zabitlar – artillerist. Valiev – artillerist.

6.7. Barcha advokatlar oliy yuridik ma'lumotga ega. Valiev oliy yuridik ma'lumotga ega.

6.8. Biznes fakul'tetning barcha talabalari sport bilan shug'ulanadilar. Umarov biznes fakul'tetining talabasi emas.

6.9. Kontrabanda bilan shug'ullangan shaxs jinoiy javobgarlikka tortiladi. K. kontrabanda bilan shug'ullanmagan.

6.10. Ayrim jinoyatlar ongli ravishda qilingan. Bilmasdandan tanaga jaroxat yetkazish – jinoyat.

7-mashq. Qilingan xulosa asosida munosabatning sifatini aniqlang. Xulosa sxemasini yozing.

Namuna: Qarshi Samarcanddan janubroqda. Samarcand Toshkentdan janubroqda. Demak, Qarshi Toshkentdan janubroqda.

Tranzitiv munosabat (: $xRy \wedge uRz \rightarrow xRz$)

7.1. A V ga teng. Demak, V A ga teng.

7.2. A=V, demak A=A va V=V

7.3. x xodisasi u hodisasi bilan bir vaqtida sodir bo'lgan.

7.4. Oybek G'.G'ulomdan keyin tug'ilgan. A.Qahhor Oybekdan keyin tug'ilgan. Demak, A.Qahhor G'.G'ulomdan keyin tug'ilgan.

7.5. S predmeti D predmetidan ayrim belgilari bilan farqlanadi. Demak, D predmeti ham shu belgilari bilan S predmetdan farqlanadi.

7.6. Afrika hudud Amerika hududidan kichikdir, Amerika hududi esa Osiyo hududidan kichik. Demak, Afrika xududi Osiyo xududidan kichik.

8-mashq. Xulosa chiqarish, uning to'g'rilingini aniqlang.

Namuna: Ali Vali bilan tanish. Vali Oybek bilan tanish.

Xulosa: Ali Oybek bilan tanish – zaruran kelib chiqmaydi, chunki "tanishlik" munosabati tranzitiv emas.

8.1. Ali Valining akasi.

8.2. Fotima – Umarning qizi.

8.3. Tinch okeani Atlantika okeanidan katta.

8.4. Tunis Misrdan sharqroqda, Misr Marakkodan sharqroqda.

8.5. Ali Zuxrani sevadi. Zuxra Sardorni sevadi.

8.6. Sultan Saifning tengdoshi.

8.7. Fotima Sultoni sevadi.

8.8. Momo Xavo Odam Atoning xotinidir.

8.9. Amudaryo Sirdaryodan kaitadir.

9.10. Abduraxmon Jomiy Alisher Navoiydan ilgari tug'ilgan.

9-mashq. Shartli xulosadagi asoslarni toping va xulosa chiqaring.

Namuna: Agar havo buzilsa (R), ekskursiya qoldiriladi (q).

Agar ekskursiya qoldirilsa (q), biz teatrga beramiz (r)

Agar havo buzilsa, biz teatrga boramiz.

9.1. Agar bosh miyaning peshona qismi zararlansa, shaxsning tashqi muhit bilan o'zaro ta'siri buziladi. Bunday holda inson voqelikni real idrok etmaydi va demak, vaziyatning quliga aylanadi.

9.2. Agar qorli qish va seryomg'ir bahor bo'lsa, tog' daryolari qirg'og'idan toshadi. Agar ular qirg'og'idan toshsa, uning suvlarli yo'llarni yuvib ketishi mumkin. Agar yo'llarni suv bossa ularda harakat imkoniyati bo'lmaydi va natijada ko'pgina aholi punktlari xomashyo va oziq-ovqatsiz qoladi.

9.3. Agar uy-joyni almashtirish belgilangan qoidalarni buzish bilan amalga oshirilgan bo'lsa, almashuv sud tomonidan haqiqiy emas, deb topiladi. Haqiqiy emas, deb topilgan taqdirda tomonlar ilgari yashab turgan joylariga qayta ko'chib o'tishlari kerak.

10-mashq. Shartli asoslardan foydalanib, a) tasdiqlovchi, b) inkor qiluvchi moduslar bo'yicha xulosa chiqaring.

Namuna: Agar N. o'g'irlik bilan shug'ullangan bo'lsa (R), u jinoiy javobgarlikka tortiladi (q).

1. Tasdiqlovchi modus bo'yicha xulosa chiqaramiz:

N. o'g'irlik bilan shug'ullangan (R). Demak, jinoiy javobgarlikka tortiladi.

2. Inkor qiluvchi modus bo'yicha xulosa chiqaramiz:

N. Jinoiy javobgarlikka tortilmadi (¬q). Demak,

N. o'g'irlik bilan shug'ullanmagan (¬q).

10.1. Agar havo quruq kelsa, ekinlar quriydi.

10.2. Agar yaxshi notiq bo'lishini xohlasang, yaxshi va ifodali o'qishing kerak.

10.3. Agar imtihondan qutilsam, sayohatga boraman.

10.4. Agar osmonni bulut qoplosa, oy ko'rinxmaydi.

10.5. Agar yomg'ir yog'sa, yer nam bo'ladi.

10.6. Agar bu raqam 10 ga bo'linsa, unda 5 ga ham bo'linadi.

10.7. Agar sud bu hujyatning qalbakiligi haqida xulosaga kelsa, uni dalillar safidan chiqaradi.

10.8. Agar hujum qilinsa, himoyalanishing kerak.

10.9. Agar muhit hujayra uchun noqulay bo'lsa, uning funksiyasi asta-sekin kuchsizlanadi.

11-mashq. Katta va kichik asoslarni, natijani tushirib qoldirib, xulosa chiqarishni entimemaga aylantiring.

Namuna: TDIU ning barcha talabalari mantiq fanini o'rganadilar. Samadov - TDIU talabasi. Demak, Samadov mantiq fanini o'rganadi.

1. Katta asosni tushirib qoldiramiz:

Samadov - TDIU talabasi. Demak, u mantiq fanini o'rganadi.

2. Kichik asosni tushirib qoldiramiz:

TDIU ning barcha talabalari mantiq fanini o'rganadilar.

Demak. Samadov mantiq fanini o'rganadi.

3. Xulosani tushirib qoldiramiz:

TDIUning barcha talabalari mantiq fanini o'rganadilar. Samadov - TDIU talabasi.

11.1. Hukm oddiy yoki murakkab bo'lishi mumkin. "Elektron salbiy zaryadga ega" hukmi oddiy. Demak, u murakkab hukm emas.

11.2. Er-xotinlar bir-birlariga moddiy yordam berishga majburdirlar. M. va N - er-xotin, demak ular bir-birlariga yordam berishga majburdirlar.

11.3. Barcha kitlar - sut emizuvchi. Barcha dil'finlar - kit.

Demak, barcha del'finlar - sut emizuvchi.

11.4. Barcha sut emizuvchilar umurtqali. Barcha del'finlar - sut emizuvchi. Demak, barcha del'finlar - umurtqali.

11.5. Fizikaning barcha qonunlari ob'ektivdir. Kvant mexanikasi qonunlari - fizik qonunlar. Demak, kvant fizikasi qonunlari ob'ektivdir.

12-mashq. Sillogizmning tushirib qoldirilgan qismini tiklang.

Namuna: Ayblanuvchi himoya huquqiga ega. Demak, L himoya huquqiga ega.

1. Xulosani topamiz: "L. (S) himoya huquqiga ega" (P).

2. Asos "Ayblanuvchi (M) himoya huquqiga ega (R) – katta asosdir chunki unda katta atama – xulosaning predikati mavjud.

3. Tushirib qoldirilgan-kichik atamani tiklaymiz: "L(s) – ayblanuvchi (p)".

4. Sillogizm quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi: Ayblanuvchi (M) himoya huquqiga ega (r). L (s) – ayblanuvchi (M). Demak, L.(s) himoya huquqiga ega (r).

12.1. Diniy nikoh huquqiy ahamiyatga ega emas. Demak, P. va F. o‘rtasidagi nikoh huquqiy ahamiyatiga ega emas.

12.2. Mehnat shartnomasi yozma shaklda tuzilgan. Demak, u og‘zaki shaklda tuzilgan.

12.3. L. ayblanuvchi, shuning uchun himoya huquqiga ega.

12.4. Barcha O‘zbekiston fuqarolari bilim olish huquqiga ega. Xolmat – O‘zbekiston fuqarosi.

12.5. Barcha daraxtlar suv bilan hayot. Terak ham daraxt.

12.6. Hamma kosmonavtlar havo kemasida osmonga ko‘tarilgan. Jonibekov kosmonavt edi.

12.7. Hamma mustaqil davlatlar boshqa davlat bilan bevosita aloqa o‘rnata oladi. O‘zbekiston respublikasi – mustaqil davlat.

12.8. Hamma organizmlar parchalanadi. O‘simliklar - organizm.

12.9. Hamma o‘qituvchilar – pedagogdirlar. Xolmat - o‘qituvchi.

12.10. Hamma sayyoralar quyosh atrofida aylanadi. Yer quyosh atrofida aylanadi.

13-mashq. Quyidagi xulosalarni to‘la induksiya yordamida olish mumkinmi?

13.1. Butun hafta davomida havo issiq bo‘ldi.

13.2. Terma jamoaning barcha o‘yinchilari mashqqa keldilar.

13.3. Guruhimizning hech bir talabasi qoloq emas.

13.4. Barcha fuqarolar yashash huquqiga egadirlar.

13.5. Barcha baliqlar jabralari orqali nafas oladi.

13.6. Barcha daraxtlar nafas oladi.

13.7. Hech bir narsa sababsiz bo‘lmaydi.

13.8. Har qanday mexanik harakat issiqlikka aylanishi mumkin.

13.9. Har bir iqtisodchi savodlidir.

13.10. Ikkinci bosqichning barcha talabalari tadbirda qatnashdilar.

14-mashq. Noto‘liq induksiya orqali chiqarilgan quyidagi xulosalarning ehtimolligi etarlimi?

14.1. Muqimiylar, Furqat, Zavqiy ma‘rifatparvar demokrat shoirlardir. Demak, XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida yashagan o‘zbek shoirlari ma‘rifatparvar bo‘lganlar.

14.2. Karimning o'qishi kun sayin yomonlashib bordi. Shu bilan birga uning futbol o'yiniga qiziqishi ortib borganini kuzatdilar. Demak, Karimning o'qishi yomonlashuviga sabab uning futbol o'yiniga qiziqishidir.

14.3. Temir yo'lda signalizatsiya ishdan chiqqanligi aniqlangan kunda R. bu joyga yaqin edi. Uning esa brigadir bilan munosabati yomon edi. Shu faktga asoslanib, R. signalizatsiya vositalarini ataylab buzib qo'yanlikda ayblandi.

14.4. Bu matematikka qarang, - dedi logik. - U dastlabki 99 raqam 100 raqamidan kichik ekanligini bilib qolgan va u induksiya deb ataydigan metod yordamida har qanday raqam 100 raqamidan kichikdir deb xulosaga kelgan.

- Fizik, - dedi matematik, - 60 har qanday raqamga bo'linishiga ishonadi. U 60 raqami 1,2,3,4,5 va 6 sonlariga bo'linishini kuzatgan. U tasodifan olingen 10,20 va 30 raqamlarini ham tekshirgan. Ular ham 60 ga bo'linishidan, bu tajribaviy dalillarni yetarli deb hisoblub, shunday xulosaga kelgan.

- Ha, muhandisga qarang, - e'tiroz bildirdi fizik. - Muhandis barcha toq sonlar soddaligiga shubhalanadi. Hech bo'lmaganda 1 raqamini sodda hisoblash mumkinligini u isbotlaydi. Keyin 3,5 va 7 raqamlari keladi. Barchasi, shubhasiz, soddadir. So'ng 9 soni keladi - kutilmagan hodisa, 9 sodda son emasga o'xshaydi, lekin 11 va 13, albatta, sodda sonlardir. 9 soniga qaytamiz, - dedi u. - 9 soni eksperimentning xatosi deb xulosa chiqaraman. (Poya D Matematika i provdopodobnye rassujdeniya M, 1957).

15-mashq. Quyidagi munozarani qanday hal etmoq mumkin?

Qadimgi Gretsiyada o'tgan mashhur sofist Protagorning Evatl nomli bir shogirdi bo'lgan. Shogirdga ta'lim bergenlik uchun to'lanadigan haqqa ikki muddat belgilangan va Evatl birinchi sud murofaasida yutib chiqqanidan keyin haqning ikkinchi yarmini to'lamoqchi bo'lgan. Lekin Evatl sud murofaasida yutib chiqavermagandan keyin, Protagor sud orqali pulni talab qilish qaroriga kelgan va Evatlga bunday dilemma bilan murojaat qilgan: "Murofaamizda agar sen yutib chiqsang, u vaqtida sen menga haqni shartimizga muvofiq to'lashing lozim; agar sen murofaada yutqizib qo'ysang, u vaqtida sen menga haqni sud qaroriga muvofiq to'lashing lozim; lekin sen murofaada yo yutib chiqasan, yo yutqazib qo'ysan, va demak, baribir, sen menga tegishli haqni to'laysan". Evatl unga teskari delemma bilan javob qaytargan: "Murofaamizda agar men yutib chiqsam, u vaqtida men sud qaroriga muvofiq haqni to'lamasligim kerak, agar murofaada yutqazib qo'ysam, u vaqtida men, shartimizga muvofiq haqni to'lamasligim kerak, lekin men murofaada yo yutib chiqaman yoki yutqazib qo'yaman, demak, unday bo'lganda ham, bunday bo'lganda ham men tegishli haqni to'lamasligim kerak."

16-mashq. Quyidagi mulohazadan qanday metod bilan qanday xulosa chiqadi?

- Havo nasosi qalpog'i ichida havo bo'lgandagina, unda qo'ng'iroqning ovozi chiqadi. Agar uning ichida havo bo'lnasa, ovoz chiqmaydi.

17-mashq. Quyidagilar xulosaning qaysi turiga kiradi? Uning kamchiligi nimada?

- Ob-havoni kuzatib borish asosida xalq orasida hikmatli alomatlar tarqalgan. Masalan, "Qaldirg'ochlar pastlab uchsa, yomg'ir bo'ladi", "Kechqurungi shafaq qizg'ish tovlanib ko'rinsa, sharnol bo'ladi" va hokazo.

18-mashq. Quyidagi mulohazalarini tahlil qiling.

1) – Sen bu yopib qo'yilgan odamni taniysanmi?

– Yo'q.

– Bu – sening otang. Demak, sen o'z otangni tanimaysan.

2) Yolg'onchi o'z yolg'onchiligini tan olishi mumkin. Bu holda u rost aytadi. Lekin kim rost gapirsa, u yolg'onchi emas. Demak, ehtimol, yolg'onchi yolg'onchi emasdir?

3) Timsoh qirg'oqda turgan ayoldan bolasini tortib oldi. Ayolning bolamni ber deb yalinishiga timsoh shunday javob berdi:

- Men senga bolani qaytarib olishing uchun imkon beraman.

Bolani senga beramanmi, yo'qmi? Top! Agar to'g'ri javob bersang, bolani qaytaraman.

O'ylab turib, ona javob berdi:

- Sen menga bolani bermaysan.

- Sen uni olmaysan, - xulosa qildi Timsoh – Sen yo xato, yo rost gapirding. Agar senga bolani bermasligim rost bo'lsa, uni senga bermayman, aks holda aytganing to'g'ri bo'lmaydi. Agar aytganing xato bo'lsa, demak, sen javobni topa olmading va men bolani kelishuvga ko'ra bermayman.

Lekin onaga bu muhokama ishonchli tuyulmadи.

- Agar men to'g'ri aytgan bo'lsam, unda sen, kelishganimizdek, bolani menga berasan. Agar men bolani bermaysan, deb to'g'ri topa olmagan bo'lsam, bolani menga berishing kerak, mening aytganim xato bo'lib chiqadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Voyshvillo E.K., Degtyarev M.G. Logika. –M.: VLADOS-PRESS, 2001.
2. Getmanova A.D. Uchebnik po logike.– M.: CHeRo, 1996.
3. Ivanov V.A. Logika.– M.: BEK, 1997.
4. Ivlev A.A. Logika. M.: Gardariki, 1999.
5. Kirillov V.I., Starchenko A.A. Logika. –M.: Yurist, 1998.
6. Kurbatov V.I. Logika. Rostov-na-Donu: «Feniks», 1997.

1
2
3
4
5
6
7
8
9
10
11
12
13
14
15
16
17
18
19
20
21
22
23
24
25
26
27
28
29
30
31
32
33
34
35
36
37
38
39
40
41
42
43
44
45
46
47
48
49
50
51
52
53
54
55
56
57
58
59
60
61
62
63
64
65
66
67
68
69
70
71
72
73
74
75
76
77
78
79
80
81
82
83
84
85
86
87
88
89
90
91
92
93
94
95
96
97
98
99
100
101
102
103
104
105
106
107
108
109
110
111
112
113
114
115
116
117
118
119
120
121
122
123
124
125
126
127
128
129
130
131
132
133
134
135
136
137
138
139
140
141
142
143
144
145
146
147
148
149
150
151
152
153
154
155
156
157
158
159
160
161
162
163
164
165
166
167
168
169
170
171
172
173
174
175
176
177
178
179
180
181
182
183
184
185
186
187
188
189
190
191
192
193
194
195
196
197
198
199
200
201
202
203
204
205
206
207
208
209
210
211
212
213
214
215
216
217
218
219
220
221
222
223
224
225
226
227
228
229
230
231
232
233
234
235
236
237
238
239
240
241
242
243
244
245
246
247
248
249
250
251
252
253
254
255
256
257
258
259
260
261
262
263
264
265
266
267
268
269
270
271
272
273
274
275
276
277
278
279
280
281
282
283
284
285
286
287
288
289
290
291
292
293
294
295
296
297
298
299
300
301
302
303
304
305
306
307
308
309
310
311
312
313
314
315
316
317
318
319
320
321
322
323
324
325
326
327
328
329
330
331
332
333
334
335
336
337
338
339
339
340
341
342
343
344
345
346
347
348
349
349
350
351
352
353
354
355
356
357
358
359
359
360
361
362
363
364
365
366
367
368
369
369
370
371
372
373
374
375
376
377
378
379
379
380
381
382
383
384
385
386
387
388
389
389
390
391
392
393
394
395
396
397
398
399
399
400
401
402
403
404
405
406
407
408
409
409
410
411
412
413
414
415
416
417
418
419
419
420
421
422
423
424
425
426
427
428
429
429
430
431
432
433
434
435
436
437
438
439
439
440
441
442
443
444
445
446
447
448
449
449
450
451
452
453
454
455
456
457
458
459
459
460
461
462
463
464
465
466
467
468
469
469
470
471
472
473
474
475
476
477
478
479
479
480
481
482
483
484
485
486
487
488
489
489
490
491
492
493
494
495
496
497
498
499
499
500
501
502
503
504
505
506
507
508
509
509
510
511
512
513
514
515
516
517
518
519
519
520
521
522
523
524
525
526
527
528
529
529
530
531
532
533
534
535
536
537
538
539
539
540
541
542
543
544
545
546
547
548
549
549
550
551
552
553
554
555
556
557
558
559
559
560
561
562
563
564
565
566
567
568
569
569
570
571
572
573
574
575
576
577
578
579
579
580
581
582
583
584
585
586
587
588
589
589
590
591
592
593
594
595
596
597
598
599
599
600
601
602
603
604
605
606
607
608
609
609
610
611
612
613
614
615
616
617
618
619
619
620
621
622
623
624
625
626
627
628
629
629
630
631
632
633
634
635
636
637
638
639
639
640
641
642
643
644
645
646
647
648
649
649
650
651
652
653
654
655
656
657
658
659
659
660
661
662
663
664
665
666
667
668
669
669
670
671
672
673
674
675
676
677
678
679
679
680
681
682
683
684
685
686
687
688
689
689
690
691
692
693
694
695
696
697
698
698
699
699
700
701
702
703
704
705
706
707
708
709
709
710
711
712
713
714
715
716
717
718
719
719
720
721
722
723
724
725
726
727
728
729
729
730
731
732
733
734
735
736
737
738
739
739
740
741
742
743
744
745
746
747
748
749
749
750
751
752
753
754
755
756
757
758
759
759
760
761
762
763
764
765
766
767
768
769
769
770
771
772
773
774
775
776
777
778
779
779
780
781
782
783
784
785
786
787
788
789
789
790
791
792
793
794
795
796
797
797
798
799
799
800
801
802
803
804
805
806
807
808
809
809
810
811
812
813
814
815
816
817
818
819
819
820
821
822
823
824
825
826
827
828
829
829
830
831
832
833
834
835
836
837
838
839
839
840
841
842
843
844
845
846
847
848
849
849
850
851
852
853
854
855
856
857
858
859
859
860
861
862
863
864
865
866
867
868
869
869
870
871
872
873
874
875
876
877
878
879
879
880
881
882
883
884
885
886
887
888
889
889
890
891
892
893
894
895
896
897
897
898
899
899
900
901
902
903
904
905
906
907
908
909
909
910
911
912
913
914
915
916
917
918
919
919
920
921
922
923
924
925
926
927
928
929
929
930
931
932
933
934
935
936
937
938
939
939
940
941
942
943
944
945
946
947
948
949
949
950
951
952
953
954
955
956
957
958
959
959
960
961
962
963
964
965
966
967
968
969
969
970
971
972
973
974
975
976
977
978
979
979
980
981
982
983
984
985
986
987
988
989
989
990
991
992
993
994
995
996
997
997
998
999
999
1000

Azamat Muxtarov, Ahmadjon Boboyev

Mantiq
O'quv qo'llanma

Muharrir: Kamilova D.J.

Musahhih: Sultanova D.X.

Litsenziya № 240 04.07.2013. Bosishga ruxsat etildi 17.05.2016 y.
Qog'oz bichimi 60x80 1/16. Shartli bosma tabog'i 6,6. Adadi 50 nusxa.
010-sonli buyurtma
“IQTISODIYOT” nashriyoti DUKning matbaa bo'limida chop etildi.
100003. Toshkent shahri O'zbekiston shohko'chasi, 49-uy.

